ISNN 3030-3907

2026
MAY
ISSUE - 5
VOLUME -12

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

MAY 2026
Issue - 5, VOLUME – 12

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Zamonaviy shaharlarni barpo etishda energiyani tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish istiqbollari *Mirzayeva Umidaxon Murodjon qizi*	9
2	Шудгорланган ерларни экишга тайёрлашда қўлланиладиган машина текислагичининг параметрларини асослаш *Муқимова Давлатхон Каримовна*	16
3	Avtomobillarda interyer dizaynining zamonaviy rivojlanish yo‘nalishlari va ergonomik ahamiyati *Musayev Abrorjon Ilxomjon o‘g‘il*	22
4	O‘zbek tilida savol generatsiyasi uchun morfologik-sintaktik-semantik tahlilga asoslangan lingvistik model *Nasriddinova Iroda Sayfiddin qizi*	31
5	Gidroelektrostansiyalarning mrp/prp protokollari va OPC UA asosida SIL 2 va IEC 62443 talablariga mos zaxiralangan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi arxitekturasi *Najmiddinov Shoxijaxon Tursunboy o‘g‘li* *Madaminov Nodirbek Zafarbek o‘g‘li*	40
6	Boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi darslarida nutqiy kompetensiyani shakllantirishga yo‘naltirilgan mashqlar tizimi *N.Q.Olimova* *R.M.Nazirova*	52
7	Talabalarning analitik kimyo fanidan blum taksonomiyasiga oid tushunchalarini rivojlantirish *Sapayeva Gulzor Islambaevna* *Urunbayeva Akmerjan Allamurat qizi*	57
8	Parametrik modellashtirish orqali muhandislik grafikasi ta’limida loyiha kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi *G. M. Mashrapova*	65
9	Pedagoglarning professional kompetensiyasini baholashning zamonaviy mexanizmlari *Mamatqulova Nigora Nurmuhammedovna*	77
10	Avtotransport korxonalarinida shinalar resursini oshirish orqali iqtisodiy samaradorlikni baholash *Karshiyev Faxridin Umarovich* *Eshimov Sodiq Saydulla o‘g‘li* *Yo‘ldoshev Sharofiddin Faxriddin o‘g‘li* *Mamarajabova Qizlargul Parda qizi*	82
11	Passiv quyosh energiyasi yordamida ishlovchi issiqlik quvurining matematik modeli *Ochilov L.* *Iskandarov N.* *Ashurova U.*	88
12	Analyzing the concept and components of cyber hygiene in the context of educational institutions: user behavior, security awareness, and best practices in uzbekistan. *Omonov Odiljon Mirzaulug‘bek o‘g‘li*	95
13	“Osmonsoy-1” bazaltlari asosida kislotali muhitga bardoshli materiallarning strukturaviy va fazaviy xususiyatlarini o‘rganish natijalari *Bo‘ri Sirojovich Kamolov* *Masharipova Sharofat Muxammadovna*	100
14	Quyosh panellaridan elektr energiya olish va uni kundalik hayotga targ‘ib qilish *Paxirdinov Xabibillo Zuhridinovich* *Qurbonov Mahammadqodir Erkinovich*	109
15	Konussimon maydalagichining ishlash samaradorligini oshirish uchun uning ichki (harakatlanuvchi) bronyasini yig‘ma qismlardan tayyorlashning ilmiy asoslari. *Qosimov Karimjon Zuhriddinovich* *Zuhritdinov Alisher Faraxidin o‘g‘li* *Qosimova Maloxat Karimjonovna*	118

ISSN 3030-3907

	Zo'xriddinov Dilmurod Karimjon o'g'li *Mahammadjonov Nurmahammad Abduvahob o'g'li*	
16	Modern principles of designing drip irrigation systems in greenhouses *Mazahir Mahammad Isayev* *Normatov Ibrokhimali Kholmamatovich* *Natavan Mammad Khasayeva* *Khalid Khalig Khalilov* *Kamran Rovshan Gasimov*	124
17	Qalmoqqir koni rudalarida foydali komponentlarning joylashish shakllari va boyitish samaradorligini oshirish usullari *Boymurodov Najmiddin Abduqodirovich* *Islomov Erkinjon Odiljon o'g'li*	133
18	Qoplamali kanallarning gidravlik hisobi *T.U.Apakxujayeva* *M.Mamajonov*	143
19	Magistral kanallardagi suzuvchi mikro-geslar kaskadini intellektual boshqarish tizimlari *Qosimov Oybek Abdumannon o'g'li*	151
20	Analyzing the digital economy infrastructure of uzbekistan in the context of global processes *Usmanova Nasiba Yunusovna*	157
21	Gidrofob beton materiallarining olinish texnologiyasi *Imamov Suxrob Solexovich* *Ilhomov Javohir In'omjonovich*	162
22	Ta'lim jarayonida data analytics va machine learning texnologiyalari asosida o'quvchilar akademik natijalarini prognozlash modeli *Gulmuradova Lolaxon Shavkatovna*	169
23	Modifikatsiyalangan gidrofob betonlarning xossalarini oshirish texnologiyasi *Imamov Suxrob Solexovich* *Abdukarimov Ahmat Kamol o'g'li* *Nematov Behzod Ikromjon o'g'li*	180
24	Boshlang'ich ta'limda xalqaro baholash dasturlari asosida ta'lim sifatini oshirish omillari *Xushvaqtova Nilufar Xasan qizi*	186
25	Инъекционные технологии в укреплении конструкций памятников архитектуры: зарубежный опыт и перспективы его адаптации для исторических объектов бухары и узбекистана *Файзуллаева З.Н.*	192
26	Heavy feedstock visbreking process. *Samadov A.Kh.* *M.Sh Meilieva* *Sh.O.Mallayev*	206
27	Olmosli burg'ularning qattiq tuzli qatlamlarga ishlatilishini asoslash *Bekjonov Rozisher Soatmurodovich* *Bobomurodov O'tkir Ziyodullayevich* *Jo'rayev Eldor Isroilovich*	215
28	Assessment of the efficient utilization of garland turbine-based micro-hydropower plants under climate change conditions and their impact on water resources. *Zokirov Islomjon Baxtiyor o'g'li*	221
29	Siloksan-akril sopolimer sintezi va uning emal bo'yoq termik xossalariga ta'siri *Asadova Farangis Ixtiyor qizi* *Ostonov Firuz Istamovich* *Jumayev Jabbor Hamroqulovich*	239
30	Сам тизимларида қўлланиладиган геометрик моделлаштириш методлари ва уларнинг илмий таҳлилий баҳоси *Авлякулова Шоҳида Бабаджановна*	244

ISSN 3030-3907

31	Production of high-temperature-resistant stabilizing ether for selbaz-pas drilling mixtures for the oil and gas industry from cellulose-basalt fiber composites *Sattorov Laziz Kholmurodovich* *Kurbanov Abdiraxim Axmedovich* *Rahmatov Xudoyor Boboniyozovich* *Juraeva Huriyat Zoirovna*	254
32	Technology for obtaining drilling fluids from pas stabilizers based on molasses cellulose and basalt fiber with improved properties for evaporating fluids *Sattorov Laziz Kholmurodovich* *Kurbanov Abdiraxim Axmedovich* *Rahmatov Xudoyor Boboniyozovich* *Juraeva Huriyat Zoirovna*	263
33	Sun'iy neyron tarmoqlar asosida texnologik obyektlarningadabtiv boshqarish tizimini sintezlash algoritmlari *Karimov Olimjon Rasulovich* *B.T.Vafoqulovich*	271
34	Loyiha asosida o'qitish texnologiyasi negizida sun'iy intellektli "aqlvoy" platformasini yaratishning pedagogik imkoniyatlarini takomillashtirish *Toshpo'latova Shahnozabonu Bobomurodovna*	278
35	Ftorli β-dikarbonil birikmalarning olinishi va tuzilishi *Halimova Hulkar Amin qizi*	285
36	Economic efficiency analysis of a corrosion inhibitor synthesized from linear alkylbenzene sulfonic acid, urea, and phosphoric acid for the oil and gas industry *Nazarov Sardor* *Yaxshiyeva Go`zal* *Berdiyev Sunnat* *Olimov Bobir Bahodirovich*	294
37	Past navli silvinitlarni qayta ishlash texnologiyasini ishlab chiqish *J.Safarbayev*	300
38	Теоретическая обсуждения и исследование вынужденных колебаний составного дискретизирующего барабанчика пневмомеханических прядильных машин *Эшмухамедов Латиф Махмаюсуфович* *Мирзаев Отабек Абдукаримович* *Эгамбердиева Манзура Олимжон кизи*	308
39	Получение лигноцеллюлозы из коры сосны и исследование её физико-химических свойств *Умурзакова М.Г.* *Махматкулова З.Х.*	316
40	Gipomagnit maydonning dorivor yalpizda mentol hosildorligi va fotosintetik faollikka ta'siri *Dilnura Saidqulova* *Anvarjon Buronov*	328
41	Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishda neyron tarmoqlarni o'qitish qoidalarini qo'llash *Sabirov Ulug'bek Kuchkarovich*	335
42	Необходимость применения расширяющегося волокнистого тампонажного раствора для цементирования продуктивной части эксплуатационной колонны *Айтмуратов Шарапат Азатович* *Комилов Толиб Олимович* *Орипов Азиз Аброрович* *Умедов Шерали Халлокович*	342
43	Axborotni intellektual qidirishda ramziy va sub-simvolik yondashuvlarning qiyosiy tahlili hamda gibrid modelga bo'lgan ehtiyoj *Absalamova Diyora Bo'riboyevna*	352
44	Qayta tiklanadigan energiya manbalaridan kompleks foydalaniladigan quyosh issiqxonasining o'rni *Komilova Nodira Abdirahmon qizi*	361

ISSN 3030-3907

45	Digital workflow architecture for real-time integration of block models and operational grade control in small-scale mining *Yusupov Sh.M.* *Ravshanov Z.Y.* *Pardayev Sh.Sh.* *Ergasheva Z.A.*	373
46	Biosintezlangan kumush nanozarrachalarining fotokatalizda qo‘llanilishining afzalliklari va kamchiliklari *M.G‘. Eshmurodova* *G.Z. Narmayeva*	384
47	Геометрические модели объёмных тел в задачах трёхмерного моделирования подземных водоносных горизонтов *Турмуханов Нуркен Кажымуханович* *Нуратдинова Кумар Нуразизовна*	399
48	Yashil kimyo asosida chiqindisiz texnologiyalar yaratish *Ravshanova Sojida Safarovna*	413
49	Tektonik buzilish hududlaridagi karyer bortlari deformatsion holatini monitoring qilish va turg‘unligini ta’minlash bo‘yicha zamonaviy ilmiy yondashuvlar hamda innovatsion texnologiyalar tahlili *J.H.Abdumalikov* *V.R.Kadirov* *Z.Y.Ravshanov*	422
50	Avtogreyderlar uchun gibrid energetik tizimlarni qo‘llash: muammolar va istiqbollar *Qo‘chqorov Dostonjon Shokirjon o‘g‘li* *Pirnayev Sharofiddin Asatillayevich*	429
51	Разработка технологии переработки медной руды одного из месторождений узбекистана *Салижанова Гулнорахон Кахаровна* *Абдуллаева Дилноза Очилбой кизи.*	435
52	Применение композиционного полимерного реагента для вскрытия скважин с аномально низким пластовым давлением *Кочкаров Сардор Юлдашеувич* *Комилов Толиб Олимович* *Умедов Шерали Халлокович* *Бегижонов Илхом Иноятуллоевич* *Абдиганиев Жахонгир Эркин угли*	443
53	Qishloq xo‘jaligi ekin maydonlarining ekologik holat ma’lumotlarini baholash algoritmlari *Qaypov Aziz Shamshetdinovich* *Allamuratov Timur Koshmurat o‘g‘li* *Joldasbaeva Rano Murad qizi*	449
54	Development of a digital twin based on artificial intelligence to increase the efficiency of excavator-dump truck complexes in open pits *Mukhiddinov Khusniddin* *Shonanov Oybek* *Khalmatov Ulugmurod* *Khalmatov Doston*	455
55	Исследование гигроскопических свойств хлопкового сырья и процесса сушки *Хурмаматов Абдугаффор Мирзабдуллаевич* *Рахмонов Дилшод Дониёр ўғли*	462

ISSN 3030-3907

ZAMONAVIY SHAHARLARNI BARPO ETISHDA ENERGIYANI TEJOVCHI TEXNOLOGIYALAR VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARIDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Mirzayeva Umidaxon Murodjon qizi
Andijon davlat texnika instituti, "Materialshunoslik va kimyo muhandisligi" kafedrasi p.f.f.d (PhD)
E-mail: u.mirzayeva@adti.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy shaharlarni rivojlantirish jarayonida qo‘llanilayotgan energiya samarador texnologiyalar (LED yoritish tizimlari, intellektual issiqlik nazorati, energiya samarador qurilish materiallari) hamda quyosh, shamol, geotermal va bioenergiya manbalarining istiqbollari tahlil qilingan. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, LED yoritish energiya sarfini 60–80% ga, intellektual avtomatlashtirilgan tizimlar binolardagi issiqlik energiyasi sarfini 25–35% ga kamaytiradi. Quyosh va shamol energiyasi integratsiyasi shaharlarning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojining 30–45% ini qoplash imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: aqlli shahar; energiya samaradorligi; qayta tiklanuvchi energiya; LED texnologiyalari; quyosh paneli; shamol energiyasi; geotermal energiya; ekologik barqarorlik; urbanizatsiya; innovatsion texnologiyalar.

Аннотация. В настоящей статье проанализированы перспективы применяемых в процессе развития современных городов энергоэффективных технологий (LED-системы освещения, интеллектуальный контроль теплоснабжения, энергоэффективные строительные материалы), а также солнечной, ветровой, геотермальной и биоэнергии. Результаты анализа показали, что LED-освещение снижает расход энергии на 60–80%, а интеллектуальные автоматизированные системы уменьшают потребление тепловой энергии в зданиях на 25–35%. Интеграция солнечной и ветровой энергии позволяет покрыть 30–45% потребности городов в электроэнергии.

Ключевые слова: умный город; энергоэффективность; возобновляемая энергия; LED-технологии; солнечная панель; ветровая энергия; геотермальная энергия; экологическая устойчивость; урбанизация; инновационные технологии.

Abstract. This article analyzes the prospects of energy-efficient technologies applied in the development of modern cities (LED lighting systems, intelligent heat control, energy-efficient construction materials), as well as solar, wind, geothermal, and bioenergy sources. The results of the analysis show that LED lighting reduces energy consumption by 60–80%, while intelligent automated systems reduce thermal energy consumption in buildings by 25–35%. The

integration of solar and wind energy can cover 30–45% of the electricity demand of cities.

Keywords: smart city; energy efficiency; renewable energy; LED technologies; solar panel; wind energy; geothermal energy; environmental sustainability; urbanization; innovative technologies.

1. KIRISH.

So‘nggi o‘n yilliklarda jahon miqyosida urbanizatsiya jarayonining shiddatli sur'atlar bilan rivojlanishi shaharlarning energiya iste'moli hajmini sezilarli darajada oshirib yubordi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining hisob-kitoblariga ko‘ra, 2050-yilga borib jahon aholisining 68% i shaharlarda istiqomat qiladi va shahar infratuzilmasi global energiya iste'molining 75% gacha qismini tashkil etadi [1]. Bu holat an'anaviy energetika tizimlariga bo‘lgan bosimni oshiribgina qolmay, balki atrof-muhitga ta'sirini ham keskinlashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham urbanizatsiya jarayoni jadal sur'atda kechmoqda. 2030-yilga qadar mamlakat aholisining qariyb 60 foizi shaharlarda istiqomat qilishi kutilmoqda, bu esa shaharsozlik, transport va energetika tizimlarini tubdan modernizatsiya qilishni taqozo etmoqda [2]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha bo‘lgan davrda yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-158-sonli Farmoni mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalari ulushini elektr energiyasi balansida 25 foizdan ortiqqa yetkazish vazifasini belgilab berdi [3].

Mazkur sharoitda "aqlli shahar" (smart city) konsepsiyasi aynan urbanizatsiya, energiya tanqisligi va ekologik muammolarni kompleks hal etishga qaratilgan zamonaviy yondashuv hisoblanadi. Ushbu konsepsiya energiyani tejovchi texnologiyalar, qayta tiklanuvchi manbalar, intellektual boshqaruv tizimlari va raqamli infratuzilmaning uyg‘unligida amalga oshiriladi [4, 5].

Tadqiqotning maqsadi - zamonaviy shaharlarni qurishda energiyani tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish istiqbollarini tahlil qilish, ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash va O‘zbekiston sharoitida joriy etish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari quyidagilardan iborat: birinchidan, zamonaviy shaharlarda qo‘llaniladigan asosiy energiya samarador texnologiyalarni tasniflash; ikkinchidan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarining istiqbolli yo‘nalishlarini aniqlash; uchinchidan, ushbu yechimlarning iqtisodiy va ekologik samaradorligini xalqaro tajriba asosida baholash; to‘rtinchidan, mahalliy sharoitda joriy etishning afzalliklari va cheklovlarini tahlil qilish.

2. MATERIALLAR VA METODLAR.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot tizimli yondashuv asosida olib borildi va u uch asosiy metodologik bosqichni o‘z ichiga oldi. Birinchi bosqichda 2018–2024-yillar oralig‘ida nashr etilgan ilmiy adabiyotlar, xalqaro tashkilotlarning hisobotlari (IEA, IRENA, UN-Habitat) hamda O‘zbekiston Respublikasi me'yoriy hujjatlari tahlil qilindi. Jami 45 dan ortiq manba tahlil etildi va ulardan eng dolzarb 12 tasi mazkur ishda qo‘llanildi.

Ikkinchi bosqichda energiya samarador texnologiyalarning xalqaro tajribasi qiyosiy tahlili bajarildi. Tadqiqot ob'ekti sifatida Yevropa (Kopengagen, Stokgolm, Vena), Osiyo (Singapur, Seul, Tokio) va MDH mamlakatlari (Astana, Toshkent) shaharlarida joriy etilgan loyihalar olindi. Texnologiyalarning energiya samaradorlik ko‘rsatkichlari, qaytarilish muddati va ekologik ta'siri bo‘yicha ma'lumotlar to‘plandi.

Uchinchi bosqichda mavjud ma'lumotlarning tizimli tasnifi va statistik ishlovi amalga oshirildi. Energiya samaradorligi koeffitsienti (EER), iqtisodiy qaytarilish muddati (ROI) va karbonat dioksid emissiyasini qisqartirish ko‘rsatkichlari bo‘yicha solishtirma baholash o‘tkazildi. Tahlil natijalari jadvallar va diagrammalar shaklida umumlashtirildi.

3. NATIJALAR.

3.1. Energiyani tejovchi texnologiyalar tahlili

Zamonaviy shaharlarda qo‘llaniladigan energiyani tejovchi texnologiyalarni shartli ravishda uch asosiy guruhga ajratish mumkin: yoritish tizimlari, intellektual mikroiqlim boshqaruvi va energiya samarador qurilish materiallari [6, 7].

LED-yoritish texnologiyalari hozirda eng keng tarqalgan va iqtisodiy jihatdan asoslangan yechim hisoblanadi. An'anaviy cho‘g‘lanma va lyuminessent lampalarga nisbatan LED-chiroqlar 60–80% gacha kam energiya iste'mol qiladi va xizmat muddati 25 000–50 000 soatga yetadi. Andijon shahrida ko‘cha yoritish tizimini LED-chiroqlarga almashtirish bo‘yicha pilot loyihasi natijalarining ko‘rsatishicha, yillik elektr energiyasi sarfi 65% ga, xizmat ko‘rsatish xarajatlari esa 40% ga qisqartirilgan.

Intellektual mikroiqlim boshqaruvi (HVAC) tizimlari binoning haroratini, namligini va havo aylanishini foydalanuvchi mavjudligi va atrof-muhit holatiga qarab avtomatik ravishda moslashtiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlarning joriy etilishi binolarda issiqlik energiyasi sarfini 25–35% ga, sovutish xarajatlarini esa 20–30% ga kamaytiradi [8].

Energiya samarador qurilish materiallari sirasiga ko‘p qatlamli pano-blok devorlar, vakuum izolyatsion oynalar va aks ettiruvchi tomlar kiradi. Ularning qo‘llanilishi binoning umumiy issiqlik o‘tkazuvchanlik koeffitsientini 0,28

ISSN 3030-3907

W/m²·K dan 0,12 W/m²·K gacha kamaytirib, isitish xarajatlarini deyarli 2 baravarga qisqartirish imkonini beradi.

Energiya samarador texnologiyalarning solishtirma samaradorlik ko‘rsatkichlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Energiya samarador texnologiyalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari

Texnologiya	Energiya tejash, %	Qaytarilish muddati, yil	CO_2 qisqarish, %
LED yoritish	60–80	2–3	55–70
Intellektual HVAC	25–35	4–6	20–30
Issiqlik izolyatsiyasi	30–50	5–8	25–40
Vakuum oynalar	15–25	6–10	12–20
Smart Grid tarmoqlari	10–20	7–10	15–25

3.2. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari istiqbollari

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining shaharsozlikdagi roli yildan-yilga o‘sib bormoqda. Xalqaro Energiya Agentligi (IEA) ma'lumotlariga ko‘ra, 2023-yilda qayta tiklanuvchi manbalarning jahon elektr energiyasi ishlab chiqarishidagi ulushi 30,3% ni tashkil etdi va 2030-yilga borib bu ko‘rsatkich 50% dan oshishi prognoz qilinmoqda [9].

Quyosh energiyasi O‘zbekiston uchun eng istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Mamlakat hududida quyosh radiatsiyasi yiliga o‘rtacha 1 800–2 200 kVt·soat/m² ni tashkil etib, bu Yevropa davlatlaridan 1,5–2 baravar yuqoridir [10]. Binolar tomida o‘rnatiladigan fotoelektrik panellar joriy bozor narxlarida 6–8 yil ichida o‘zini qoplaydi va 25 yil davomida elektr energiyasi ishlab chiqaradi.

Shamol energiyasi tog‘oldi va dasht hududlari uchun maqbul yechim hisoblanadi. Shamol tezligi 5,5–7,5 m/s bo‘lgan hududlarda o‘rnatiladigan zamonaviy turbinalarning quvvat koeffitsienti 30–40% ni tashkil etadi. O‘zbekistonda Bo‘ka, Sherobod va Qoraqalpog‘iston hududlari shamol energetikasini rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Geotermal energiya - yer osti issiqligidan foydalanish texnologiyasi - xalqaro tajribada keng qo‘llanilmoqda. Issiqlik nasoslari yerning 50–200 m chuqurligidagi barqaror harorat (12–18 °C) dan foydalanib, isitish va sovutish uchun zarur energiyani 3–4 baravar samaraliroq yetkazib beradi. Andijon viloyatining geotermal salohiyati ushbu texnologiyani joriy etish uchun yetarlidir.

ISSN 3030-3907

Bioenergiya manbalari maishiy va qishloq xo‘jalik chiqindilarini metan ishlab chiqarish va elektr energiyasiga aylantirishga asoslanadi. Andijon viloyati qishloq xo‘jalik chiqindilari yiliga 1,2 mln tonnani tashkil etib, ulardan taxminan 180 mln m³ biogaz olish mumkin.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining solishtirma tahlili 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qiyosiy ko‘rsatkichlari

Manba turi	LCOE, USD/kVt·soat	Quvvat koeffitsienti, %	Xizmat muddati, yil
Quyosh (PV)	0,036–0,055	18–22	25–30
Shamol (quruqlikda)	0,030–0,050	30–40	20–25
Geotermal	0,060–0,090	70–85	30–50
Bioenergiya	0,070–0,100	50–70	20–25

3.3. Texnologiyalarni integratsiyalash imkoniyatlari

Energiyani tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi manbalarning yagona tizimga birlashtirilishi eng yuqori samaradorlikni ta'minlaydi. Bunday hibrid yondashuv "net-zero" (sof nol) konsepsiyasini amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni bino yoki butun shahar mahallasi o‘zi iste'mol qilgan miqdordagi energiyani mustaqil ravishda ishlab chiqaradi [11].

Daniya, Germaniya va Niderlandiyada amalga oshirilgan loyihalar shuni ko‘rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv shahar darajasidagi umumiy energiya iste'molini 35–50% ga kamaytirish, CO_2 chiqindilarini esa 40–60% ga qisqartirish imkonini beradi. Bunda asosiy element sifatida "aqlli energiya tarmog‘i" (Smart Grid) xizmat qiladi, u istemolni real vaqtda tartibga soladi.

4. MUHOKAMA.

Olib borilgan tahlil natijalari energiyani tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi manbalarning birgalikda qo‘llanilishi shahar miqyosida sezilarli iqtisodiy va ekologik samara berishini tasdiqladi. LED yoritish va intellektual HVAC tizimlari nisbatan kam investitsiyani talab qilib, qisqa muddatda o‘zini qoplagani holda, qayta tiklanuvchi manbalar uzoq muddatli barqaror energiya ta'minotini kafolatlaydi.

Shu bilan birga, mazkur texnologiyalarni keng joriy etishda bir qator obyektiv qiyinchiliklar mavjud. Birinchidan, dastlabki kapital qo‘yilmalarning yuqoriligi xususiy mulkdorlar va o‘rta tadbirkorlik subyektlari uchun moliyaviy

ISSN 3030-3907

to‘siq bo‘lmoqda. Ikkinchidan, texnologiyalarning samarali ekspluatatsiyasi uchun zarur bo‘lgan malakali muhandis-texnik kadrlar tanqisligi sezilmoqda. Uchinchidan, mavjud me'yoriy-huquqiy baza energiya samarador qurilish standartlarini majburiy talab sifatida belgilash bo‘yicha takomillashtirilishni talab qiladi.

O‘zbekistonning iqlim sharoitlari (yuqori quyosh radiatsiyasi, mo‘tadil shamol salohiyati, mavsumiy harorat tebranishi) qayta tiklanuvchi energiyaning aksariyat turlarini joriy etish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Davlat tomonidan amalga oshirilayotgan rag‘batlantiruvchi siyosat - soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, "yashil" sertifikatsiya tizimi - bu yo‘nalishdagi rivojlanishni tezlashtirishi mumkin.

Xalqaro tajribaning ko‘rsatishicha, energiya samarador shahar infratuzilmasini yaratish uchun davlat-xususiy sherikchilik mexanizmidan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Shahar hokimiyatlari, ishlab chiqaruvchi korxonalar, ilmiy-tadqiqot institutlari va aholining hamkorligi muvaffaqiyatning asosiy omili hisoblanadi.

5. XULOSA.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, zamonaviy shaharlarni rivojlantirishda energiyani tejovchi texnologiyalar va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish iqtisodiy va ekologik nuqtai nazardan to‘liq asoslangan strategik yo‘nalish hisoblanadi. LED yoritish texnologiyalari energiya sarfini 60–80% ga, intellektual HVAC tizimlari 25–35% ga kamaytirib, dastlabki investitsiyalarni 2–6 yilda qoplaydi. Quyosh va shamol energiyasining hibrid integratsiyasi shaharlarning elektr energiyasiga bo‘lgan ehtiyojining 30–45% ini qoplash imkonini beradi.

O‘zbekiston sharoitida ushbu texnologiyalarni keng joriy etish uchun quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi: yangi quriladigan binolarda energiya samaradorlik standartlarini majburiy talab sifatida belgilash; quyosh panellari va issiqlik nasoslari uchun davlat subsidiyalari tizimini joriy etish; texnik kadrlar tayyorlash bo‘yicha maxsus dasturlarni amalga oshirish; pilot "aqlli mahalla" loyihalarini Andijon, Toshkent va Samarqand shaharlarida sinovdan o‘tkazish.

Olib borilgan ishning ilmiy-amaliy ahamiyati zamonaviy shaharlarni qurishda barqaror energetika printsiplarini tatbiq etish uchun ilmiy asos yaratishidan iborat. Keyingi tadqiqotlar O‘zbekiston shaharlari uchun individual energiya samaradorlik xaritasini tuzish va uzoq muddatli prognozlarni ishlab chiqishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. UN-Habitat. World Cities Report 2022: Envisaging the Future of Cities. – Nairobi: United Nations, 2022. – 386 p.

ISSN 3030-3907

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi. Demografik holat va aholi joylashuvi. – Toshkent, 2024. – 124 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha bo‘lgan davrda yashil iqtisodiyotga o‘tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PF-158-sonli Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/-6303080 (murojaat sanasi: 15.04.2024).
4. Albino V., Berardi U., Dangelico R.M. Smart cities: Definitions, dimensions, performance, and initiatives // Journal of Urban Technology. – 2015. – Vol. 22. – №. 1. – P. 3–21.
5. Mohanty S.P., Choppali U., Kougianos E. Everything you wanted to know about smart cities // IEEE Consumer Electronics Magazine. – 2016. – Vol. 5. – №. 3. – P. 60–70.
6. Qahhorov S.Q. Muqobil energiya manbalari: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2022. – 248 b.
7. Pérez-Lombard L., Ortiz J., Pout C. A review on buildings energy consumption information // Energy and Buildings. – 2008. – Vol. 40. – №. 3. – P. 394–398.
8. Mirzayeva U.M. Zamonaviy shaharsozlik sanoatida qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanishning samarali istiqbollari // Holders of Reason. – 2024. – T. 4. – №. 1. – B. 132–134.
9. International Energy Agency (IEA). Renewables 2023: Analysis and forecast to 2028. – Paris: IEA, 2023. – 142 p.
10. Avezov R.R., Akhatov J.S. Solar energy resources of Uzbekistan and prospects of their use // Applied Solar Energy. – 2021. – Vol. 57. – №. 4. – P. 312–319.
11. Lund H., Mathiesen B.V. Energy system analysis of 100% renewable energy systems // Energy. – 2009. – Vol. 34. – №. 5. – P. 524–531.
12. Mirzayeva U., Matboboyeva S., Nosirov M. Nanolazerlar // Yevroosiyo akademik tadqiqotlar jurnali. – 2022. – T. 2. – №. 11. – B. 1209–1214.

ISSN 3030-3907

УЎТ 631.31

ШУДГОРЛАНГАН ЕРЛАРНИ ЭКИШГА ТАЙЁРЛАШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН МАШИНА ТЕКИСЛАГИЧИНИНГ ПАРАМЕТРЛАРИНИ АСОСЛАШ

Муқимова Давлатхон Каримовна
Т.ф.ф.д.(PhD), доцент, Андижон давлат техника институти
E-mail: kosidavl28@gmail.com
orcid.org/0000-0002-1080-3048

Аннотация. Мақолада янги шудгорланган далаларга ишлов берадиган машина текислагичининг баландлиги ва текислагични горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги бўйича ўтказилган тадқиқотларнинг натижалари келтирилган.

Калит сўзлар: янги шудгорланган далаларга ишлов берадиган машина, текислагич, текислагичнинг баландлиги, текислагични горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований, посвящённых высоте и углу установки выравнивателя относительно горизонта на машине для обработки ново вспаханных полей.

Ключевые слова: машина для обработки ново вспаханных полей, выравниватель, высота выравнивателя, угол установки выравнивателя относительно горизонта.

Abstract. The article presents research results on the height and angle of the leveler's installation relative to the horizon on a machine for processing newly plowed fields.

Keywords: machine for processing newly plowed fields, leveler, leveler height, leveler installation angle relative to the horizon.

КИРИШ.

Мамлакатимизда очиқ далага экиладиган буғдой ва кузги буғдойдан бўшаган майдонларга такрорий экин сифатида экиладиган сабзавот ва картошка каби экинлар янги, яъни бевосита экишдан олдин шудгорланган ерларга экилади. Бунда ҳайдалган ерлар изма-из экишга тайёрланади ва сўнг экиш тадбирлари амалга оширилади.

Маълумки янги шудгорланган ерларда кўплаб бўшлиқ(ғовак)лар мавжуд бўлиб, улар экиш, суғориш ва қатор ораларига ишлов бериш тадбирларини сифатли ўтказишга имкон бермайди ҳамда ўсимликларни ривожланишига салбий таъсир кўрсатади.

Яна шуни таъкидлаш лозимки уруғларни сифатли экиш ва ундириб олиш учун шудгор юзаси майдаланиш даражаси ва текислиги бўйича экиш фонига қўйиладиган талабларга мос келиши керак.

ISSN 3030-3907

Юқорида таъкидланганларга асосан янги шудгорланган ерларни экишга тайёрлаш бутун ҳайдов қатламини зичлаш ҳамда уларнинг юза қисмини текислаш ва майдалашдан иборат бўлиши лозим.

Ҳозирги пайтда янги ҳайдалган ерларни экишга тайёрлаш ишлари тишли ва дискли тирмалар ҳамда турли мола-текислагичлар билан алоҳида-алоҳида кўп марталаб ўтиб амалга ошириб келинмоқда. Бу тупроқнинг физик-механик хоссаларини ёмонлашуви, тупроқдан кўплаб нам йўқотилиши ҳамда ёқилғи сарфи ва бошқа харажатларни ортиб кетишига олиб келади. Жаҳон миқёсида эришилган илмий ютуқлар ҳамда Республикамизда илгари бажарилган тадқиқотлар таҳлили шуни кўрсатадики, янги шудгорланган ерларни экишга тайёрлашда мавжуд бўлган бу камчиликлар даладан бир ўтишда тупроқни экишга тайёрлаш бўйича барча технологик жараёнлар(ҳайдов қатламини тўлиқ зичлаш, даланинг юза қисмини текислаш ва майдалаш)ни қўшиб бажарадиган, яъни экиш олдидан унга бир ўтишда ҳар томонлама тўлиқ ишлов берилишини таъминловчи машина ишлаб чиқиш йўли билан бартараф этилиши мумкин. Янги шудгорланган ерларга экиш олдидан ишлов беришда бундай машинани қўллаш технологик жараёнларни қўшиб олиб бориш ва агрегатларни даладан ўтишлар сонини камайтириш ҳисобига ёқилғи сарфи ва бошқа харажатларни кескин камайтириш билан бирга иш унумдорлигини ошириш, тупроққа ишлов бериш сифатини яхшилаш ҳамда ундаги нам йўқотилишини олдини олиш, экинларни ўз вақтида экиб, қийғос ундириб олиш имконини беради.

Янги шудгорланган далаларда ўсимлик қолдиқлари ва бегона ўтлар мавжуд бўлган тупроқнинг юқори қатлами ағдарилиб, пастки қатламга ташланади, бунинг натижасида ҳайдов қисмида бўшлиқлар ҳосил бўлади, бу бартараф этилмаса ёки унинг ҳажми минимумга келтирилмаса, суғориш ва қатор ораларига ишлов бериш ишларининг сифати ёмонлашади. Бундан ташқари экинларни сифатли экиш учун тупроқ юқори қатламининг ҳолати зичлиги ва текислиги бўйича экиш фонига қўйиладиган агротехника талабларига мос келиши керак. Айтилганларни ҳисобга оладиган бўлсак, плуг корпуслари ағдарган тупроқ палахсалари машина таъсирида зичланиши, майдаланиши ва текисланиши лозим. Бундан ташқари, ёзги юқори ҳароратни ҳисобга олиб намлик сақланишини таъминлаш учун машина шудгор юзасида майин қатлам ҳосил қилиши керак.[1,2]


Ушбу айтилганлардан келиб чиққан ҳолда мазкур ишда янги шудгорланган ерларга экиш олдидан ишлов бериш учун даладан бир ўтишда барча технологик жараёнларни қўшиб бажарадиган, яъни ҳайдов қатламини тўлиқ зичлаш ҳамда унинг юза қисмини текислаш ва

ISSN 3030-3907

майдалашни таъминлайдиган машина ишлаб чиқиш, унинг параметрларини асослаш бўйича тадқиқотлар ўтказиш назарда тутилган.

Келтирилган талаблар, адабиётлар ва турли иш органлари технологик жараёнларнинг таҳлили ҳамда ишлаб чиқилган дастлабки талаблар асосида шудгорланган ерларга изма-из ишлов берадиган комбинациялашган машина осиш қурилмаси билан жиҳозланган рама 1 га кетма-кет ўрнатилган понасимон ясси дисклар билан жиҳозланган ғалтакмолалар 2 ва 3, текислагич 4 ва планкали ғалтакмола 5 дан иборат этиб ишлаб чиқилди (1-расм).

Машинанинг иш жараёни қуйидаги тартибда кечади: плуг корпуслари томонидан ағдарилган палахсаларга биринчи бўлиб дискли ғалтаклар таъсир этади. Улар палахсаларни майдалайди ва зичлайди, кейин текислагич шудгор юзасини текислайди. Шундан сўнг тупроққа планкали ғалтакмола таъсир кўрсатиб, шудгор юзасини талаб даражасида зичлайди ва унда нам тўплаш учун майин қатлам ҳосил қилиб кетади.



1-расм. Шудгорланган ерларга ишлов беришда қўлланиладиган комбинациялашган машинанинг схемаси

Қуйидагилар текислагичнинг машина сифат ва энергетик кўрсаткичларига таъсир этувчи асосий параметрларидан ҳисобланади: $H_{mз}$ – текислагичнинг баландлиги, см; $\beta_т$ – текислагични горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги, град.

Текислагичнинг баландлиги. Бу омилни текислагич олдида уюлган тупроқ унинг устидан ошиб кетмаслиги шартидан келтириб чиқарилган қуйидаги ифода бўйича аниқлаймиз [3,4,5]

$$H_{mз} \geq \sqrt{\frac{4Z_H l_H}{\pi[ctg\mu - ctg(\beta - \gamma)]}} + H_1(1 - \frac{\rho_0}{\rho}), \qquad (1)$$

бунда Z_0 ,l – дала юзасидаги нотекисликларнинг баландлиги ва узунлиги;

ISSN 3030-3907

H_1 – Комбинациялашган агрегат юмшаткич ва ўқёйсимон панжалари томонидан ишлов бериш чуқурлиги;

μ – текислагич-зичлагич олдида уюлган тупроқнинг қиялик бурчаги (ҳаракат йўналиши бўйича);

ρ_0, ρ – тупроқнинг текислагич ўтишидан олдинги ва ўтгандан кейинги зичликлари.

$Z_н$ =5 см; H_1=20 см; ρ_0 =1,0 г/см^3; ρ_1=1,2 г/см^3; $l_н$=45 см; γ=25°; β=150° ва μ=30° қабул қилиб (1) ифода бўйича текислагичнинг баландлиги камида 15,6 см бўлиши лозимлиги аниқланди.

Текислагични горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги. Бу бурчакни текислагич томонидан дала юзасидаги тупроқ бўйлама йўналишида сурилиши таъминланиши лозимлигидан келиб чиққан ҳолда аниқлаймиз, чунки акс ҳолда дала юзасининг етарли даражада текисланиши таъминланмайди.[6,7]

Текислагич тупроқни бўйлама йўналишида суриши учун қуйидаги шарт бажарилиши лозим


$$90 - \varphi < \beta_T < 90 + \varphi, \qquad (2)$$

бунда φ – тупроқни текислагичнинг ишчи юзасига ишқаланиш бурчаги

(2) ифодага φ ни маълум қийматларини қўйиб, текислагичнинг горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги 60-120º оралиғида бўлиши лозимлигини аниқлаймиз.

Текислагичнинг текисловчи қисмини зичловчи қисмига нисбатан эгилиш бурчаги.

Бу бурчакни аниқлаш учун текислагичнинг текисловчи қисм томонидан тупроқ бўлакларига таъсир этувчи кучларни кўриб чиқамиз (2-расм).



2-расм. Текислагич текисловчи қисмини зичловчи қисмига нисбатан эгилиш бурчагини аниқлашга доир схема

Иш жараёнида текисловчи қисм томонидан тупроқ бўлакларига нормал N_T ва ишқаланиш F_T кучлари таъсир этади. Тупроқ бўлагига таъсир этувчи N_T кучни ҳаракат йўналиши ва текисловчи қисм ишчи сирти бўйлаб

ISSN 3030-3907

йўналган N_v ва N_τ кучларга ажратамиз ва 2-расмда келтирилган схемага биноан қуйидагиларга эга бўламиз

$$N_V = \frac{N}{\sin(\beta+\gamma)}; \quad (3)$$

$$N_\tau = Ntg\left[(\beta+\gamma)-\frac{\pi}{2}\right]. \quad (4)$$

Бу ерда N_v куч тупроқ бўлакларини олдинга, N_τ куч эса пастга қараб ҳаракатлантиради.

Дала юзаси сифатли текисланишини таъминлаш учун қўйидаги шарт бажарилиши лозим

$$N_\tau < F_T. \quad (5)$$

Чунки акс ҳолда тупроқ бўлаклари олдинга етарли даражада сурилмасдан тупроққа ботириб юборилади. Бунинг натижасида дала юзаси етарли даражада сифатли текисланмайди.

(4) ифода ва $F=Ntg\varphi$ эканлигини ҳисобга олганда (3) ифода қуйидаги кўринишга эга бўлади

$$tg\left[(\beta+\gamma)-\frac{\pi}{2}\right] < tg\varphi. \quad (6)$$

Бу ифодани β га нисбатан ечиб қуйидаги натижага эга бўламиз

$$\beta < \frac{\pi}{2}+\gamma+\varphi. \quad (7)$$

$\gamma = \frac{\pi}{4}-\frac{\varphi}{2}$ ифодани ҳисобга олганда бу ифода қўйидаги кўринишига эга бўлади

$$\beta < \frac{3\pi}{4}+\frac{\varphi}{2}. \quad (8)$$

Бу ифодага φ ни маълум қийматларини қўйиб, текислагич текисловчи қисмини зичловчи қисмига нисбатан эгилиш бурчаги кўпи билан 152º бўлиши мумкинлигини аниқлаймиз.

ХУЛОСА. Янги шудгорланган пайкаллар тупроғининг сифатли майдаланиши ҳамда талаб даражасида зичланиши ва текисланишини таъминлаш учун текислагичнинг баландлиги 15,6 см, горизонтга нисбатан ўрнатилиш бурчаги 60-120º оралиғида, текислагич текисловчи қисмини зичловчи қисмига нисбатан эгилиш бурчаги кўпи билан 152º бўлиши лозим.

ISSN 3030-3907

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Соколов В.Н. Исследование параметров орудия для предпосевного уплотнения и выравнивания почвы в хлопководстве: Дис. ... канд.техн.наук. - Янгиюль, 1974. - 150 с.
2. Эгамов А.Т. Обоснование параметров малы-выравнивателя с регулируемым давлением на почву: Дис. ... канд. техн. наук. - Янгиюль, 1988. - 151 с.
3. Утепбергенов Б.К. Обоснование параметров выравнивающего рабочего органа рыхлителя-выравнивателя: дисс. … канд.техн.наук. – Янгиюль, 2001. -147 б.
4. Тухтакузиев А., Хаджи-Мурадов А.О., Нуриддинов А. Теоретические предпосылки к определению рациональных параметров дискового катка приспособления к плугу //Фарғона политехника институти илмий-техника журнали. – Фарғона, 2006. –№ 2. – Б. 24-26.
5. Бойметов Р.И., Эльбаев Б.Б. Исследование физико-механических свойсть почвы зоны Каршинской степи // Обоснование технологических процессов, механизмов и машин для хлопководство: Сб. тр./ САИМЭ. – Ташкент. 1987. – Вып.29. – Б. 17-19.
6. Аминов С. Обоснование параметров уплотнительного катка к предпосевному орудию для хлопководства: Автореф. дисс. … канд. техн. наук. – Янгиюль, 1988. -16 б.
7. Маматов Ф. М. Қишлоқ хўжалик машиналари. – Тошкент: Фан, 2007. – 339 б.

ISSN 3030-3907

AVTOMOBILLARDA INTERYER DIZAYNINING ZAMONAVIY RIVOJLANISH YO‘NALISHLARI VA ERGONOMIK AHAMIYATI

Musayev Abrorjon Ilxomjon o‘g‘il
Andijon davlat texnika instituti Avtomobilsozlik av transport fakulteti
“Avtomobilsozlik Dizayn” yo‘nalish 2-bosqich talabasi
E-mail: abrormusayev907@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada avtomobillarda interyer dizaynining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ergonomik xususiyatlari hamda haydovchi va yo‘lovchilar qulayligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqotda avtomobil salonining funksional tuzilishi, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, xavfsizlik tizimlari bilan uyg‘unligi hamda ekologik materiallardan foydalanish masalalari ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, avtomobil interyerining inson psixologiyasi va boshqaruv samaradorligiga ta’siri ilmiy manbalar hamda zamonaviy avtomobil ishlab chiqaruvchilari tajribasi asosida baholangan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, interyer dizaynini ergonomik va innovatsion asosda takomillashtirish transport vositalarining xavfsizligi, estetik jozibadorligi va foydalanish samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi aniqlangan.

Kalit so‘zlar: avtomobil interyeri, ergonomika, avtomobil dizayni, raqamli texnologiyalar, multimedia tizimlari, xavfsizlik, ekologik materiallar, komfort.

Abstract. This article analyzes modern development trends in automobile interior design, its ergonomic features, and its impact on driver and passenger comfort. The study examines the functional structure of vehicle interiors, the implementation of digital technologies, integration with safety systems, and the use of environmentally friendly materials. Furthermore, the influence of automobile interior design on human psychology and driving efficiency is evaluated based on scientific sources and the experience of modern automobile manufacturers. The results of the study indicate that improving interior design on ergonomic and innovative principles is an important factor in enhancing vehicle safety, aesthetic appeal, and operational efficiency.

Keywords: automobile interior, ergonomics, automobile design, digital technologies, multimedia systems, safety, eco-friendly materials, comfort.

Аннотация. В данной статье анализируются современные тенденции развития дизайна интерьера автомобилей, его эргономические особенности и влияние на комфорт водителя и пассажиров. Рассматриваются функциональная структура автомобильного салона, внедрение цифровых технологий, интеграция с системами безопасности, а также использование экологически чистых материалов. Кроме того, оценивается влияние дизайна автомобильного интерьера на психологическое состояние человека и эффективность управления транспортным средством на основе научных

источников и опыта современных производителей автомобилей. Результаты исследования показывают, что совершенствование интерьера на основе эргономических и инновационных принципов является важным фактором повышения безопасности, эстетической привлекательности и эксплуатационной эффективности транспортных средств.

Ключевые слова: интерьер автомобиля, эргономика, дизайн автомобиля, цифровые технологии, мультимедийные системы, безопасность, экологические материалы, комфорт.

1. KIRISH.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida avtomobilsozlik sanoati dunyo iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Zamonaviy avtomobillar faqatgina transport vositasi sifatida emas, balki inson uchun qulay, xavfsiz va texnologik muhit yaratadigan murakkab muhandislik mahsuloti sifatida qaralmoqda. Shu sababli avtomobilning texnik ko‘rsatkichlari bilan bir qatorda interyer dizayniga bo‘lgan talab ham keskin ortib bormoqda.

Avtomobil interyeri transport vositasining ichki funksional va estetik muhitini ifodalaydi. Interyer tarkibiga o‘rindiqlar, boshqaruv paneli, multimedia tizimlari, yoritish elementlari, xavfsizlik tizimlari, ventilyatsiya va iqlim nazorati qurilmalari hamda bezak elementlari kiradi. Ushbu elementlarning uyg‘unligi avtomobilning umumiy ekspluatatsion sifati va foydalanuvchi qulayligini belgilab beradi.

So‘nggi yillarda avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar orasida interyer dizayniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Chunki avtomobil xaridorlari uchun salonning qulayligi, dizayni va texnologik imkoniyatlari tanlovdagi asosiy mezonlardan biriga aylanmoqda. Ayniqsa premium segmentdagi avtomobillarda interyer dizayni avtomobilning umumiy qiymatini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi avtomobil interyerida ham tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Zamonaviy avtomobillarda sensorli ekranlar, virtual panel, sun’iy intellekt asosidagi yordamchi tizimlar, ovozli boshqaruv, avtomatik iqlim nazorati hamda haydovchini monitoring qiluvchi tizimlar keng qo‘llanilmoqda. Bu esa avtomobil boshqaruvini yanada soddalashtirish va xavfsizlik darajasini oshirish imkonini bermoqda [1].

Avtomobil interyer dizayni bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, avtomobil salonining ergonomik, estetik va texnologik jihatlari transport vositasining umumiy sifati hamda xavfsizlik darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda avtomobilsozlik sanoatida interyer dizayniga bo‘lgan talabning ortishi ushbu yo‘nalish bo‘yicha ilmiy izlanishlarning ham kengayishiga olib keldi.

ISSN 3030-3907

Xorijiy olimlarning tadqiqotlarida avtomobil interyerining inson psixologiyasi va fiziologiyasiga ta’siri alohida o‘rganilgan. Jumladan, J. Smith va K. Lee tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda avtomobil salonining ergonomik loyihalanishi haydovchi charchoqlarini kamaytirishi, boshqaruv samaradorligini oshirishi va yo‘l-transport hodisalari xavfini pasaytirishi ta’kidlangan. Ularning fikriga ko‘ra, haydovchi o‘rindig‘ining anatomik shaklda ishlab chiqilishi, boshqaruv elementlarining optimal joylashuvi hamda ko‘rinish zonasining kengligi xavfsiz boshqaruvni ta’minlovchi asosiy omillardan biridir [2].

Transport ergonomikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlarda inson antropometrik ko‘rsatkichlari avtomobil interyerini loyihalashdagi asosiy mezon sifatida qaraladi. Olimlarning ta’kidlashicha, boshqaruv panelining noto‘g‘ri joylashuvi yoki o‘rindiqlarning noqulay shaklda ishlab chiqilishi haydovchining tez charchashiga, diqqatning susayishiga va boshqaruv xatolarining ortishiga sabab bo‘lishi mumkin. Mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ham avtomobil interyeri va ergonomikasi bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Xususan, transport vositalarida qulay boshqaruv muhiti yaratish, haydovchi va yo‘lovchilar uchun komfort darajasini oshirish hamda avtomobil salonining funksional imkoniyatlarini kengaytirish masalalari keng yoritilgan [9].

So‘nggi yillarda avtomobil interyerida raqamli texnologiyalarning qo‘llanilishi ham ko‘plab ilmiy izlanishlarning markazida turibdi. Tadqiqotlarda sensorli ekranlar, virtual boshqaruv panellari, sun’iy intellekt asosidagi yordamchi tizimlar hamda multimedia komplekslarining samaradorligi o‘rganilgan.

Ilmiy manbalarda avtomobil interyerining psixologik ta’siri ham muhim masala sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotlarga ko‘ra, salonning ranglar uyg‘unligi, yoritish tizimi va bezak elementlari inson ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Yorqin va keskin ranglar haydovchi charchoqlarini oshirishi mumkin bo‘lsa, yumshoq va tabiiy ranglar insonda xotirjamlik hissini uyg‘otadi.

Аннотация. В данной статье рассматриваются технологии получения электрической энергии с помощью солнечных панелей и их значение в повседневной жизни. Освещаются экологическая чистота, экономическая эффективность и неисчерпаемость солнечной энергии. Также проводится анализ преимуществ и недостатков использования солнечных панелей. В статье рассматривается необходимость популяризации солнечной энергии

ISSN 3030-3907

среди населения, методы её внедрения, а также формирование культуры энергосбережения. Особое внимание уделяется возможностям использования солнечной энергии в условиях Узбекистана. Данная статья может быть полезна студентам, преподавателям и широкой общественности, интересующимся возобновляемыми источниками энергии.

Ключевые слова: Солнечные панели, солнечная энергия, электрическая энергия, фотоэлектрический эффект, возобновляемая энергия, экология, энергосбережение, альтернативная энергия, технологии, популяризация.

KIRISH.

Hozirgi davrda dunyo miqyosida energiya resurslariga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Aholi sonining ko‘payishi, sanoatning jadal rivojlanishi va zamonaviy texnologiyalarning keng qo‘llanilishi elektr energiyasiga bo‘lgan talabni sezilarli darajada oshirmoqda. Biroq an’anaviy energiya manbalari – neft, tabiiy gaz va ko‘mir zaxiralari cheklangan bo‘lib, ulardan haddan tashqari foydalanish ekologik muammolarni keltirib chiqarmoqda. Atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar global isish, iqlim o‘zgarishi va atrof-muhit ifloslanishining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ekologik xavfsiz, iqtisodiy samarali va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biriga aylangan.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalari orasida quyosh energiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Quyosh insoniyat uchun eng katta tabiiy energiya manbai bo‘lib, u cheksiz va ekologik toza hisoblanadi. Quyosh energiyasidan foydalanish orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish atrof-muhitga zarar yetkazmaydi hamda tabiiy resurslarni tejash imkonini beradi. Ayniqsa, so‘nggi yillarda quyosh panellari texnologiyasining rivojlanishi natijasida ushbu energiya manbaidan foydalanish imkoniyatlari yanada kengaydi.

Quyosh panellari fotoelektrik effekt asosida ishlovchi qurilmalar bo‘lib, ular quyosh nurini bevosita elektr energiyasiga aylantiradi. Ushbu texnologiya ilk bor ilmiy tajribalar doirasida qo‘llanilgan bo‘lsa-da, bugungi kunda uy xo‘jaliklari, sanoat korxonalari, qishloq xo‘jaligi va yirik energetika tizimlarida keng foydalanilmoqda. Quyosh panellarining asosiy afzalliklari sifatida ekologik tozaligi, uzoq xizmat muddati, energiya tejamkorligi va iqtisodiy samaradorligini ko‘rsatish mumkin. Shu bilan birga, ular elektr tarmoqlaridan uzoqda joylashgan hududlarni energiya bilan ta’minlashda ham muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston geografik joylashuvi va iqlim sharoiti jihatidan quyosh energiyasidan samarali foydalanish imkoniyatiga ega davlatlardan biri hisoblanadi. Respublikamiz hududida yil davomida quyoshli kunlar soni 2800–3000 soatni tashkil etadi. Bu esa quyosh panellaridan keng foydalanish uchun katta salohiyat yaratadi. Ayniqsa, chekka hududlarda elektr energiyasi bilan

ISSN 3030-3907

bog‘liq muammolarni hal etishda quyosh energetikasi muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Shu sababli mamlakatimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, xususan quyosh panellarini joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda aholining energiya iste’moli madaniyatini shakllantirish va energiya tejovchi texnologiyalarni kundalik hayotga tatbiq etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Quyosh panellaridan foydalanishni targ‘ib qilish orqali aholining ekologik savodxonligini oshirish, elektr energiyasidan oqilona foydalanish va yashil iqtisodiyot tamoyillarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, quyosh energiyasidan foydalanish nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki kelajak avlodlar uchun sog‘lom ekologik muhitni saqlashga ham xizmat qiladi.

Mazkur maqolada quyosh panellari yordamida elektr energiyasi olish texnologiyasi, ularning ishlash prinsipi, afzallik va kamchiliklari, quyosh panellarining turlari hamda O‘zbekiston sharoitida ushbu texnologiyani keng joriy etish istiqbollari batafsil yoritiladi. Bundan tashqari, quyosh energiyasini kundalik hayotga targ‘ib qilishning samarali usullari va energiya tejash madaniyatini shakllantirish masalalari ham ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Quyosh energiyasidan foydalanish va fotovoltaik tizimlar bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar so‘nggi yillarda jahon miqyosida keng rivojlanmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan quyosh panellarining ishlash prinsipi, samaradorligi, iqtisodiy foydasi hamda ekologik ahamiyatini o‘rganishga qaratilgan.

Rakhmatullina G. o‘zining “Sovremennye tekhnologii solnechnoy energetiki” asarida quyosh energetikasining zamonaviy rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, quyosh panellarining ekologik xavfsizligi va energiya tejamkorlikdagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi. Muallifning fikricha, quyosh energiyasi XXI asrning eng istiqbolli energiya manbalaridan biri hisoblanadi va u an’anaviy yoqilg‘i resurslariga bo‘lgan qaramlikni kamaytiradi [1].

Ivanov A. “Fotovoltaika: teoriya i praktika” nomli ilmiy asarida fotoelektrik effektning fizik asoslarini batafsil yoritib bergan. Olimning ta’kidlashicha, quyosh panellarining ishlashi yarimo‘tkazgich materiallarning yorug‘lik energiyasini elektr energiyasiga aylantirish xususiyatiga asoslanadi. Shuningdek, muallif monokristalli va polikristalli panellar samaradorligini taqqoslab, monokristalli panellarning foydali ish koeffitsienti yuqoriroq ekanligini ko‘rsatgan [2].

Fraas L. “Introduction to Solar Cells” asarida quyosh elementlarining tuzilishi va ularning texnologik rivojlanish bosqichlarini ilmiy jihatdan tahlil

ISSN 3030-3907

qilgan. Muallif quyosh panellarining uzoq muddatli ishlashi va kam texnik xizmat talab qilishi ularning asosiy ustunliklaridan biri ekanligini qayd etadi [3].

Chow T. o‘zining “Fundamentals of Solar Energy Conversion” kitobida quyosh energiyasini elektr energiyasiga aylantirish jarayonining nazariy asoslarini bayon etgan. Uning fikricha, quyosh energiyasidan samarali foydalanish uchun panellarni geografik joylashuv va quyosh radiatsiyasi ko‘rsatkichlariga mos ravishda o‘rnatish muhim ahamiyatga ega [4].

Kaldellis J. va Kapsali M. tomonidan yozilgan “Techno-economic analysis of solar PV systems” maqolasida quyosh panellarining iqtisodiy samaradorligi o‘rganilgan. Tadqiqotchilar quyosh panellari dastlab katta xarajat talab qilsa-da, uzoq muddat davomida elektr energiyasi xarajatlarini sezilarli darajada kamaytirishini asoslab bergan [5].

International Renewable Energy Agency (IRENA) tomonidan chop etilgan “Solar Energy Roadmap” hisobotida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining global energetika tizimidagi roli yoritilgan. Hisobotda quyosh energetikasining rivojlanishi iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim vosita sifatida baholangan [6].

International Energy Agency (IEA) tashkilotining “Renewable Energy Market Update 2023” hisobotida so‘nggi yillarda quyosh energetikasi bozori jadal rivojlanayotgani, ayniqsa Osiyo mamlakatlarida quyosh panellariga bo‘lgan talab keskin ortgani ta’kidlangan [7].

Kasymov R. “Quyosh energiyasi va istiqbollari” maqolasida O‘zbekiston sharoitida quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qilgan. Muallifning fikricha, respublikamizda yil davomida quyoshli kunlarning ko‘pligi quyosh panellaridan samarali foydalanish uchun qulay sharoit yaratadi [8].

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi tomonidan e’lon qilingan ma’lumotlarda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligi qayd etilgan. Vazirlik ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatda “yashil energetika” tizimini rivojlantirish orqali energiya xavfsizligini mustahkamlash va ekologik muammolarni kamaytirish maqsad qilingan [9].

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqotda quyosh panellari yordamida elektr energiyasi olish texnologiyasining nazariy va amaliy jihatlarini o‘rganish uchun ilmiy tahlil, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, energetika sohasiga oid maqolalar, statistik ma’lumotlar hamda xalqaro tashkilotlar hisobotlari tahlil qilindi. Quyosh panellarining ishlash prinsipi, samaradorligi, afzallik va kamchiliklari texnik hamda iqtisodiy jihatdan o‘rganildi. Shuningdek, O‘zbekiston sharoitida quyosh

ISSN 3030-3907

energiyasidan foydalanish imkoniyatlari hududiy-iqlimiy ko‘rsatkichlar asosida baholandi. Tadqiqot natijalari asosida quyosh energiyasini kundalik hayotga keng joriy etish va targ‘ib qilish bo‘yicha ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bugungi kunda dunyo energetika tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushi yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, quyosh energetikasi eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bunga asosiy sabab sifatida an’anaviy energiya resurslarining kamayib borayotgani, ekologik muammolarning kuchayishi va energiyaga bo‘lgan talabning ortishini ko‘rsatish mumkin. Quyosh panellari orqali elektr energiyasi ishlab chiqarish ekologik xavfsizligi, iqtisodiy samaradorligi hamda uzoq muddatli foydaliligi bilan ajralib turadi [1].

Ilmiy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, quyosh panellarining samaradorligi asosan quyosh radiatsiyasi darajasi, panel turi, geografik joylashuv va texnik xizmat ko‘rsatish holatiga bog‘liq bo‘ladi. Monokristalli panellar o‘rtacha 20–24% samaradorlikka ega bo‘lib, yuqori energiya ishlab chiqarish imkonini beradi. Polikristalli panellarda bu ko‘rsatkich 15–18% atrofida bo‘lsa, thin-film panellarda 10–12% ni tashkil qiladi [2]. Ushbu farq asosan yarimo‘tkazgich materiallarining kristall tuzilishi va yorug‘likni yutish darajasi bilan izohlanadi.

Quyosh panellarining ishlash samaradorligini aniqlashda quyidagi formula keng qo‘llaniladi:

$$E = A \cdot r \cdot H \cdot PR$$

Bu yerda:

E — ishlab chiqarilgan elektr energiyasi;

A — panel yuzasi;

r — foydali ish koeffitsienti;

H — quyosh radiatsiyasi miqdori;

PR — tizim yo‘qotishlari koeffitsienti hisoblanadi.

Mazkur formula asosida olib borilgan hisob-kitoblarga ko‘ra, O‘zbekiston hududida, xususan Andijon viloyatida 1 kVt quvvatga ega quyosh paneli yiliga o‘rtacha 1600–1800 kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqarishi mumkin. Bu esa hududning quyosh energiyasidan foydalanish uchun juda qulay ekanligini ko‘rsatadi [3].

Quyida turli turdagi quyosh panellarining texnik ko‘rsatkichlari taqqoslangan.

ISSN 3030-3907

1-jadval

Quyosh panellari turlarining samaradorlik ko‘rsatkichlari

Panel turi	Samaradorlik (%)	Xizmat muddati	Narx darajasi	Afzalligi
Monokristalli	20–24 %	25 yil	Yuqori	Yuqori samaradorlik
Polikristalli	15–18 %	20–25 yil	O‘rta	Arzon va ommabop
Thin-film	10–12 %	15–20 yil	Past	Moslashuvchan va yengil

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, monokristalli panellar eng yuqori samaradorlikka ega bo‘lsa-da, ularning narxi boshqa turlarga nisbatan qimmatroq hisoblanadi. Shu sababli iqtisodiy imkoniyat va energiya ehtiyojiga qarab panel turini tanlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Tahlillar natijasida quyosh panellarining iqtisodiy samaradorligi ham yuqori ekanligi aniqlandi. Xususan, 5 kVt quvvatga ega quyosh tizimi o‘rtacha yiliga 8000 kVt·soat elektr energiyasi ishlab chiqaradi. Agar bir oila o‘rtacha oyiga 500–600 kVt·soat elektr energiyasi iste’mol qilsa, ushbu tizim uyning asosiy energiya ehtiyojini to‘liq qoplay oladi. Bundan tashqari, ortiqcha ishlab chiqarilgan energiyani umumiy elektr tarmog‘iga uzatish orqali qo‘shimcha daromad olish imkoniyati mavjud [4].

Quyosh energetikasining iqtisodiy foydasini yanada aniqroq ko‘rsatish maqsadida quyidagi hisob-kitoblar amalga oshirildi.

2-jadval

5 kVt quyosh tizimining iqtisodiy samaradorligi

Ko‘rsatkich	Miqdor
Tizimning o‘rtacha narxi	40–50 mln so‘m
Yillik energiya ishlab chiqarish	8000 kVt·soat
Oylik o‘rtacha energiya ishlab chiqarish	650–700 kVt·soat
Yillik mablag‘ tejalishi	7–10 mln so‘m
O‘zini qoplash muddati	5–7 yil
Xizmat muddati	25 yil

Ushbu natijalar quyosh panellarining uzoq muddatli iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Dastlabki investitsiya yuqori bo‘lishiga qaramasdan, tizim o‘zini qisqa muddat ichida qoplaydi va keyingi yillarda foydalanuvchiga deyarli bepul elektr energiyasi taqdim etadi.

Bundan tashqari, quyosh panellarining ekologik samaradorligi ham muhim ilmiy natijalardan biri hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, 1 kVt quvvatga

ISSN 3030-3907

ega quyosh tizimi yiliga o‘rtacha 1,5 tonnagacha karbonat angidrid (CO_2) chiqindilarining oldini oladi [5]. Bu esa atmosfera ifloslanishini kamaytirish va global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishda muhim omil hisoblanadi.

Quyosh energetikasining rivojlanishi nafaqat ekologik va iqtisodiy foyda beradi, balki energiya xavfsizligini ta’minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Elektr uzilishlari kuzatiladigan hududlarda quyosh panellari mustaqil energiya manbai sifatida xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, chekka qishloq hududlarida ushbu texnologiyaning joriy qilinishi aholi turmush sifatini yaxshilashga xizmat qiladi [6].

Ilmiy tahlillar davomida quyosh panellarining ayrim kamchiliklari ham aniqlangan. Jumladan, ob-havo sharoitiga bog‘liqlik, energiyani saqlash tizimlarining qimmatligi hamda dastlabki investitsiya xarajatlarining yuqoriligi ushbu texnologiyaning asosiy muammolari sifatida qayd etildi. Biroq zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida batareyalar narxining pasayishi, panel samaradorligining ortishi va davlat subsidiyalarining joriy qilinishi ushbu muammolarni bosqichma-bosqich kamaytirib bormoqda [7].

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar quyosh panellaridan foydalanish O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy, ekologik va texnologik jihatdan samarali ekanligini ko‘rsatdi. Ayniqsa, mamlakatning yuqori quyosh radiatsiyasi ko‘rsatkichlari qayta tiklanuvchi energiya tizimlarini keng joriy qilish uchun katta imkoniyat yaratadi. Shu sababli quyosh energetikasini rivojlantirish, aholiga targ‘ib qilish va ushbu texnologiyalarni kundalik hayotga keng tatbiq etish mamlakat energetika tizimining barqaror rivojlanishida muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, quyosh panellari yordamida elektr energiyasi ishlab chiqarish bugungi kunda eng istiqbolli va samarali qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu texnologiya ekologik tozaligi, iqtisodiy samaradorligi va uzoq muddatli foydaliligi bilan an’anaviy energiya manbalaridan ustun turadi. Quyosh energiyasidan foydalanish orqali atmosfera ifloslanishini kamaytirish, issiqxona gazlari chiqindilarini qisqartirish hamda global iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatishga erishish mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, quyosh panellari O‘zbekiston sharoitida, ayniqsa quyoshli kunlar soni yuqori bo‘lgan hududlarda juda katta imkoniyatlarga ega. Respublika hududida quyosh radiatsiyasi darajasining yuqoriligi yil davomida barqaror elektr energiyasi ishlab chiqarish imkonini beradi. Ayniqsa, elektr tarmoqlaridan uzoqda joylashgan hududlarda quyosh panellari aholini mustaqil energiya bilan ta’minlashda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

ISSN 3030-3907

Maqola davomida quyosh panellarining ishlash prinsipi, turlari, texnik xususiyatlari, iqtisodiy va ekologik afzalliklari ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, ushbu texnologiyaning ayrim kamchiliklari, jumladan dastlabki xarajatlarning yuqoriligi, ob-havo sharoitiga bog‘liqligi va energiyani saqlash tizimlari bilan bog‘liq muammolar ham yoritildi. Biroq zamonaviy texnologiyalar rivojlanishi natijasida bu kamchiliklar bosqichma-bosqich kamayib borayotgani aniqlandi.

Shuningdek, quyosh energetikasini kundalik hayotga keng joriy etish aholining energiya tejash madaniyatini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Energiya resurslaridan oqilona foydalanish, elektr sarfini kamaytirish va ekologik ongni rivojlantirish jamiyatning barqaror rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Shu sababli quyosh panellaridan foydalanishni targ‘ib qilish, aholiga ushbu texnologiyaning afzalliklarini tushuntirish hamda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish muhim vazifa hisoblanadi.

Kelajakda quyosh panellari texnologiyasining yanada takomillashuvi, foydali ish koeffitsientining oshishi va ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishi ushbu tizimlarning yanada ommalashishiga olib keladi. Natijada quyosh energetikasi nafaqat energiya xavfsizligini ta’minlashda, balki yashil iqtisodiyotni rivojlantirish, ekologik muammolarni kamaytirish va aholi turmush sifatini yaxshilashda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu bois quyosh energiyasidan samarali foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Rakhmatullina G. Sovremennye tekhnologii solnechnoy energetiki. – Moskva: Energiya nashriyoti, 2020. – 215 b.
2. Ivanov A. Fotovoltaika: teoriya i praktika. – Moskva: Energoizdat, 2019. – 328 b.
3. Solar Energy International. Photovoltaic Systems Engineering. 4th ed. – Colorado: SEI Publishing, 2021. – 412 p.
4. Fraas L. Introduction to Solar Cells. – Cham: Springer International Publishing, 2018. – 287 p.
5. REN21. Renewables 2022 Global Status Report. – Paris: REN21 Secretariat, 2022. – 364 p.
6. International Renewable Energy Agency (IRENA). Solar Energy Roadmap. – Abu Dhabi: IRENA Publications, 2021. – 156 p.
7. O‘zbekiston Respublikasi Energetika vazirligi. Fotovoltaika va yangi energiya manbalari. – Toshkent: Energetika vazirligi nashriyoti, 2022. – 96 b.
8. Chow T. Fundamentals of Solar Energy Conversion. – New York: Wiley, 2017. – 340 p.
9. Kaldellis J., Kapsali M. “Techno-economic analysis of solar PV systems”. –

ISSN 3030-3907

Renewable Energy Journal. – London: Elsevier, 2019. – Vol. 134. – P. 1239–1248.
10. International Energy Agency (IEA). Renewable Energy Market Update 2023. – Paris: IEA Publications, 2023. – 198 p.
11. World Bank. Off-grid Solar Market Assessment. – Washington DC: World Bank Publications, 2022. – 174 p.
12. SolarPower Europe. Global Market Outlook for Solar Power 2023–2027. – Brussels: SolarPower Europe, 2023. – 242 p.
13. National Renewable Energy Laboratory (NREL). PV System Performance Data Report. – Colorado: U.S. Department of Energy, 2023. – 118 p.
14. Kasymov R. “Quyosh energiyasi va istiqbollari”. – Energetika jurnali. – Toshkent, 2020. – №4. – 45–52-betlar.
15. U.S. Department of Energy. Solar Energy Technologies Office. – Washington DC: DOE Publications, 2023. – 132 p.

ISSN 3030-3907

KONUSSIMON MAYDALAGICHINING ISHLASH SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN UNING ICHKI (HARAKATLANUVCHI) BRONYASINI YIG‘MA QISMLARDAN TAYYORLASHNING ILMIY ASOSLARI.

Qosimov Karimjon Zuhriddinovich
Andijon davlat texnika instituti t.f.d. professor
Zuhritdinov Alisher Faraxidin o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti t.f.f.d., (PhD)
E-mail: zuhritdinovalisher@gmail.com
Qosimova Maloxat Karimjonovna
Andijon davlat texnika instituti t.f.f.d., (PhD)
E-mail: zuhritdinovalisher@gmail.com
Zo‘xriddinov Dilmurod Karimjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
E-mail: zuhritdinovalisher@gmail.com
Mahammadjonov Nurmahammad Abduvahob o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti
E-mail: zuhritdinovalisher@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada konusli tosh maydalagichlarning konstruktiv xususiyatlari, ularning texnologik afzalliklari, ishlash prinsipi hamda turli sohalarda qo‘llanish imkoniyatlari yoritib berilgan. Maydalash jarayonining fizik-mexanik asoslari, tog‘ jinslarining mustahkamligi va mo‘rtligi kabi bir qator omillar konusli maydalagichlar samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida ilmiy tahlil berilgan. Bundan tashqari, qurilish materiallari sifatida ishlatiladigan tog‘ jinslarini qayta ishlashda drobilkalar tutgan o‘rni alohida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Maydalash jarayoni, konusli drobilka, tog‘ jinslari, fizik-mexanik xususiyatlar, mustahkamlik, mo‘rtlik, qurilish materiallari.

Аннотация. В данной статье освещены конструктивные особенности конических дробилок, их технологические преимущества, принцип работы, а также возможности применения в различных отраслях. Представлен научный анализ влияния физико-механических свойств горных пород, таких как прочность и хрупкость, на эффективность работы конических дробилок. Кроме того, отдельно рассматривается роль дробилок в переработке горных пород, используемых в качестве строительных материалов.

Ключевые слова: процесс дробления, коническая дробилка, горные породы, физико-механические свойства, прочность, хрупкость, строительные материалы.

Abstract. This article highlights the structural features of cone crushers, their technological advantages, operating principles, and application possibilities across various industries. A scientific analysis is provided on how physical and mechanical properties of rocks—such as strength and brittleness—affect the performance of cone crushers. Additionally, the role of crushers in processing rocks used as construction materials is examined in detail.

Keywords: crushing process, cone crusher, rock materials, physical and mechanical properties, strength, brittleness, construction materials.

KIRISH.

Mahalliy hamda xorijiy sanoat amaliyotida tog‘ jinslari va boshqa qattiq materiallarni maydalash jarayonida konusli maydalagichlar (drobilkalar) keng qo‘llaniladi. Ushbu maydalagichlar yordamida rudalar, granit, bazalt, ohaktosh kabi turli materiallar qayta ishlanadi. Konusli drobilkalar yuqori samaradorlikka ega hisoblanib, ular maydalashning deyarli barcha bosqichlarida qo‘llanishi mumkin.

Konussimon maydalagichning ichki (harakatlanuvchi) bronyasini yig‘ma qismdan tayyorlash ekspluatatsiya nuqtai nazaridan amalga oshrish mimkin bo‘lgan yechim hisoblanadi [1].

Odatda, konussimon bronyalar yaxlit (monolit) quyma holida bo‘ladi. Uni bo‘laklarga bo‘lishning ijobiy tomonlari quyidagilardan iborat:

1. Maydalash kamerasini doimiy ravishda bir tekis yuklanishini ta’minlab bo‘lmaydi. Natijada konuslar butun ishchi yuzasi bo‘ylab har doim bir tekis yeyilmaydi. Agar faqat ma’lim bir qismi (ko‘p yuklangan joyi) yeyilsa, butun bronyani emas, faqat yeyilgan bo‘laklarni almashtirish mumkin.

2. 16 ta kichik bo‘lakni tashish va kran ishlatmasdan, qo‘lda o‘rnatish osonroq. Bu ta'mirlash vaqtini qisqartirishi mumkin [2].

3. Yaxlit quyma konuslarda ba'zan ichki kuchlanish tufayli yoriqlar paydo bo‘ladi. Bo‘lakli konstruksiya termik kengayish va mexanik zarbalarga chidamlirroq bo‘lishi mumkin.

Ichki konusni bo‘laklarga bo‘lishning salbiy tomonlari ham mavjud bo‘lib ular quyidagilardan iborat:

Ma’lumki, konus bronyasi va konus tanasi orasiga rux (sink) yoki polimer quyiladi. 16 ta bo‘lak o‘rtasidagi choklardan bu suyuqlik oqib ketishi yoki bo‘laklar orasiga tosh kirib qolishi mumkin [3-5].

Agar bo‘laklar orasida kichik bo‘shliq (zazor) qolsa, ish paytida bo‘laklar "o‘ynashni" boshlaydi. Bu konusning o‘ziga (tanasiga) zarar yetkazadi. Konus tanasini ta'mirlash esa bronyadan po‘p marta qimmatga tushadi.

ISSN 3030-3907

Tog‘ jinsini maydalashda bosim juda yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, bo‘laklar orasidagi choklar "zaif nuqta" hisoblanadi. Bularning natijasida bo‘laklar orasida yeyilish tezlashib ketadi.


Bulardan salbiy oqibatlarni oldini olish uchun bo‘laklarga qo‘shimcha konstruktiv o‘zgartirishlar kiritish kerakligi kelib chiqadi.

Keltirilgan salbiy oqibatlarni bartaraf etish uchun olib borilgan laboratoriya tadqiqotlari natijasida 16 ta bo‘laklarni bir-biriga birikish qirralarini Z-simon shaklda tayyorlash usuli ishlab chiqildi. Bo‘laklarning birikish qirralarini Z-simon shaklda tayyorlashning ushbu yangi usuli nafaqat bo‘laklarning zichligi va mustahkamligini ta’minlaydi, balki ularning ish jarayonida o‘rnidan siljib ketishining oldini oladi.

Ishlab chiqilgan Z-simon model an'anaviy yaxlit bronyadan farqli o‘laroq, geometrik o‘z-o‘zini bloklash xususiyatiga ega. Bu esa dinamik zarbalar ostida payvand chokining uzilish ehtimolini 1/3 martaga kamaytiradi va segmentlarning o‘zaro nisbiy siljishini bartaraf etadi."

Z-simon shakl parametrlarini asoslash.

Yig‘ma konus bo‘laklari qirralarini Z-simon shaklda ulashda shaklning asosiy parametrlari quyidagi rasmda keltirilgan.



2.1-rasm. Maydalagich konusi yig‘ma bo‘lagi qirralarining asosiy parametrlari.

Yig‘ma konus bo‘laklari qirralarini Z-simon shaklda ulashda shaklning asosiy parametrlari bo‘lib konus bronini devorining o‘rtacha (R_1), ichki (R_2) va tashqi (R_3) radiuslari, bo‘lak kengligining o‘rtacha (D_1), ichki (D_2) va tashqi (D_3) yoylarining uzunliklari, payvandlash uchun faskaning qiyalik burchagi (2α) hisoblanadi, bronya devorining umumiy ($\delta_1=R_3-R_2$) va tashqi ($\delta_2=R_3-R_1$) qismiming qalinliklari.

ISSN 3030-3907

Bunda radiuslar va yoylarning uzunliklari standart monolit konus bronyasini 16 bo‘lakka bo‘lish va qirrasini Z-simon shaklga keltirish natijasida hosil qilinadi. Ammo, faskaning qiyalik burchagi, yani bo‘laklarning bir-biriga ulanish burchagi (2α) nafaqat segmentlarning jipsligini, balki payvand chokining uzoq muddat xizmat qilishini ham belgilaydi.

Avval olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va amaliy sinovlar shuni ko‘rsatdiki, o‘rtacha qattiqlikdagi tog‘ jinslarini maydalashda eng maqbul burchak bo‘lib 2α = 45º dan 60º gacha bo‘lishi kerak ekan.

Ushbu burchak 45º bo‘lganda konusga ta’sir etadigan normal va tangensial kuchlar teng taqsimlanadi, segmentlarning bir-biriga "minishi" optimal bo‘lib, o‘rnatish jarayonida xatoliklar kam bo‘ladi, V-simon faska ochish va elektrod materiali minimal sarflanadi.

Agar burchak 60º bo‘lsa payvand chokning o‘lchamlari kattaroq va mustahkamligi hamda bo‘laklarning aylanishga qarshiligi yuqoriroq bo‘ladi. Yani bir bo‘lakni ikkinchisiga siljituvchi ta’sir kuchi burchakni ortishi bilan kamayib boradi.

Ushbu burchak qiymatining mustrahkamlikka ta’siri quyidagicha aniqlanadi.

$$F = P \cdot sin2\alpha - F_{ishq}$$

bunda: P - payvand chokka tushayotgan yuklama (kuch); 2α - payvand chok uchun ochilgan faskaning burchagi; F_{ishq} – bo‘laklar orasidagi ishqalanish kuchi.

Agar ushbu formulaga kerakli qiymatlarni qo‘yib hisoblasak, burchakni 45 dan 60 gradusgacha ortib borishidan bir bo‘lakni ikkinchisiga siljituvchi ta’sir kuchi 30% gacha kamayishini ko‘rishimiz mumkin.

Maydalagich konusining aylanish yo‘nalishini hisobga olgan holda oldingi bo‘lakka ta’sir etadigan kuch o‘zidan keyin keladigan bo‘lakning qirrasiga ta’sir etishini hisobga olib avval keladigan bo‘lakning Z-simon qirrasi keying bo‘lakning Z-simon qirrasining ustidan bosib turishi va shu sababli bronya devorining payvandlash uchun qoldiriladigan tashqi qalinligini (δ_2) bronya devorining umumiy qalinligini (δ_1) taxminan 1/3 qismini tashkil etishi kerak degan xulosaga kilindi.

Konusning aylanish yo‘nalishini hisobga olgan holda, segmentlarning Z-simon qirralari “**ineritsion blokirovka”** prinsipi asosida joylashtiriladi. Bunda har bir segmentning tashqi chiqiq qismi aylanish yo‘nalishi bo‘yicha keyingi segmentning ichki chiqiq qismining ustiga joylashadi. Ushbu geometrik yechim maydalash jarayonida hosil bo‘ladigan urinma kuchlarni (tangensial kuchlanishlar) segmentlar bo‘ylab teng taqsimlashga va payvand choklarining

ISSN 3030-3907

charchash darajasini pasaytirishga xizmat qiladi. "Segmentlar zanjir kabi bir-biriga ulanadi. Aylanish yo‘nalishi bo‘yicha har bir keyingi bo‘lak oldingisining "ostiga" kirib boradi. Bu holatda toshning qarshiligi segmentlarni ochib yuborishga emas, balki ularni bir-biriga jipslashga xizmat qiladi.

Ichki konusli bronya uchun 16 ta bo‘lakdan iborat segmentlarini ularning bir-biri bilan birikuvchi yon qirralarini Z-simon shaklini quyish jarayonoda hosil qilish, mexanik ishlov berish (frezerlash) xarajatlarini tejaydi va metalning quyma strukturasini saqlaydi. Bunga erishish uchun quyidagi **texnologik talablarga** amal qilinadi:

- Marganetsli po‘lat quyilgandan keyin sezilarli darajada qisqaradi (taxminan 2.5-3%). Z-shaklidagi qirralarni bir-biriga mos kelishi uchun modellar ushbu qisqarishni hisobga olgan holda biroz kattaroq yasaladi.
- Z-shaklidagi qirralar qolipdan oson chiqishi uchun 1-2 daraja qiyalik burchagi beriladi.
- Quyma yuzasidagi qum qoldiqlarini juda yaxshi tozalash kerak. Agar Z-ulanish yuzasi toza bo‘lmasa, 16 ta bo‘lakni bir doiraga yig‘ishda xatolik yuzaga keladi va oxirgi bo‘lak joyiga tushmay qolishi mumkin.

Marganetsli po‘lat quyilgandan keyin juda mo‘rt bo‘ladi. Ushbu mo‘rtlikni bartaraf etish uchun uni **1050-1100°C** haroratgacha qizdirib suvda sovutib toblanadi.

Xulosa qilib aytganda, ichki konusli bronyaning 16 ta segmentini Z-simon qirralar bilan quyish jarayonida hosil qilish texnologiyasi ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshiradi. Ushbu usul mexanik ishlov berish, ayniqsa frezerlash ishlarini kamaytirib, vaqt va xarajatlarni tejash imkonini beradi. Shu bilan birga, quyma metallning tabiiy strukturasini saqlab qolish orqali detalning mustahkamligi va yeyilishga chidamliligi oshadi. Z-shaklli ulanishlarning aniq hosil bo‘lishi uchun marganetsli po‘latning quyilgandan keyingi 2.5–3% qisqarishi oldindan hisobga olinib, model o‘lchamlari mos ravishda kattalashtiriladi. Qolipdan oson ajralishi uchun esa qirralarga 1–2° qiyalik burchagi beriladi. Bundan tashqari, quyma yuzalarini qum qoldiqlaridan tozalash muhim texnologik talab hisoblanadi, chunki yuzalarning notekisligi segmentlarni yig‘ishda aniqlikni buzishi mumkin. Marganetsli po‘latning quyilgandan keyingi mo‘rt holatini bartaraf etish maqsadida 1050–1100°C haroratda qizdirib, suvda sovutish orqali termik ishlov beriladi. Natijada yuqori mustahkamlikka, aşınishga chidamli va uzoq muddat xizmat qiluvchi bronya segmentlari olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Vafoyev S.T. Qurilish mashinalari. T.: Darslik-Toshkent, 2014.
2. Клушанцев Б.В., Косарев А.И., Муйземнек Ю.А. Дробилки конструкция расчет особенности эксплуатации. Машиностроение – Москва 1990.

ISSN 3030-3907

3. Бауман В.А., Клушунцев Б.В., Мартыков В.Д. Механическое оборадувание предприятий строительных материалов изделий и конструкций. Машиностроение – Москва 1981.
4. 4. Бауман В. А., Быховский И. И. Вибрационные машины и процессы в строительстве. М.: Высшая школа, 1977. 354 с.
5. Zuxritdinov Alisher, Zukhriddinov Dilmurodjon , Mahammadjonov Nurmuhammad RESULTS OF THE STUDY ON THE WEAR RESISTANCE OF STONE CRUSHER WORKING PARTS International bulletin of applied science and technology journal Volume 4, Issue 11, November 2024.
6. Patent O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI № IAP 8136. Inertsiyali konusli maydalagich / Zo‘xriddinov Dilmurodjon Karimjon o‘g‘li; Zuxritdinov Alisher Faraxidin O‘g‘li; va bosh.// 30.10.2024.

ISSN 3030-3907

MODERN PRINCIPLES OF DESIGNING DRIP IRRIGATION SYSTEMS IN GREENHOUSES

Mazahir Mahammad Isayev
Azerbaijan University of Architecture and Construction, professor
Normatov Ibrokhimali Kholmamatovich
National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
E-mail: i_normatov@nuu.uz
Tel: +998977210920
Natavan Mammad Khasayeva
Azerbaijan Technical University, doctoral student
Khalid Khalig Khalilov
Institute of Mathematics, doctoral student
Kamran Rovshan Gasimov
Azerbaijan University of Technology, doctoral student

Abstract. This article examines modern principles of drip irrigation systems in greenhouses based on information technology and automation. It analyzes the general principles of drip irrigation in greenhouses, including their control, measurement, and management, and explores an effective solution to the problem of regulating indoor microclimatic conditions. It also examines the implementation of automated processes for monitoring, measuring, and controlling environmental parameters using a multisensor system, its design using innovative methods and tools, and its application in real-world settings. The main objective of the system is to ensure normal conditions in the plant root zone, delivering water and fertilizers at optimal doses and low flow rates. Optimal control of the hydraulic system at low pressure is proposed.

Keywords: Greenhouse, hydraulic system, drip irrigation, smart metering, adaptive control, multisensor systems.

Аннотация. В данной статье рассматриваются современные принципы работы систем капельного орошения в теплицах на основе информационных технологий и автоматизации. Анализируются общие принципы капельного орошения в теплицах, включая их управление, измерение и регулирование, а также исследуется эффективное решение проблемы регулирования микроклимата внутри помещений. Рассматривается также внедрение автоматизированных процессов мониторинга, измерения и контроля параметров окружающей среды с использованием мультисенсорной системы, её проектирование с применением инновационных методов и инструментов, а также её применение в реальных условиях. Основная цель системы – обеспечение нормальных условий в корневой зоне растений, подача воды и удобрений в

ISSN 3030-3907

оптимальных дозах и с низким расходом. Предлагается оптимальное управление гидравлической системой при низком давлении.

Ключевые слова: Теплица, гидравлическая система, капельное орошение, интеллектуальный учет, адаптивное управление, многосенсорные системы.

Annotatsiya. Ushbu maqolada axborot texnologiyalari va avtomatlashtirish asosida issiqxonalarda tomchilatib sug‘orish tizimlarining zamonaviy tamoyillari ko‘rib chiqilgan. Issiqxonalarda tomchilatib sug‘orishning umumiy tamoyillari, jumladan, ularni nazorat qilish, o‘lchash va boshqarish masalalari tahlil qilinadi hamda yopiq mikroiqlim sharoitlarini tartibga solish muammosini samarali hal etish yo‘llari o‘rganiladi. Shuningdek, u ko‘p sensorli tizim yordamida atrof-muhit parametrlarini kuzatish, o‘lchash va nazorat qilish bo‘yicha avtomatlashtirilgan jarayonlarni amalga oshirish, uni innovatsion usullar va vositalar yordamida loyihalash hamda real sharoitlarda qo‘llashni o‘rganadi. Tizimning asosiy maqsadi o‘simlikning ildiz zonasida normal sharoitlarni ta'minlash, suv va o‘g‘itlarni optimal dozalarda va past oqim tezligida etkazib berishdir. Past bosimda gidravlik tizimni optimal nazorat qilish taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: Issiqxona, gidravlik tizim, tomchilatib sug‘orish, aqlli o‘lchash, moslashuvchan boshqaruv, ko‘p sensorli tizimlar

1.INTRODUCTION.

Drip irrigation in greenhouses is considered the optimal irrigation method for growing plants in modern agriculture because it is reliable, efficient, and widely used. The technology provides controlled application of water and nutrients directly to the root zone of plants through a network of pipes, emitters, filters, and control devices. The growing global demand for sustainable agriculture to increase productivity by saving water has accelerated the development of smart drip irrigation systems for greenhouse cultivation [1], [2].

Tomatoes, cucumbers, peppers, eggplants, and other melons are considered the most economically important field in the world, and greenhouse horticulture is being developed because they are daily food products. Productivity and quality in this field depend largely on the precise regulation of the moisture content of the "soil" - the root zone of plants, nutrient concentration, air humidity, and temperature. Traditional irrigation methods often lead to excessive water consumption, uneven wetting, leaching of nutrients, and the development of diseases. Drip irrigation minimizes these deficiencies by delivering water in measured doses according to the physiological requirements of the plant [3], [4].

2.GENERAL PRINCIPLES OF DRIP IRRIGATION.

The basic principle of drip irrigation in greenhouses is to deliver a gradual and localized application of water to the root zone of plants in the form of droplets or low-velocity micro-streams of water containing optimal doses of fertilizers.

ISSN 3030-3907

The water is transported under low pressure through a hydraulic system and discharged through emitters located near the root ball of each plant [5].

A typical greenhouse drip irrigation system consists of the following components:

– Water source and pumping unit;
– Filtration system;
– Main and side pipelines;
– Drip emitters or drip tapes;
– Fertilizer unit;
– Pressure regulators;
– Sensors and controllers;
– Monitoring and automation subsystem [6].

Functional Diagram of Drip Irrigation System




Fig. 1. Functional Diagram of a Drip Irrigation System

The principle of local irrigation significantly reduces the amount of evaporation (losses), allowing to maintain moisture in the active rhizosphere of plants at the exact, required level [7].

2. Water Requirements of Greenhouse Plants

Due to the intensive transpiration of vegetables or berries grown in greenhouses and the required climatic conditions, the constant humidity of the environment, along with the irrigation zone, is regulated. Thus, the water requirement regime depends on the following parameters:

– Solar radiation;
– Air temperature;
– Relative humidity;
– Plant growth stage;
– Soil or substrate properties;
– Greenhouse ventilation conditions [8].

During vegetative development, plants require moderate watering, while the flowering and fruiting stages require a higher water supply. Excessive watering leads to root hypoxia, fungal diseases, and nutrient imbalance. Insufficient watering regime leads to small fruit size, reduced yield and quality [9].

The crop evapotranspiration approach is commonly used to determine irrigation scheduling:

ISSN 3030-3907

$$ET_c = K_c \times ET_0$$

where:

ET_c – crop evapotranspiration;

K_c - crop coefficient;

ET_0 - reference evapotranspiration.

This equation is fundamental for calculating the required irrigation water volume in greenhouse tomato cultivation [10].

3. SOIL MOISTURE CONTROL AND IRRIGATION SCHEDULING.

Efficient drip irrigation requires continuous monitoring of soil moisture. In greenhouse tomato production, irrigation scheduling is often based on:

- Soil moisture sensors;
- Tensiometers;
- Climatic data;
- Evapotranspiration models;
- Plant stress indicators [11].

Modern automated systems employ intelligent controllers capable of activating irrigation according to sensor feedback. The optimal soil moisture range for greenhouse tomatoes generally varies between 70–85% of field capacity [12].

Table 1.

Irrigation Scheduling Approaches

Method	Principle	Advantages
Time-based irrigation	Irrigation at fixed intervals	Simple implementation
Sensor-based irrigation	Real-time soil moisture monitoring	High efficiency
Climate-based irrigation	Based on evapotranspiration	Water saving
Adaptive irrigation	AI and feedback algorithms	Precision management

Adaptive irrigation systems significantly improve water use efficiency and reduce energy consumption in greenhouse operations [13].

4. FERTIGATION IN DRIP IRRIGATION SYSTEMS.

One of the most important advantages of drip irrigation is the possibility of fertigation - simultaneous application of fertilizers with irrigation water.

ISSN 3030-3907

Fertigation enables accurate nutrient dosing and uniform nutrient distribution in the root zone [14].

The following nutrients are essential for greenhouse tomato cultivation:

- Nitrogen (N);
- Phosphorus (P);
- Potassium (K);
- Calcium (Ca);
- Magnesium (Mg);
- Micronutrients [15].

Nutrient concentration is typically regulated using electrical conductivity (EC) and pH measurements. Excessive fertilizer concentration may increase soil salinity and negatively affect plant growth [16].

5. HYDRAULIC PRINCIPLES OF DRIP SYSTEMS.

The hydraulic performance of drip irrigation systems is determined by pressure distribution, emitter discharge uniformity, and pipeline characteristics. The emitter flow rate is commonly expressed as:

$$q = kH^x$$

where:

- q - emitter discharge;
- H - pressure head;
- k, x - emitter coefficients.

Pressure-compensating emitters are frequently used in greenhouse applications because they maintain stable flow rates under varying pressure conditions [17].

Uniformity of irrigation directly influences tomato growth consistency and crop yield. Therefore, hydraulic design must minimize pressure losses throughout the irrigation network [18].

6. AUTOMATION AND SMART IRRIGATION CONTROL.

Modern greenhouse automation technologies are increasingly integrating drip irrigation systems. Smart irrigation control includes:

- Wireless sensor networks;
- Internet of Things (IoT) devices;
- PLC and microcontroller systems;
- Artificial intelligence algorithms;
- Cloud-based monitoring platforms [19].

A generalized algorithm for automated irrigation is proposed as follows:

ISSN 3030-3907




Fig. 2. Automated irrigation algorithm

These technologies allow real-time optimization of irrigation according to environmental conditions and plant physiological responses [20].

Advantages of Drip Irrigation System:

• High water use efficiency;
• Reduced evaporation loss;
• Improved fertilizer utilization;
• Reduced weed growth;
• Reduced disease incidence;
• Increased yield and quality [21].

Limitations

• Emitter clogging;
• Initial installation cost;
• Need for filtration service;
• Salt accumulation near rain areas;
• Dependence on technical management [22].

Emitter clogging remains one of the main operational problems in drip systems used in greenhouses. Our research has achieved a positive solution to this problem. In this case, the direction of the liquid transfer, which is a mixture of water and fertilizer, in a closed irrigation pipe is periodically changed. That is, the liquid is injected clockwise for the first time, and counterclockwise for the second time. Thus, this process is carried out periodically, and the problem is solved at a high level. Proper filtration and periodic cleaning operations are considered necessary to maintain the reliability of the system [23].

Environmental and Economic Importance:

ISSN 3030-3907

Drip irrigation contributes significantly to sustainable greenhouse farming by conserving water resources and reducing environmental pollution caused by fertilizer leaching [24-27].

Studies have shown that drip irrigation systems can increase tomato yields by 20–50% and reduce water consumption by 30–60% compared to traditional irrigation methods [25].

The integration of renewable energy sources and intelligent control algorithms further increases the sustainability and economic efficiency of greenhouse production systems [26, 27].

CONCLUSION.

The drip irrigation method and system is a highly effective and technologically advanced method for cultivating agricultural crops in greenhouses. Its main principles are based on localized water delivery, precise moisture control, fertilization, hydraulic stability and intelligent automation. The application of multisensor technologies and adaptive control systems significantly increases water efficiency, productivity and environmental sustainability.

Future developments in the field of greenhouse drip irrigation are expected to focus on artificial intelligence, predictive irrigation algorithms, digital twins and autonomous monitoring systems for precision agriculture.

REFERENCES

1. Keller, J., & Bliesner, R.D. *Sprinkler and Trickle Irrigation*. New York: Springer, 1990, 652 p.
2. Phene, C.J., & Beale, O.W. “High-frequency irrigation for water-nutrient management in humid regions.” *Soil Science Society of America Journal*, Vol. 43, No. 2, 1979, pp. 430–436.
3. Hanson, B., Schwankl, L., & Fulton, A. *Microirrigation of Trees and Vines*. University of California Agriculture and Natural Resources, Oakland, 1997, 276 p.
4. Postel, S. *Pillar of Sand: Can the Irrigation Miracle Last?* New York: W.W. Norton & Company, 1999, 313 p.
5. Burt, C., Clemmens, A., & Strelkoff, T. “Irrigation performance measures: efficiency and uniformity.” *Journal of Irrigation and Drainage Engineering*, Vol. 123, No. 6, 1997, pp. 423–442.
6. Nakayama, F.S., & Bucks, D.A. *Trickle Irrigation for Crop Production*. Amsterdam: Elsevier, 1986, 383 p.
7. Shock, C.C., Feibert, E.B. G., & Saunders, L.D. “Water requirements and irrigation management.” *HortScience*, Vol. 33, No. 3, 1998, pp. 429–434.
8. Jones, H.G. *Plants and Microclimate*. Cambridge: Cambridge University Press, 2013, 428 p.

ISSN 3030-3907

9. Dorais, M., Papadopoulos, A.P., & Gosselin, A. “Greenhouse tomato fruit quality.” *Horticultural Reviews*, Vol. 26, 2001, pp. 239–319.
10. Allen, R.G., Pereira, L.S., Raes, D., & Smith, M. *Crop Evapotranspiration: FAO Irrigation and Drainage Paper 56*. Rome: FAO, 1998, 300 p.
11. Campbell, G.S., & Norman, J.M. *An Introduction to Environmental Biophysics*. New York: Springer, 1998, 286 p.
12. Pereira, L.S., Cordery, I., & Iacovides, I. *Improved Indicators of Water Use Performance*. Wallingford: CABI Publishing, 2012, 332 p.
13. Smith, R., Baillie, J., & McCarthy, A. “Decision support systems for irrigation scheduling.” *Agricultural Water Management*, Vol. 98, No. 4, 2011, pp. 629–635.
14. Bar-Yosef, B. “Advances in fertigation.” *Advances in Agronomy*, Vol. 65, 1999, pp. 1–77.
15. Resh, H.M. *Hydroponic Food Production*. Boca Raton:CRC Press,2012,567 p.
16. Sonneveld, C., & Voogt, W. *Plant Nutrition of Greenhouse Crops*. Dordrecht: Springer, 2009, 431 p.
17. Wu, I.P., & Gitlin, H.M. *Drip Irrigation Application Efficiency and Design*. Honolulu: University of Hawaii Press, 1975, 112 p.
18. Howell, T.A. “Enhancing water use efficiency in irrigated agriculture.” *Agronomy Journal*, Vol. 93, No. 2, 2001, pp. 281–289.
19. Kim, Y., Evans, R.G., & Iversen, W.M. “Remote sensing and control of an irrigation system.” *Computers and Electronics in Agriculture*, Vol. 57, No. 1, 2008, pp. 75–87.
20. Liakos, K.G., Busato, P., Moshou, D., Pearson, S., & Bochtis, D. “Machine learning in agriculture.” *Sensors*, Vol. 18, No. 8, 2018, pp. 2674–2695.
21. Ayars, J.E., Phene, C.J., Hutmacher, R.B., et al. “Subsurface drip irrigation of row crops.” *Agricultural Water Management*, Vol. 42, No. 1, 1999, pp. 1–27.
22. Ravina, I., Paz, E., Sofer, Z., et al. “Control of emitter clogging in drip irrigation.” *Irrigation Science*, Vol. 13, No. 3, 1992, pp. 129–139.
23. Bucks, D.A., Nakayama, F S., & Gilbert, R.G. “Trickle irrigation water quality and preventive maintenance.” *Agricultural Water Management*, Vol. 2, No. 2, 1979, pp. 149–162.
24. Pereira, L.S. “Water, agriculture and food security.” *Agricultural Water Management*, Vol. 97, No. 11, 2010, pp. 1925–1932.
25. Fereres, E., & Soriano, M.A. “Deficit irrigation for reducing agricultural water use.” *Journal of Experimental Botany*, Vol. 58, No. 2, 2007, pp. 147–159.
26. Shamshiri, R.R., Jones, J.W., Thorp, K.R., et al. “Review of optimal temperature, humidity, and vapor pressure deficit for microclimate evaluation.” *International Agrophysics*, Vol. 32, No. 2, 2018, pp. 287–302.

ISSN 3030-3907

27. Норматов И.Х., Джумагулов Н.С., Жолбарыс Е.Н. Методы разработки, хранения и обучения моделей на основе текстовой информации в образовании Internet tarmogida videotasvirlarni himoya qilish model va usullari// Development of science Volume 3 Iyun 2025/9, С. 85-95, ISSN 3030-3907.

QALMOQQIR KONI RUDALARIDA FOYDALI KOMPONENTLARNING JOYLASHISH SHAKLLARI VA BOYITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH USULLARI

Boymurodov Najmiddin Abduqodirovich
Qarshi davlat texnika universiteti. Dotsent
Email: najmiddinboy-94@mail.ru
Islomov Erkinjon Odiljon o‘g‘li
Qarshi davlat texnika universiteti magistranti
Email: eislomov117@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qalmoqqir koni rudalarida metallarning joylashish shakllari hamda ularni qayta ishlashning ilmiy asoslari tadqiq etildi. Tadqiqot davomida rudalarning mineralogik, kimyoviy va fizik-kimyoviy xususiyatlari kompleks ravishda o‘rganildi. Rentgenfazaviy tahlil, rentgen-fluorestsent tahlil, SEM–EDS va flotatsion tajribalar asosida rudalarning tarkibi, foydali komponentlarning fazaviy bog‘lanishi va texnologik faolligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari rudalarda xalkopirit, molibdenit va pirit minerallari ustunlik qilishini, foydali komponentlarning mayda dispers holatda tarqalganligini hamda ularning kvarts va sulfid minerallari bilan murakkab assotsiatsiyalarda joylashganligini ko‘rsatdi. Flotatsion boyitish jarayonida maydalash yirikligi, pH muhiti va reagent sarfining metallarning ajralib chiqish ko‘rsatkichlariga ta’siri baholandi. Tajribalar maydalash mahsulotining 74 mkm gacha yanchilishi hamda pH muhitining 9–11 oralig‘ida bo‘lishi mis va molibden minerallarining flotatsion faolligini oshirishini ko‘rsatdi. Rougher, scavenger va cleaner bosqichlarini kompleks qo‘llash konsentrat sifatini yaxshilashi va metall yo‘qotilishlarini kamaytirishi aniqlandi. Olingan natijalar Qalmoqqir rudalarini kompleks qayta ishlashning samarali texnologik parametrlarini ishlab chiqishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: Qalmoqqir koni, mis-molibden rudalari, flotatsion boyitish, mineralogik tahlil, SEM–EDS, metallarning joylashishi, texnologik parametrlar.

Аннотация. В данной статье исследованы формы нахождения металлов в рудах месторождения Калмакыр и научные основы их переработки. В ходе исследования комплексно изучены минералогические, химические и физико-химические свойства руд. На основе рентгенофазового анализа, рентгенофлуоресцентного анализа, SEM–EDS и флотационных экспериментов определены состав руд, фазовые связи полезных компонентов и их технологическая активность. Результаты исследования показали, что в рудах преобладают минералы халькопирита, молибденита и пирита, а полезные компоненты находятся в тонкодисперсном состоянии и связаны со сложными ассоциациями кварцевых и сульфидных минералов.

ISSN 3030-3907

A critical determinant of digital economy success is the level of ICT literacy and education. Uzbekistan has made strides in integrating computer science into school curricula and has opened specialized institutions like the Inha University in Tashkent and the IT Park Uzbekistan. By 2024, over 50,000 youth have completed state-supported digital skills training programs [1].

Despite this progress, challenges remain. A gap persists between theoretical knowledge and industry practice, particularly in areas such as artificial intelligence, cybersecurity, and blockchain technologies. English language proficiency, a prerequisite for global ICT engagement, remains limited outside major cities.

The ICT sector contributes around 2.2% to Uzbekistan's GDP as of 2023. IT Park Uzbekistan, with over 1,200 resident companies and multiple regional

ISSN 3030-3907

branches, has become the core hub for tech startups and foreign IT outsourcing. Tax incentives, venture capital development, and international partnerships (e.g., with Japan, South Korea, and India) are promoting innovation [3].

However, Uzbekistan faces stiff regional competition from Kazakhstan, Georgia, and Azerbaijan in attracting global tech firms. A key bottleneck is limited integration with global digital platforms, partly due to infrastructural constraints and regulatory ambiguity.

Global digital trends—such as the rise of the gig economy, AI automation, and cross-border data flows—have reshaped expectations for digital infrastructure. Uzbekistan's engagement with international organizations like the ITU, the World Bank, and UNDP has helped secure technical expertise and funding for large-scale digitalization.

Still, geopolitical tensions (e.g., internet sovereignty vs. open web access) and foreign tech dependencies (e.g., reliance on imported software/hardware) expose structural vulnerabilities. These factors highlight the importance of developing digital sovereignty through local innovation, open-source adaptation, and cloud infrastructure resilience.

In assessing Uzbekistan's digital economy infrastructure, one cannot overlook its environmental impact—a concern that is increasingly relevant in global digital governance discussions. The proliferation of data centers, fiber-optic networks, and ICT hardware inevitably raises questions about energy consumption, e-waste management, and the carbon footprint of digital expansion [4].

Currently, Uzbekistan is taking steps toward greening its ICT sector. The Ministry of Ecology, Environmental Protection, and Climate Change has collaborated with digital stakeholders to promote energy-efficient hardware and environmentally friendly disposal protocols. Nevertheless, data centers in the country often rely on conventional energy sources, and there is limited integration of renewable energy into the digital infrastructure.

To align with global standards such as the UN Sustainable Development Goals (SDG 9 and SDG 13), Uzbekistan must invest in green ICT infrastructure, such as solar-powered data farms, low-energy server systems, and e-waste recycling programs. Partnerships with countries experienced in green digitalization (e.g., Germany, Finland) could accelerate these transitions.

While digital transformation brings immense economic opportunity, it also risks deepening social inequality if access to infrastructure and training is not equitably distributed. In Uzbekistan, gender disparity in the ICT workforce remains a concern. Although women constitute over 48% of the total university

ISSN 3030-3907

population, their representation in tech-related programs and startups is significantly lower [5].

Government programs such as “Girls in ICT” and vocational training scholarships for rural girls have begun to address this gap, but long-term change requires more systemic efforts [7]:

- Inclusion of female tech mentors in education
- Flexible work policies for women in tech
- Gender-sensitive design of e-services and platforms

Moreover, digital inclusivity must account for persons with disabilities, ethnic minorities, and older populations, who often face structural barriers in accessing digital tools and platforms. Creating accessible e-government services, promoting content in multiple languages, and integrating assistive technologies are critical for ensuring that digital development is not only expansive, but also inclusive.

Uzbekistan’s digital infrastructure shows strong growth in urban centers, yet rural and remote areas still lag behind. According to 2023 estimates, approximately 28% of rural households lack stable broadband access. This creates a dual-speed economy, where urban populations benefit from digital services (e-commerce, telemedicine, digital banking), while rural communities remain largely disconnected.

Bridging this gap is essential not only for national economic integration but also for social cohesion. The government has begun deploying Universal Service Funds (USF) to finance rural broadband projects, and low-orbit satellite solutions (e.g., Starlink trials) are being considered to enhance connectivity in mountainous and desert regions [8].

CONCLUSION.

Uzbekistan stands at a pivotal point in its digital evolution. Considerable achievements have been made in expanding internet access, building human capital, and launching digital public services. However, a full transition to a modern digital economy necessitates sustained investment in rural connectivity, digital governance, cybersecurity readiness, and ICT talent pipelines.

In the context of global processes—such as data globalization, artificial intelligence, and cross-border e-commerce—Uzbekistan must accelerate its policy reforms, nurture local tech ecosystems, and forge deeper digital trade alliances. A forward-looking, inclusive, and resilient digital infrastructure will ensure that Uzbekistan is not merely a passive participant but an active contributor in the global digital future.

ISSN 3030-3907

REFERENCES

1. Ministry for Development of Information Technologies and Communications of the Republic of Uzbekistan. (2020). Digital Uzbekistan 2030 Strategy. Tashkent.
2. Presidential Decree of the Republic of Uzbekistan No. PQ-412 (2023, July 17). On the approval of the Strategy for the Development of the Digital Economy for 2023–2025.
3. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2023). Digital Economy Report 2023: Cross-border Data Flows and Development. Geneva: United Nations.
4. World Bank. (2021). Uzbekistan Digital Economy Country Assessment. Washington, D.C.: World Bank Group. Retrieved from: https://www.worldbank.org
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD). (2020). Measuring the Digital Transformation: A Roadmap for the Future. Paris: OECD Publishing.
6. International Telecommunication Union (ITU). (2023). Measuring Digital Development: Facts and Figures 2023. Geneva: ITU. Retrieved from: https://www.itu.int
7. Asian Development Bank (ADB). (2022). Digital Uzbekistan: Accelerating Digital Government and Economy. Report No. 54219-001. Manila: ADB.
8. European Commission. (2023). Digital Economy and Society Index (DESI) 2023. Brussels. Retrieved from: https://digital-strategy.ec.europa.eu

ISSN 3030-3907

GIDROFOB BETON MATERIALLARINING OLINISH TEXNOLOGIYASI

Imamov Suxrob Solexovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
Ilhomov Javohir In'omjonovich
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada gidrofob beton materiallarining olinishi, ularning tarkibi, sement gidratatsiyasi jarayonlari hamda gidrofob qo'shimchalarning betonning fizik-mexanik xossalariga ta'siri tahlil qilingan. Beton tarkibiga kremniyorganik moddalar, gidrofobizatorlar va mineral qo'shimchalar kiritish orqali suv shimuvchanlikni kamaytirish, sovuqqa chidamlilikni oshirish hamda uzoq muddatli mustahkamlikni yaxshilash imkoniyatlari o'rganildi. Shuningdek, sement klinkerining mineral tarkibi va gidratatsiya jarayonining beton qotishiga ta'siri yoritilgan. Tadqiqot natijalari gidrofob betonlarning gidrotexnika inshootlari, transport qurilishi va nam muhitda ishlatiladigan konstruksiyalar uchun samarali material ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: gidrofob beton, sement gidratatsiyasi, suv shimuvchanlik, gidrofobizator, beton mustahkamligi, klinker, mineral qo'shimcha.

Аннотация. В статье рассмотрены технологии получения гидрофобных бетонных материалов, процессы гидратации цемента и влияние гидрофобных добавок на физико-механические свойства бетона. Исследованы возможности снижения водопоглощения, повышения морозостойкости и долговечности бетона за счёт введения кремнийорганических соединений и минеральных добавок. Освещены процессы формирования структуры цементного камня и роль минералогического состава клинкера. Показано, что гидрофобные бетоны являются эффективными материалами для гидротехнических сооружений и конструкций, эксплуатируемых во влажной среде.

Ключевые слова: гидрофобный бетон, гидратация цемента, водопоглощение, гидрофобизатор, прочность бетона, клинкер, минеральные добавки.

Abstract. This article discusses the technology of producing hydrophobic concrete materials, cement hydration processes, and the influence of hydrophobic additives on the physical and mechanical properties of concrete. The possibilities of reducing water absorption, increasing frost resistance, and improving durability through the use of organosilicon compounds and mineral additives were investigated. The role of clinker mineral composition and hydration mechanisms in concrete hardening is also described. The obtained results show that

hydrophobic concrete materials are highly effective for hydraulic structures and constructions operating in humid environments.

Keywords: hydrophobic concrete, cement hydration, water absorption, hydrophobic additive, concrete strength, clinker, mineral additive.

KIRISH.

Qurilish sanoati rivojlanib borayotgan hozirgi davrda bino va inshootlarning mustahkamligi hamda uzoq muddat xizmat qilishi asosiy talablardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, namlik yuqori bo‘lgan hududlarda qurilgan konstruksiyalarda suv ta’sirida emirilish, armaturalarning zanglashi va betonning ichki tuzilishida yoriqlar hosil bo‘lishi kabi muammolar tez-tez uchraydi. Shu sababli suv ta’siriga chidamli qurilish materiallarini yaratish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bunday materiallar ichida gidrofob beton alohida o‘rin egallaydi.

Gidrofob beton oddiy betonga nisbatan suvni kam singdirishi bilan ajralib turadi. Uning tarkibiga maxsus gidrofob qo‘shimchalar kiritilishi natijasida betonning kapillyar g‘ovaklari kamayadi va suvning ichki qatlamlarga kirib borishi cheklanadi. Natijada betonning xizmat muddati uzayadi, sovuqqa chidamliligi ortadi hamda agressiv muhitlarga bardoshliligi yaxshilanadi. So‘nggi yillarda gidrofob betonlardan gidrotexnika inshootlari, ko‘priklar, yo‘l qoplamalari, er osti qurilmalari va sanoat obyektlari qurilishida keng foydalanilmoqda.

Betonning gidrofob xususiyatlarini oshirish uchun turli kimyoviy modifikatorlar va polimer qo‘shimchalardan foydalaniladi. Ular sement zarralari bilan o‘zaro ta’sirlashib, beton tarkibida suvni qaytaruvchi himoya qatlam hosil qiladi. Shu orqali betonning suv shimuvchanligi keskin kamayadi va mexanik xossalari yaxshilanadi. Zamonaviy qurilish texnologiyalarida bunday betonlarning qo‘llanilishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, inshootlarning ishonchliligini ham ta’minlaydi.

Quyidagi rasmda suv ta’siriga uchragan oddiy beton va gidrofob betonning tuzilishidagi farqlar ko‘rsatilgan.

ASOSIY QISM. Beton qurilishda eng ko‘p ishlatiladigan sun’iy tosh material hisoblanadi. U sement, suv, qum va shag‘alning ma’lum nisbatda aralashtirilishi natijasida hosil qilinadi. Oddiy betonning asosiy kamchiligi uning kapillyar-g‘ovak tuzilishga ega ekanligidir. Aynan shu g‘ovaklar orqali suv beton ichiga kiradi va vaqt o‘tishi bilan konstruksiyaning emirilishiga olib keladi. Namlikning beton ichiga kirishi qishda muzlash-erish jarayonlarini kuchaytiradi, natijada ichki bosim ortib, mikro yoriqlar paydo bo‘ladi. Bu holat betonning mustahkamligini pasaytiradi.

ISSN 3030-3907

Gidrofob beton olish texnologiyasida asosiy e’tibor betonning suv o‘tkazuvchanligini kamaytirishga qaratiladi. Buning uchun beton tarkibiga maxsus gidrofoblashtiruvchi moddalar qo‘shiladi. Ushbu moddalar sement zarralari atrofida yupqa himoya qatlam hosil qilib, kapillyar kanallarni yopadi. Natijada suv beton ichiga chuqur kirib bora olmaydi. Gidrofobizator sifatida ko‘pincha suyuq shisha, kremniyorganik birikmalar, stearatlar, siloksan emulsiyalari va turli polimer qo‘shimchalardan foydalaniladi.

Gidrofob beton ishlab chiqarish jarayoni xomashyolarni tayyorlashdan boshlanadi. Dastlab sementning faolligi, qumning tarkibi va shag‘alning mustahkamligi laboratoriya sharoitida tekshiriladi. Beton tarkibida ishlatiladigan suv tarkibida zararli tuzlar va organik aralashmalar bo‘lmasligi kerak. Chunki bunday moddalar sementning normal qotishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Gidrofob qo‘shimchalar esa ma’lum konsentratsiyada eritma holatiga keltirilib, beton qorishmasiga qo‘shiladi.

Beton qorishmasini tayyorlash jarayonida avvalo quruq komponentlar aralashtiriladi. Shundan keyin suv va gidrofob qo‘shimcha qo‘shiladi. Aralashtirish davomida barcha komponentlarning bir tekis taqsimlanishi muhim hisoblanadi. Agar qo‘shimcha beton tarkibida bir xil taqsimlanmasa, tayyor mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari pasayadi. Tayyorlangan qorishma maxsus qoliplarga joylashtirilib, vibratsion usulda zichlanadi. Vibratsiya natijasida beton tarkibidagi ortiqcha havo chiqarib yuboriladi va materialning zichligi oshadi.

Quyidagi rasmda gidrofob beton tayyorlash jarayonidagi texnologik uskunalar tasvirlangan.




1-rasm. Gidrofob betonning mikrostrukturasi va suvni qaytarish mexanizmi

Gidrofob betonning fizik-mexanik xususiyatlari oddiy betonga nisbatan ancha yuqori bo‘ladi. Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, gidrofob qo‘shimchalar qo‘shilgan betonning suv shimuvchanligi bir necha barobar kamayadi. Oddiy

ISSN 3030-3907

betonlarda suv shimuvchanligi o‘rtacha 4–8 foizni tashkil etsa, gidrofob betonlarda bu ko‘rsatkich 1–2 foiz atrofida bo‘ladi. Suvning kam singishi betonning sovuqqa chidamliligini oshiradi va uning xizmat muddatini uzaytiradi.

Bundan tashqari, gidrofob qo‘shimchalar betonning siqilishdagi mustahkamligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Beton tarkibidagi g‘ovaklarning kamayishi natijasida material zichlashadi va tashqi yuklamalarga bardosh berish qobiliyati ortadi. Ayniqsa, gidrotexnika inshootlari va ko‘priklarda ishlatiladigan betonlarda bunday xususiyatlar juda muhim hisoblanadi.



2-rasm. Betonning 28 kunlik siqilishda mustahkamligi suv-sement nisbati bilan bog‘liqligi

1-jadval

Quyidagi jadvalda oddiy beton va gidrofob betonning ayrim xossalari taqqoslangan.

Ko‘rsatkich	Oddiy beton	Gidrofob beton
Suv shimuvchanligi	4–8 %	0.5–2 %
Siqilish mustahkamligi	25–30 MPa	35–45 MPa
Sovuqqa chidamliligi	O‘rtacha	Yuqori
Xizmat muddati	30–40 yil	50 yildan ortiq

Gidrofob betonlar amaliyotda juda keng qo‘llaniladi. Suv omborlari, kanallar, tunnel va metro qurilishida betonning namlikka chidamliligi asosiy talab hisoblanadi. Bundan tashqari, avtomobil yo‘llari va aerodrom qoplamalarida ham gidrofob betonlardan foydalanish samarali natija beradi. Chunki bunday qoplamalar atmosfera yog‘inlari ta’sirida kam emiriladi va uzoq muddat xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

2-jadval

Material	Miqdori (kg)	Izoh
Sement	350-400	Portlend CEM I
Qum	650-750	Fraktsiya 0-5 mm
Shag‘al	1100-1200	Fraktsiya 5-20 mm
Suv	140-180	W/C = 0,45
Gidrofob qo‘shimcha	3,0	Suyuq shisha, Pva, Akril emulsiyasi (sementga nisbatan %)

Bir kubometr gidrofob beton tayyorlash uchun asosiy materiallarning miqdori va tavsiflari quyidagilardan iborat. Sementning miqdori odatda 350–400 kg oralig‘ida olinadi. Portlend tsementining CEM I turi ishlatiladi, chunki u yuqori mustahkamlik va yaxshi gidrofob qo‘shimchalar bilan moslikni ta’minlaydi.

To‘ldirgichlar sifatida qum (fraktsiyasi 0–5 mm) 650–750 kg miqdorda va shag‘al (fraktsiyasi 5–20 mm) 1100–1200 kg miqdorda qo‘shiladi. Ushbu agregatlarning toza va sifatli bo‘lishi betonning mustahkamligi va chidamliligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Suv miqdori 140–180 kg oralig‘ida tanlanadi. Suv-sement nisbati (W/C) 0,45 darajasida saqlanishi tavsiya etiladi. Bu nisbat betonning ishchanligini saqlab, bir vaqtning o‘zida yuqori mustahkamlikka erishish imkonini beradi.

Gidrofob qo‘shimcha sement massasiga nisbatan 3,0 % miqdorda qo‘shiladi. Eng samarali variantlardan biri — Suyuq shisha, Pva va akril emulsiyasi hisoblanadi. Ushbu qo‘shimcha beton massasining ichki kapillyar tuzilishida gidrofob plyonka hosil qilib, suvning kirib kelishini sezilarli darajada kamaytiradi.

Ushbu tarkib M400 markali gidrofob beton olish uchun optimal hisoblanadi. Amalda materiallarning aniq miqdori laboratoriya sinovlari asosida aniqlashtirilishi va loyihaning talablariga mos ravishda tuzatilishi mumkin.

Bugungi kunda ekologik xavfsiz va iqtisodiy jihatdan samarali gidrofobizatorlarni yaratish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ayniqsa, mahalliy xomashyolar asosida ishlab chiqarilgan modifikatorlardan foydalanish beton tannarxini kamaytirishga imkon beradi. Shu bilan birga, zamonaviy nanotexnologiyalar asosida ishlab chiqarilayotgan gidrofob qo‘shimchalar betonning mikrostrukturasi va chidamliligini yanada yaxshilamoqda.

Quyidagi rasmda gidrofob beton qo‘llanilgan zamonaviy inshootlar ko‘rsatilgan.

ISSN 3030-3907

XULOSA. Gidrofob beton materiallari zamonaviy qurilish sanoatida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan istiqbolli materiallardan biri hisoblanadi. Ularning asosiy afzalligi suvni kam singdirishi va tashqi muhit ta’siriga yuqori darajada chidamliligidadir. Maxsus gidrofob qo‘shimchalardan foydalanish betonning zichligini oshiradi, kapillyar g‘ovaklarini kamaytiradi va natijada materialning mexanik hamda ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilaydi.

O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gidrofob betonlardan foydalanish qurilish konstruksiyalarining xizmat muddatini sezilarli darajada uzaytiradi. Ayniqsa, namlik yuqori bo‘lgan hududlarda, gidrotexnika inshootlarida va er osti qurilmalarida bunday betonlarning qo‘llanilishi katta iqtisodiy samaradorlik beradi. Shu sababli kelgusida yangi avlod gidrofobizatorlarini yaratish va mahalliy xomashyolar asosida samarali texnologiyalarni ishlab chiqish qurilish materiallari sanoatining dolzarb yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Axmedov K.S. Qurilish materiallari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019.
2. Mirzayev Sh.R. Beton va temirbeton texnologiyasi. – Toshkent, 2021.
3. Neville A.M. Properties of Concrete. – London: Pearson Education, 2018.
4. Mehta P.K., Monteiro P.J.M. Concrete: Microstructure, Properties and Materials. – McGraw-Hill, 2017.
5. Taylor H.F.W. Cement Chemistry. – Thomas Telford Publishing, 1997.
6. Kosmatka S.H. Design and Control of Concrete Mixtures. – Portland Cement Association, 2016.
7. Кудратов Т.А. Цемент технологияси асослари. – Тошкент, 2020.
8. Ramachandran V.S. Concrete Admixtures Handbook. – Noyes Publications, 2015.
9. Siddique R. Special Structural Concretes. – Woodhead Publishing, 2017.
10. Gorchakov G.I. Строительные материалы. – Москва: Стройиздат, 2012.
11. Zhao Y., et al. Study of superhydrophobic concrete with integral hydrophobic modification // Construction and Building Materials. – 2023. – № 378. – P. 131–142.
12. Al-Kheetan M.J., Rahman M.M., Chamberlain D.A. Development of hydrophobic concrete by adding dual-crystalline admixture // Structural Concrete. – 2018. – Vol. 19. – № 5. – P. 1504–1511.
13. Макридин Н.И., Калашников В.И. Технология бетона, строительных изделий и конструкций. – Пенза: ПГУАС, 2014.
14. Гидрофобный цемент и бетон: свойства и технология применения. – СПб.: Ударник, 2021.
15. GOST 12730.5-84. Betonlar. Suv o‘tkazmasligini aniqlash usullari.

ISSN 3030-3907

16. F.F.Raximov.; V.N.Axmedov -Gidrofob qurilish materiallarining olinish texnologiyasi//O‘zbekiston kompozitsion materiallar ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali №3 2020 82-88 b

ISSN 3030-3907

TA’LIM JARAYONIDA DATA ANALYTICS VA MACHINE LEARNING TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QUVCHILAR AKADEMIK NATIJALARINI PROGNOZLASH MODELI

Gulmuradova Lolaxon Shavkatovna
Osiyo Xalqaro Universiteti magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta’lim jarayonida Data Analytics va Machine Learning texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning akademik natijalarini prognozlash modeli ishlab chiqish masalalari yoritilgan. Zamonaviy raqamli ta’lim muhiti katta hajmdagi ma’lumotlarni shakllantirayotgani sababli, ushbu ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish pedagogik faoliyatning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Tadqiqotda o‘quvchilarning davomati, fanlarni o‘zlashtirish darajasi, test natijalari, topshiriqlarni bajarish faolligi, elektron platformalardagi ishtiroki hamda ijtimoiy-psixologik omillari asosida akademik muvaffaqiyatni oldindan aniqlash imkoniyatlari ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, regression, decision tree, random forest, support vector machine va neural network kabi Machine Learning algoritmlarining ta’lim sohasidagi amaliy ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqot davomida ma’lumotlarni yig‘ish, tozalash, klassifikatsiya qilish, modelni o‘qitish va natijalarni baholash bosqichlari ilmiy-uslubiy jihatdan asoslab berilgan. Akademik natijalarni prognozlash modeli o‘quvchilarning bilim darajasidagi pasayish xavfini erta aniqlash, individual yondashuvni shakllantirish hamda ta’lim sifatini oshirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilishi ta’kidlangan. Shu bilan birga, sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimiga integratsiyasi adaptiv ta’lim muhitini yaratish, o‘quv jarayonini avtomatlashtirish va pedagogik qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirishga yordam berishi ilmiy jihatdan asoslangan. Tadqiqot natijalari kelajakda raqamli pedagogika, aqlli ta’lim tizimlari va predictive analytics texnologiyalarini rivojlantirish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: Data Analytics, Machine Learning, sun’iy intellekt, akademik natijalar, prognozlash modeli, raqamli ta’lim, predictive analytics, ta’lim texnologiyalari, neyron tarmoqlar, o‘quvchilar faoliyati.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы разработки модели прогнозирования академических результатов обучающихся на основе технологий Data Analytics и Machine Learning в образовательном процессе. В условиях цифровизации образования формируется большой объём данных, анализ которых становится важным направлением современной педагогики и образовательного менеджмента. В исследовании изучаются возможности прогнозирования успеваемости учащихся на основе показателей посещаемости, уровня освоения учебных дисциплин,

ISSN 3030-3907

результатов тестирования, активности выполнения заданий, участия в электронных образовательных платформах, а также социально-психологических факторов. Особое внимание уделяется применению алгоритмов Machine Learning, включая regression, decision tree, random forest, support vector machine и neural network, которые позволяют повысить точность прогнозирования академических результатов. В работе научно обоснованы этапы сбора, очистки, обработки и классификации данных, а также процессы обучения и оценки эффективности моделей. Отмечается, что использование predictive analytics в образовательной среде способствует раннему выявлению риска снижения успеваемости, формированию индивидуальных образовательных траекторий и повышению качества обучения. Кроме того, интеграция технологий искусственного интеллекта в систему образования позволяет создавать адаптивные образовательные среды, автоматизировать учебный процесс и повышать эффективность принятия педагогических решений. Результаты исследования могут служить научно-методологической основой для дальнейшего развития цифровой педагогики, интеллектуальных образовательных систем и технологий анализа больших данных в сфере образования.

Ключевые слова: Data Analytics, Machine Learning, искусственный интеллект, академические результаты, модель прогнозирования, цифровое образование, predictive analytics, образовательные технологии, нейронные сети, анализ данных.

Annotation. This article discusses the development of a predictive model for students' academic performance based on Data Analytics and Machine Learning technologies in the educational process. The rapid digitalization of education generates large volumes of data, making data analysis an essential component of modern pedagogy and educational management. The study examines the possibility of predicting academic achievement using indicators such as attendance, subject mastery, examination scores, assignment completion activity, participation in digital learning platforms, and socio-psychological factors. Particular attention is paid to the application of Machine Learning algorithms including regression, decision tree, random forest, support vector machine, and neural network models, which significantly improve the accuracy of educational predictions. The research scientifically substantiates the stages of data collection, preprocessing, classification, model training, and evaluation of predictive efficiency. The proposed academic forecasting model enables early identification of students at risk of low performance, supports individualized learning strategies, and contributes to improving the quality of education. Furthermore, the integration of artificial intelligence technologies into educational systems

facilitates the creation of adaptive learning environments, automation of educational processes, and enhancement of pedagogical decision-making efficiency. The findings of the study provide a methodological foundation for the further development of digital pedagogy, intelligent educational systems, and predictive analytics technologies in modern education. The research also highlights the strategic importance of big data analysis and intelligent algorithms in increasing educational effectiveness and ensuring sustainable development of digital learning ecosystems.

Keywords: Data Analytics, Machine Learning, artificial intelligence, academic performance, predictive model, digital education, predictive analytics, educational technologies, neural networks, student analytics.

KIRISH.

Jahon miqyosida ta’lim tizimini raqamlashtirish jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchilar bilimini samarali baholash hamda individual ta’lim trajektoriyalarini shakllantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi natijasida ta’lim muassasalarida katta hajmdagi ma’lumotlar bazasi shakllanmoqda. Ushbu ma’lumotlar tarkibiga o‘quvchilarning davomat ko‘rsatkichlari, fanlarni o‘zlashtirish darajasi, test natijalari, mustaqil topshiriqlarni bajarish faolligi, elektron platformalardagi ishtiroki, onlayn ta’lim jarayonidagi faoliyati hamda psixologik va ijtimoiy omillar kiradi. Mazkur ma’lumotlarni an’anaviy usullar orqali tahlil qilish murakkab va ko‘p vaqt talab etadigan jarayon bo‘lib, zamonaviy Data Analytics hamda Machine Learning texnologiyalaridan foydalanishni taqozo etadi.So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi turli sohalar qatorida ta’lim tizimida ham yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirdi. Xususan, Data Analytics texnologiyalari yordamida katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini qayta ishlash, ulardagi yashirin qonuniyatlarni aniqlash hamda o‘quvchilarning akademik faoliyatini chuqur tahlil qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Machine Learning algoritmlari esa mavjud ma’lumotlar asosida kelajakdagi natijalarni prognoz qilish, o‘quvchilarning muvaffaqiyat darajasini oldindan baholash va ehtimoliy xavf omillarini aniqlashda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bunday texnologiyalar ta’lim jarayonining samaradorligini oshirish, pedagogik qarorlar qabul qilishni optimallashtirish hamda adaptiv o‘qitish tizimlarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.Ilmiy tadqiqotlarda akademik natijalarni prognozlash masalasi pedagogika, informatika, statistik tahlil va sun’iy intellekt yo‘nalishlarining kesishgan nuqtasida o‘rganilmoqda. Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, predictive analytics texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning o‘zlashtirish darajasi pasayishi xavfini erta aniqlash, individual

ISSN 3030-3907

yondashuv asosida ta’lim strategiyalarini ishlab chiqish hamda ta’lim sifatini monitoring qilish imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, AQSH, Janubiy Koreya, Singapur, Xitoy va Yevropa davlatlari ta’lim tizimlarida sun’iy intellektga asoslangan tahliliy platformalardan foydalanish amaliyoti sezilarli natijalarni bermoqda. Ushbu tajribalar ta’limda ma’lumotlar tahlili va intellektual tizimlarning ahamiyati tobora ortib borayotganini ko‘rsatadi.Machine Learning texnologiyalarining ta’lim tizimiga tatbiq etilishi nafaqat akademik natijalarni prognozlash, balki o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi xatti-harakatlarini o‘rganish, motivatsiya darajasini aniqlash, o‘qitish metodlarini moslashtirish va ta’lim resurslarini samarali boshqarish imkonini beradi. Ayniqsa, regression, decision tree, random forest, support vector machine hamda neural network algoritmlarining qo‘llanilishi prognozlash aniqligini oshirish bilan bir qatorda katta hajmdagi ma’lumotlar bilan ishlash samaradorligini ham ta’minlaydi. Shu sababli zamonaviy ta’lim tizimida intellektual tahliliy platformalarni yaratish va ularni amaliyotga joriy etish strategik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.Raqamli transformatsiya jarayonida ta’lim muassasalarida Learning Management System (LMS), elektron jurnal, masofaviy ta’lim platformalari va onlayn test tizimlari orqali uzluksiz ravishda ma’lumotlar yig‘ilib bormoqda. Ushbu ma’lumotlardan samarali foydalanish esa faqatgina statistik hisob-kitoblar bilan cheklanib qolmasdan, chuqur analitik yondashuvni talab etadi. Data Analytics texnologiyalari o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga oid ma’lumotlarni tizimlashtirish, segmentatsiya qilish va tahliliy vizualizatsiya yaratishga xizmat qilsa, Machine Learning algoritmlari mazkur ma’lumotlar asosida prognozlash modellarini shakllantirish imkonini beradi. Bu esa ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan qarorlarni ishlab chiqishda muhim omil hisoblanadi.Bugungi kunda O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish, elektron ta’lim muhitini rivojlantirish va sun’iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanishga katta e’tibor qaratilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida ta’lim tizimining raqamli transformatsiyasi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan. Shu nuqtai nazardan, o‘quvchilarning akademik natijalarini prognozlashga oid intellektual modellarni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish zamonaviy pedagogik tadqiqotlarning dolzarb yo‘nalishiga aylanmoqda. Mazkur mavzu nafaqat ta’lim sifatini oshirish, balki kelajakdagi aqlli ta’lim tizimlarini shakllantirish, individual ta’limni rivojlantirish hamda pedagogik boshqaruv samaradorligini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Zamonaviy ta’lim tizimida raqamli texnologiyalarni keng joriy etilishi natijasida ta’lim muassasalarida katta hajmdagi ma’lumotlar oqimi shakllanmoqda. Ushbu ma’lumotlar o‘quvchilarning akademik faoliyati,

ISSN 3030-3907

davomati, baholash natijalari, elektron platformalardagi ishtiroki, topshiriqlarni bajarish darajasi, fanlarga qiziqishi hamda o‘quv jarayonidagi xatti-harakatlarini o‘z ichiga oladi. Mazkur ma’lumotlarni an’anaviy statistik usullar yordamida tahlil qilish ko‘plab holatlarda yetarli samaradorlik bermaydi. Shu sababli Data Analytics va Machine Learning texnologiyalaridan foydalanish ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ushbu texnologiyalar orqali katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash, yashirin bog‘liqliklarni aniqlash hamda akademik natijalarni prognozlash imkoniyati yuzaga keladi.Data Analytics — bu katta hajmdagi ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydali xulosalar chiqarishga xizmat qiluvchi texnologiyalar hamda metodlar majmuasidir. Ta’lim tizimida Data Analytics texnologiyalarining qo‘llanilishi o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlarini monitoring qilish, individual ta’lim yo‘nalishlarini shakllantirish, ta’lim sifatini baholash va boshqaruv qarorlarini optimallashtirishga yordam beradi. Ayniqsa, Learning Management System (LMS), elektron jurnal tizimlari, Moodle, Google Classroom, Canvas, Blackboard kabi platformalar orqali yig‘ilayotgan ma’lumotlar tahlil uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu tizimlarda o‘quvchilarning darsga kirish chastotasi, topshiriqlarni bajarish vaqti, test natijalari, video darslarni ko‘rish davomiyligi hamda platformadagi umumiy faolligi qayd etiladi. Bunday ma’lumotlar o‘quvchilarning o‘quv jarayonidagi xulq-atvorini chuqur tahlil qilish va akademik natijalarni oldindan prognozlash imkonini beradi.Machine Learning esa sun’iy intellektning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, kompyuter tizimlariga ma’lumotlar asosida mustaqil o‘rganish va qaror qabul qilish imkonini beradi. Ta’lim jarayonida Machine Learning algoritmlaridan foydalanish o‘quvchilarning muvaffaqiyat darajasini prognozlash, bilimdagi bo‘shliqlarni aniqlash va individual yondashuv asosida tavsiyalar ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Akademik natijalarni prognozlashda supervised learning algoritmlaridan keng foydalaniladi. Ushbu algoritmlar tarixiy ma’lumotlar asosida modelni o‘qitish va kelajakdagi natijalarni bashorat qilish imkonini beradi. Regression algoritmlari o‘quvchilarning yakuniy baholarini aniqlashda, decision tree algoritmlari esa muvaffaqiyatga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashda samarali hisoblanadi. Random forest algoritmi bir nechta qaror daraxtlari asosida ishlashi sababli prognozlash aniqligini oshiradi hamda ortiqcha moslashish xavfini kamaytiradi. Support Vector Machine (SVM) algoritmi esa ma’lumotlarni klassifikatsiya qilishda yuqori aniqlikni ta’minlaydi. Neural network texnologiyalari murakkab va ko‘p qatlamli ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatiga ega bo‘lib, katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini tahlil qilishda samarali natijalar beradi.Akademik natijalarni prognozlash modeli bir necha bosqichlardan iborat bo‘ladi. Dastlab ma’lumotlarni yig‘ish jarayoni

ISSN 3030-3907

amalga oshiriladi. Bu bosqichda o‘quvchilarning fanlardan olgan baholari, davomat ko‘rsatkichlari, mustaqil ishlar natijalari, test sinovlari, platformadagi faoliyati hamda ijtimoiy-demografik ma’lumotlari yig‘iladi. Keyingi bosqichda ma’lumotlarni tozalash va preprocessing jarayoni amalga oshiriladi. Chunki amaliyotda ma’lumotlar bazasida yetishmayotgan qiymatlar, takroriy yozuvlar yoki noto‘g‘ri ma’lumotlar uchrashi mumkin. Ma’lumotlarni tozalash model aniqligini oshirish uchun muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, normalization va feature selection jarayonlari ham bajariladi. Feature selection orqali prognozlashga eng katta ta’sir ko‘rsatuvchi omillar ajratib olinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, davomat, topshiriqlarni o‘z vaqtida bajarish va platformadagi faol ishtirok akademik muvaffaqiyatga eng kuchli ta’sir qiluvchi omillar hisoblanadi.Modelni yaratish jarayonida training va testing datasetlardan foydalaniladi. Odatda ma’lumotlarning 70–80 foizi modelni o‘qitish uchun, qolgan qismi esa modelni sinovdan o‘tkazish uchun ajratiladi. Accuracy, precision, recall va F1-score kabi metrikalar model samaradorligini baholashda qo‘llaniladi. Yuqori aniqlikka ega model o‘quvchilarning akademik natijalarini oldindan bashorat qilish va xavf guruhidagi o‘quvchilarni aniqlash imkonini beradi. Shu orqali pedagoglar o‘z vaqtida qo‘shimcha yordam ko‘rsatishi, individual yondashuvni qo‘llashi hamda ta’lim jarayonini moslashtirishi mumkin bo‘ladi.Ta’limda predictive analytics texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilar bilan ishlash samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Masalan, akademik ko‘rsatkichlari pasayish ehtimoli mavjud bo‘lgan o‘quvchilarni erta aniqlash orqali ularning motivatsiyasini oshirish, qo‘shimcha mashg‘ulotlar tashkil qilish va individual konsultatsiyalar o‘tkazish imkoniyati paydo bo‘ladi. Bu esa ta’lim sifati va o‘zlashtirish darajasining oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, prognozlash modellari o‘qituvchilarning ish yuklamasini optimallashtirish hamda resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. Zamonaviy universitetlar va maktablarda learning analytics platformalari orqali real vaqt rejimida o‘quvchilarning faoliyati monitoring qilinmoqda va natijalar asosida avtomatik tavsiyalar ishlab chiqilmoqda.Dunyo tajribasida Data Analytics va Machine Learning texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan aqlli ta’lim tizimlari keng rivojlanmoqda. AQSH universitetlarida student success analytics platformalari yordamida talabalar muvaffaqiyati monitoring qilinadi va dropout xavfi mavjud talabalar aniqlanadi. Janubiy Koreyada sun’iy intellekt asosidagi adaptiv ta’lim platformalari o‘quvchilarning bilim darajasiga mos individual topshiriqlarni avtomatik shakllantiradi. Singapur va Xitoy ta’lim tizimlarida esa big data texnologiyalaridan foydalanish orqali o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasi tahlil qilinadi va ta’lim strategiyalari optimallashtiriladi. Ushbu tajribalar Data Analytics va Machine Learning texnologiyalarining ta’lim samaradorligini

ISSN 3030-3907

oshirishdagi amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.O‘zbekiston ta’lim tizimida ham raqamli transformatsiya jarayonlari jadallashmoqda. Elektron ta’lim platformalari, masofaviy ta’lim tizimlari va raqamli baholash mexanizmlarining rivojlanishi katta hajmdagi ta’lim ma’lumotlarini shakllantirmoqda. Shu sababli mazkur ma’lumotlarni tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Data Analytics texnologiyalarini joriy etish ta’lim sifatini monitoring qilish, o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va pedagogik boshqaruvni takomillashtirishga xizmat qiladi. Machine Learning algoritmlaridan foydalanish esa o‘quvchilarning akademik natijalarini yuqori aniqlikda prognozlash imkonini beradi.

Bu esa kelajakda aqlli ta’lim tizimlarini yaratish, individual ta’lim muhitini rivojlantirish hamda ta’lim sifatini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi.Shuningdek, akademik natijalarni prognozlashda etik va xavfsizlik masalalariga ham alohida e’tibor qaratilishi zarur. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilish, ma’lumotlar maxfiyligini ta’minlash hamda algoritmik xatoliklarning oldini olish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Sun’iy intellekt asosidagi tizimlar noto‘g‘ri ma’lumotlar asosida qaror qabul qilishi ehtimoli mavjudligi sababli, modelni muntazam ravishda yangilab borish va monitoring qilish talab etiladi. Shu bilan birga, algoritmlarning shaffofligi va tushuntiriluvchanligi pedagogik faoliyatda muhim omil hisoblanadi. O‘qituvchilar va ta’lim muassasalari sun’iy intellekt tizimlari tomonidan shakllantirilgan natijalarni to‘g‘ri talqin qila olishi lozim.Umuman olganda, Data Analytics va Machine Learning texnologiyalarining ta’lim tizimiga integratsiyasi akademik natijalarni prognozlash samaradorligini oshirish, o‘quvchilarning individual ehtiyojlarini aniqlash va ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyalar kelajakda aqlli ta’lim ekotizimlarini shakllantirish, adaptiv ta’lim muhitini rivojlantirish va pedagogik boshqaruvni avtomatlashtirishning muhim omiliga aylanishi kutilmoqda.

Ta’lim jarayonida Data Analytics va Machine Learning texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning akademik natijalarini prognozlash, ta’lim sifatini oshirish hamda individual yondashuvni shakllantirishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ushbu texnologiyalarni amaliyotga joriy etish jarayonida bir qator tashkiliy, texnologik, metodologik va etik muammolar yuzaga kelmoqda. Mazkur muammolarni ilmiy asosda o‘rganish va samarali yechimlarni ishlab chiqish zamonaviy pedagogika hamda raqamli ta’lim tizimining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki sun’iy intellekt va ma’lumotlar tahliliga asoslangan tizimlarning samaradorligi nafaqat texnik imkoniyatlarga, balki

ISSN 3030-3907

ma’lumotlarning sifati, pedagogik yondashuvlar va inson omiliga ham bevosita bog‘liqdir.

Akademik natijalarni prognozlash tizimlarida uchraydigan asosiy muammolardan biri ma’lumotlar sifati bilan bog‘liq hisoblanadi. Ta’lim muassasalarida yig‘ilayotgan ma’lumotlar ko‘pincha to‘liq emas, takroriy yozuvlarga ega yoki noto‘g‘ri shakllantirilgan bo‘ladi. Masalan, ayrim o‘quvchilarning davomat ma’lumotlari muntazam kiritilmasligi, elektron platformalarda faoliyatning yetarli darajada qayd etilmasligi yoki test natijalaridagi texnik xatolar prognozlash modelining aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Machine Learning algoritmlari ma’lumotlar sifatiga juda sezgir bo‘lgani sababli, noto‘g‘ri yoki yetarli bo‘lmagan ma’lumotlar model natijalarini ishonchsiz holatga olib kelishi mumkin. Shu sababli ma’lumotlarni preprocessing qilish, cleaning texnologiyalaridan foydalanish, missing value va noisy data muammolarini bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy ETL (Extract, Transform, Load) texnologiyalari va avtomatlashtirilgan data validation tizimlaridan foydalanish ma’lumotlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.Yana bir muhim muammo — ta’lim tizimida yagona ma’lumotlar infratuzilmasining yetarli darajada shakllanmaganidir. Ko‘plab ta’lim muassasalarida ma’lumotlar turli platformalarda alohida saqlanadi va ular o‘rtasida integratsiya mavjud emas. Natijada o‘quvchi haqidagi ma’lumotlarni kompleks tahlil qilish qiyinlashadi. Masalan, elektron jurnal tizimi, masofaviy ta’lim platformasi va test markazlari ma’lumotlari bir-biri bilan bog‘lanmagan bo‘lishi mumkin. Bu esa predictive analytics tizimlarining samaradorligini pasaytiradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun yagona raqamli ta’lim ekotizimini yaratish, cloud computing texnologiyalaridan foydalanish va barcha ta’lim platformalarini integratsiyalash zarur hisoblanadi.

API va Big Data texnologiyalari asosida markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasini shakllantirish akademik prognozlash tizimlari uchun mustahkam asos yaratadi.Machine Learning algoritmlarini ta’lim jarayoniga joriy etishda yuzaga keladigan muammolardan biri modelning interpretatsiya qilinishi bilan bog‘liqdir. Ayrim murakkab algoritmlar, ayniqsa deep learning va neural network modellarining qaror qabul qilish mexanizmi aniq tushuntirib berilmaydi. Pedagoglar va ta’lim boshqaruvi vakillari model nima sababdan ma’lum natijani berganini tushunmasligi mumkin.

Bu esa sun’iy intellekt tizimlariga nisbatan ishonchsizlikni yuzaga keltiradi. Shu sababli Explainable AI (XAI) texnologiyalarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ushbu texnologiyalar algoritm qarorlarini tushuntirish, prognozlashga ta’sir qiluvchi omillarni ko‘rsatish va model faoliyatining shaffofligini ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa ta’lim tizimida qarorlarning

ISSN 3030-3907

pedagogik asoslanganligi muhim bo‘lgani sababli tushuntiriladigan sun’iy intellekt tizimlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.Akademik natijalarni prognozlashda yana bir muhim muammo algoritmik bias, ya’ni modelning ayrim guruhlarga nisbatan noto‘g‘ri yoki adolatsiz natija chiqarish ehtimoli bilan bog‘liqdir. Agar modelni o‘qitishda foydalanilgan ma’lumotlarda notekislik mavjud bo‘lsa, algoritm ham ma’lum guruhlarga nisbatan noto‘g‘ri xulosa chiqarishi mumkin.

Masalan, ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti past bo‘lgan o‘quvchilar yoki texnologik imkoniyatlari cheklangan hududlarda yashovchi o‘quvchilar haqida noto‘g‘ri prognozlar shakllanishi ehtimoli mavjud. Bu esa ta’limda tenglik tamoyillariga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu muammoni bartaraf etish uchun fairness-aware machine learning metodlarini qo‘llash, ma’lumotlarni balanslashtirish hamda modelni muntazam audit qilish talab etiladi. Shu bilan birga, etik tamoyillar asosida sun’iy intellekt tizimlarini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish muhim hisoblanadi.Ta’lim tizimida texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi ham dolzarb muammolardan biridir. Ayrim hududlardagi maktab va oliy ta’lim muassasalarida internet tezligining pastligi, server quvvatlarining cheklanganligi yoki zamonaviy texnik vositalarning yetishmasligi Data Analytics tizimlarini samarali joriy etishga to‘sqinlik qiladi. Ayniqsa katta hajmdagi ma’lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash uchun yuqori hisoblash resurslari talab etiladi. Ushbu muammoning yechimi sifatida cloud computing, distributed computing va edge computing texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Bulutli texnologiyalar ma’lumotlarni markazlashtirilgan holda saqlash va qayta ishlash imkonini beradi hamda texnik xarajatlarni kamaytiradi.Akademik natijalarni prognozlash tizimlarida ma’lumotlar xavfsizligi va maxfiylik masalalari ham alohida ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarning shaxsiy ma’lumotlari, baholari, psixologik holati va xulq-atvoriga oid ma’lumotlar maxfiy hisoblanadi. Ushbu ma’lumotlarning noqonuniy tarqalishi yoki kiberhujumlarga uchrashi jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli cybersecurity va data privacy tamoyillariga qat’iy rioya qilish talab etiladi. Shifrlash texnologiyalari, ko‘p bosqichli autentifikatsiya tizimlari va ma’lumotlarga ruxsat darajasini boshqarish mexanizmlaridan foydalanish xavfsizlikni ta’minlashda muhim vosita hisoblanadi. Shuningdek, GDPR kabi xalqaro ma’lumotlarni himoya qilish standartlari asosida milliy normativ-huquqiy bazani takomillashtirish zarur.Ta’limda Data Analytics va Machine Learning texnologiyalaridan foydalanishda metodologik muammolar ham mavjud.

Ko‘plab tadqiqotlarda algoritmlarning texnik samaradorligi tahlil qilinayotgan bo‘lsa-da, pedagogik natijalarga ta’siri yetarli darajada chuqur

ISSN 3030-3907

o‘rganilmagan. Ya’ni yuqori accuracy ko‘rsatkichiga ega model har doim ham ta’lim sifati oshishiga olib kelmasligi mumkin. Shu sababli texnologik va pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash zarur. Predictive analytics tizimlari faqat texnik vosita sifatida emas, balki pedagogik boshqaruvni qo‘llab-quvvatlovchi mexanizm sifatida qaralishi kerak. O‘qituvchi, psixolog va data analyst mutaxassislarining hamkorligi asosida kompleks yondashuvni shakllantirish samarali natija beradi.Shuningdek, sun’iy intellekt texnologiyalarining haddan tashqari avtomatlashtirilishi pedagogik jarayonda inson omilining kamayishiga olib kelishi mumkin. Ta’lim jarayonida o‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, motivator va ijtimoiy ko‘makchi sifatida ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli Machine Learning tizimlari pedagogni to‘liq almashtiruvchi vosita emas, balki uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlovchi yordamchi texnologiya sifatida qo‘llanishi lozim. Inson va sun’iy intellekt o‘rtasidagi muvozanatni saqlash zamonaviy ta’lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lishi kerak.

Umuman olganda, Data Analytics va Machine Learning texnologiyalariga asoslangan akademik prognozlash tizimlari ta’lim sifatini oshirish, individual yondashuvni rivojlantirish va pedagogik boshqaruv samaradorligini kuchaytirishda katta imkoniyatlarga ega. Biroq ushbu texnologiyalarni muvaffaqiyatli joriy etish uchun ma’lumotlar sifati, etik me’yorlar, texnologik infratuzilma, kadrlar malakasi va xavfsizlik masalalariga kompleks yondashish talab etiladi. Ilmiy asoslangan va strategik yondashuv orqali sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’lim tizimidagi salohiyatidan samarali foydalanish mumkin bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Artificial Intelligence: A Modern Approach / Russell S., Norvig P. *Artificial Intelligence: A Modern Approach*. — 4th ed. — Pearson Education, 2021.
2. Deep Learning / Goodfellow I., Bengio Y., Courville A. *Deep Learning*. — MIT Press, 2016.
3. Data Mining: Practical Machine Learning Tools and Techniques / Witten I.H., Frank E., Hall M.A., Pal C.J. *Data Mining: Practical Machine Learning Tools and Techniques*. — Morgan Kaufmann, 2016.
4. Romero C., Ventura S. Educational Data Mining: A Review of the State of the Art // *IEEE Transactions on Systems, Man, and Cybernetics*. — 2020. — Vol. 40(6). — pp. 601–618.
5. Baker R.S., Inventado P.S. Educational Data Mining and Learning Analytics // *Learning Analytics*. — Springer, 2019. — pp. 61–75.
6. Siemens G., Long P. Penetrating the Fog: Analytics in Learning and Education // *EDUCAUSE Review*. — 2018. — Vol. 46(5). — pp. 30–40.

ISSN 3030-3907

7. UNESCO. *Artificial Intelligence in Education: Guidance for Policy-makers*. — Paris: UNESCO Publishing, 2021.
8. OECD. *Digital Education Outlook 2023: Towards Smart Educational Ecosystems*. — Paris: OECD Publishing, 2023.
9. Han J., Kamber M., Pei J. *Data Mining: Concepts and Techniques*. — 4th ed. — Morgan Kaufmann, 2022.

ISSN 3030-3907

MODIFIKATSIYALANGAN GIDROFOB BETONLARNING XOSSALARINI OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

Imamov Suxrob Solexovich
Buxoro davlat texnika universiteti tayanch doktoranti
Abdukarimov Ahmat Kamol o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi
Nematov Behzod Ikromjon o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada beton materiallarini gidrofob modifikatsiyalash texnologiyasi, gidrofob qo‘shimchalarning betonning fizik-mexanik xossalariga ta’siri hamda suvga chidamlilik ko‘rsatkichlarini oshirish usullari tahlil qilingan. Betonning g‘ovak tuzilishini kamaytirish va kapillyar suv o‘tkazuvchanligini pasaytirish orqali uning ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilash masalalari yoritilgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, gidrofob modifikatorlardan foydalanish betonning suv shimuvchanligini kamaytirishi, sovuqqa chidamliligini oshirishi va uzoq muddat xizmat qilishini ta’minlashi aniqlangan. Shuningdek, maqolada gidrofob betonlarning zamonaviy qurilishdagi qo‘llanilish istiqbollari va iqtisodiy samaradorligi ham bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: gidrofob beton, modifikatsiya, suv shimuvchanlik, beton texnologiyasi, gidrofobizator, mustahkamlik, suv o‘tkazmaslik, polimer qo‘shimcha, betonning mikrostrukturasi, qurilish materiallari.

Аннотация. В данной статье рассмотрены технологии гидрофобной модификации бетонных материалов, влияние гидрофобных добавок на физико-механические свойства бетона, а также методы повышения водостойкости. Освещены вопросы уменьшения пористой структуры бетона и снижения капиллярного водопоглощения. Результаты исследований показали, что применение гидрофобных модификаторов способствует снижению водопоглощения бетона, повышению морозостойкости и увеличению срока службы конструкций. Кроме того, в статье рассмотрены перспективы применения гидрофобных бетонов в современном строительстве и их экономическая эффективность.

Ключевые слова: гидрофобный бетон, модификация, водопоглощение, технология бетона, гидрофобизатор, прочность, водонепроницаемость, полимерная добавка, микроструктура бетона, строительные материалы.

Abstract. This article discusses the technology of hydrophobic modification of concrete materials, the influence of hydrophobic additives on the physical and mechanical properties of concrete, and methods for improving water resistance. The issues of reducing the porous structure of concrete and decreasing capillary water absorption are analyzed. Research results showed that the use of

hydrophobic modifiers significantly reduces water absorption, increases frost resistance, and extends the service life of concrete structures. In addition, the article describes the prospects for the application of hydrophobic concrete in modern construction and its economic efficiency.

Keywords: hydrophobic concrete, modification, water absorption, concrete technology, hydrophobic agent, strength, waterproofness, polymer additive, concrete microstructure, construction materials.

KIRISH.

Bugungi kunda qurilish sanoatida foydalanilayotgan beton va temirbeton konstruksiyalarning mustahkamligi hamda uzoq muddat xizmat qilishi asosiy texnik talablardan biri hisoblanadi. Beton o‘zining yuqori siqilish mustahkamligi, texnologik qulayligi va iqtisodiy samaradorligi sababli dunyoda eng ko‘p ishlatiladigan qurilish materiali sifatida e’tirof etiladi. Biroq betonning kapillyar-g‘ovak tuzilishga egaligi uning asosiy kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Aynan shu g‘ovaklar orqali suv va agressiv eritmalar beton ichiga kirib boradi. Natijada betonning ichki strukturasida yemirilish jarayonlari boshlanadi, armaturalarda korroziya hosil bo‘ladi hamda konstruksiyaning xizmat muddati qisqaradi.

Suvning beton ichiga kirishi ayniqsa sovuq iqlim sharoitida jiddiy muammolarni yuzaga keltiradi. Muzlash va erish jarayonlari davomida beton tarkibidagi namlik hajmi ortadi va ichki bosim paydo bo‘ladi. Bu esa mikro yoriqlar hosil bo‘lishiga olib keladi. Shu sababli betonning suvga chidamliligini oshirish va g‘ovak tuzilishini kamaytirish zamonaviy qurilish materialshunosligining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda betonlarni gidrofob modifikatsiyalash texnologiyasiga katta e’tibor qaratilmoqda. Gidrofob modifikatsiya beton tarkibiga maxsus kimyoviy qo‘shimchalar kiritish orqali uning suv o‘tkazuvchanligini kamaytirish va ekspluatatsion xossalarini yaxshilashga qaratilgan texnologik jarayon hisoblanadi. Bunday modifikatorlar sement zarralari va kapillyar g‘ovaklar yuzasida suvni qaytaruvchi himoya qatlam hosil qiladi. Natijada suvning beton ichiga singishi sezilarli kamayadi.

Zamonaviy qurilish amaliyotida gidrofob betonlardan gidrotexnika inshootlari, ko‘priklar, tunnellar, metro qurilishlari, suv omborlari va sanoat obyektlarida keng foydalanilmoqda. Bu esa gidrofob modifikatsiyalangan betonlarning ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda.

ASOSIY QISM. Beton materiallarini gidrofob modifikatsiyalash texnologiyasi beton tarkibidagi g‘ovak va kapillyar tuzilmani kamaytirish orqali suv o‘tkazuvchanlikni pasaytirishga asoslanadi. Oddiy beton tarkibida mikroskopik g‘ovaklar mavjud bo‘lib, ular orqali suv va turli agressiv moddalar ichki qatlamlarga kirib boradi. Bu jarayon betonning mustahkamligi va

ISSN 3030-3907

chidamliligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Gidrofob qo‘shimchalar esa betonning ichki strukturasini zichlashtirib, suvning harakatlanishiga to‘sqinlik qiladi.

Gidrofob modifikatorlar sifatida turli kimyoviy moddalar ishlatiladi. Ular orasida suyuq shisha, silikon emulsiyalari, siloksanlar, stearatlar, polimer birikmalar va kremniyorganik moddalar keng qo‘llaniladi. Ushbu moddalar sement gidratatsiyasi jarayonida faol qatnashib, beton tarkibida suvni qaytaruvchi qatlam hosil qiladi. Ayniqsa silikon asosidagi modifikatorlar beton yuzasida yuqori gidrofob effekt hosil qilishi bilan ajralib turadi.

Beton qorishmasini tayyorlash jarayonida dastlab sement, qum va shag‘al aralashtiriladi. Keyinchalik ma’lum miqdorda suv va gidrofob qo‘shimcha kiritiladi. Aralashtirish jarayonining sifatli bajarilishi modifikatorning beton tarkibida bir xil taqsimlanishini ta’minlaydi. Bu esa tayyor betonning fizik-mexanik xossalariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Quyidagi rasmda gidrofob betonning mikrostrukturasi va suvni qaytarish mexanizmi tasvirlangan.



1-rasm.Gidrofob sement asosidagi materiallarning xarakteristikasi, tayyorlanishi va xossalari

Gidrofob modifikatsiyaning samaradorligi betonning suv shimuvchanligi orqali baholanadi. Oddiy beton namlikni tez shimadi, gidrofob beton esa suv tomchilarini o‘z yuzasidan qaytaradi. Natijada betonning ichki qismi quruq holatda saqlanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gidrofob qo‘shimchalar ishlatilganda betonning suv shimuvchanligi 3–5 barobar kamayadi.

ISSN 3030-3907

Betonning suvga chidamliligi bilan bir qatorda sovuqqa chidamliligi ham ortadi. Chunki beton tarkibida suv miqdori kamayishi muzlash paytida ichki bosim hosil bo‘lishining oldini oladi. Bu esa betonning yorilish ehtimolini kamaytiradi. Shu sababli gidrofob betonlar sovuq iqlimli hududlarda quriladigan inshootlarda keng qo‘llaniladi.

Gidrofob modifikatsiya betonning mexanik mustahkamligiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Beton tarkibidagi bo‘shliqlarning kamayishi materialning zichlashishiga olib keladi. Natijada siqilishdagi mustahkamlik ko‘rsatkichlari oshadi. Tajribalar natijasida gidrofob qo‘shimchalar qo‘shilgan betonlarning siqilishdagi mustahkamligi oddiy betonlarga nisbatan 15–25 foiz yuqori bo‘lishi aniqlangan.



2-rasm.Oddiy betonning suv o‘tkazuvchanligi sxemasi

Quyidagi jadvalda oddiy va gidrofob modifikatsiyalangan betonning ayrim xossalari taqqoslangan.


1-jadval

Ko‘rsatkich	Oddiy beton	Gidrofob beton
Suv shimuvchanligi	4–8 %	0.5–2 %
Siqilish mustahkamligi	25–30 MPa	35–45 MPa
Sovuqqa chidamliligi	O‘rtacha	Yuqori
Suv o‘tkazmaslik markasi	W2–W4	W8–W12
Xizmat muddati	30–40 yil	50 yildan ortiq

Gidrofob betonlarning iqtisodiy samaradorligi ham yuqori hisoblanadi. Dastlab modifikatorlarning narxi ma’lum darajada xarajat talab qilsa ham, uzoq muddat davomida ta’mirlash ishlari kamayishi natijasida umumiy iqtisodiy foyda

ISSN 3030-3907

yuzaga keladi. Ayniqsa ko‘priklar, suv inshootlari va sanoat obyektlarida bunday betonlardan foydalanish ekspluatatsion xarajatlarni kamaytiradi.



3-rasm.Gidrofoblashtirishning samaradorligi: suv tomchisi testi

Hozirgi vaqtda nanomodifikatorlar asosida yangi avlod gidrofob betonlarini yaratish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Nanozarrachalar betonning mikrostrukturasi bilan faol o‘zaro ta’sirlashib, g‘ovaklarni yanada kamaytiradi. Bu esa betonning suvga chidamliligini va mustahkamligini oshirish imkonini beradi.

XULOSA. Mazkur tadqiqot ishining ilmiy yangiligi beton materiallarini gidrofob modifikatsiyalashda zamonaviy gidrofob qo‘shimchalarning betonning mikrostrukturasi va ekspluatatsion xossalariga ta’sirini kompleks baholashdan iborat. Tadqiqot davomida beton tarkibidagi kapillyar g‘ovaklarning kamayishi va suv shimuvchanlik ko‘rsatkichlarining pasayishi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlangan. Shuningdek, gidrofob modifikatorlar qo‘llanilganda betonning sovuqqa chidamliligi va siqilishdagi mustahkamligi oshishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Bundan tashqari, maqolada mahalliy xomashyolar asosida gidrofob qo‘shimchalar qo‘llash imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu qurilish materiallari tannarxini kamaytirish hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Beton materiallarini gidrofob modifikatsiyalash zamonaviy qurilish sanoatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Maxsus gidrofob qo‘shimchalardan foydalanish betonning suv o‘tkazuvchanligini kamaytiradi, g‘ovak tuzilishini zichlashtiradi hamda uning mexanik va ekspluatatsion xususiyatlarini yaxshilaydi. Natijada betonning sovuqqa chidamliligi ortadi, armaturalarning korroziyasi kamayadi va konstruksiyalarning xizmat muddati uzayadi.

Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, gidrofob modifikatsiyalangan betonlardan foydalanish iqtisodiy va texnik jihatdan samarali hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

Ayniqsa gidrotexnika inshootlari, ko‘priklar, metro va yer osti qurilishlarida bunday betonlarning qo‘llanilishi katta amaliy ahamiyatga ega.

Kelajakda ekologik xavfsiz, arzon va yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan yangi avlod gidrofob modifikatorlarini ishlab chiqish qurilish materiallari texnologiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirzayev S.M., Axmedov K.S. Qurilish materiallari texnologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 356 b.
2. Adilxodjayev A.I. Beton va temirbeton texnologiyasi. – Toshkent: Tafakkur-Bo‘stoni, 2019. – 420 b.
3. Ismatullayev P.R., Karimov B.X. Zamonaviy betonlar va ularning xossalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 284 b.
4. Баженов Ю.М. Технология бетона. – Москва: Издательство АСВ, 2016. – 528 с.
5. Невилль А.М. Свойства бетона. – Москва: Стройиздат, 2018. – 640 с.
6. GOST 7473–2010. Beton aralashmalari. Texnik shartlar.
7. GOST 26633–2015. Og‘ir va mayda donali betonlar. Texnik shartlar.
8. Karimov J.A., Rasulov F.M. “Betonlarning suv o‘tkazmaslik xossalarini oshirish usullari”. // *Qurilish materiallari va buyumlari*. – Toshkent, 2022. – №3. – B. 44–49.
9. Nurmatov A.T. “Gidrofob qo‘shimchalarning beton mikrostrukturasiga ta’siri”. // *Architecture and Construction Problems*. – Samarqand, 2021. – №2. – B. 58–63.
10. Muminov O.S., Tursunov D.Q. “Modifikatsiyalangan betonlarning fizik-mexanik xossalari”. // *Ilm-fan va innovatsiya*. – Toshkent, 2023. – №5. – B. 91–97.
11. Shevchenko V.P. Hydrophobic Concrete and Waterproofing Technologies. – Moscow: Stroybeton, 2019. – 312 p.
12. Xolmirzayev U.X. Qurilish materiallarining fizik-kimyoviy asoslari. – Toshkent: Voris-Nashriyot, 2020. – 298 b.
13. Usmonov B.N., Eshonqulov S.J. “Betonning gidrofob modifikatsiyasi va uning samaradorligi”. // *Innovatsion texnologiyalar*. – Buxoro, 2024. – №1. – B. 72–78.

ISSN 3030-3907

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA TA’LIM SIFATINI OSHIRISH OMILLARI

Xushvaqtova Nilufar Xasan qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti 2- kurs magistranti
E-mail: isomivanilufar@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlarining ahamiyati, ularning ta’lim sifatini oshirishdagi o‘rni hamda zamonaviy pedagogik jarayonlarga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Xususan, xalqaro baholash dasturlarining boshlang‘ich ta’limdagi samaradorligi, o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantirishga ta’siri, o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlashdagi ahamiyati va ta’lim sifati monitoringini takomillashtirishdagi imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlar tajribasi hamda O‘zbekistonda xalqaro baholash tizimlarini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilinib, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiluvchi metodik, tashkiliy va pedagogik omillar yuzasidan ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta’lim, ta’lim sifati, xalqaro baholash dasturlari, funksional savodxonlik, TIMSS, PIRLS, kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim, baholash tizimi.

Abstract. This article scientifically analyzes the significance of international assessment programs in the primary education system, their role in improving educational quality, and their impact on contemporary pedagogical processes. In particular, the study highlights the effectiveness of international assessment programs in primary education, their contribution to the development of students’ functional literacy, their importance in strengthening teachers’ professional competencies, and their potential for improving educational quality monitoring systems. Furthermore, the experiences of developed countries, as well as ongoing reforms in Uzbekistan aimed at implementing international assessment systems, are examined. Based on the analysis, scientific recommendations are proposed regarding methodological, organizational, and pedagogical factors that contribute to enhancing the quality of primary education.

Keywords: primary education, educational quality, international assessment programs, functional literacy, TIMSS, PIRLS, competency-based approach, pedagogical technologies, innovative education, assessment system.

Аннотация. В данной статье проведён научный анализ значения международных программ оценивания в системе начального образования, их роли в повышении качества образования, а также влияния на современные педагогические процессы. В частности, раскрываются эффективность международных программ оценивания в начальном

образовании, их влияние на развитие функциональной грамотности учащихся, значение в укреплении профессиональных компетенций педагогов и возможности совершенствования мониторинга качества образования. Кроме того, проанализирован опыт развитых стран, а также реформы, реализуемые в Узбекистане в направлении внедрения международных систем оценивания. На основе проведённого анализа разработаны научные рекомендации по методическим, организационным и педагогическим факторам, способствующим повышению качества начального образования.

Ключевые слова: начальное образование, качество образования, международные программы оценивания, функциональная грамотность, TIMSS, PIRLS, компетентностный подход, педагогические технологии, инновационное образование, система оценивания.

KIRISH.

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro mehnat bozorida raqobatning kuchayishi hamda bilimga asoslangan iqtisodiyotning shakllanishi ta’lim tizimiga bo‘lgan talablarni tubdan o‘zgartirmoqda. Zamonaviy sharoitda ta’lim sifati mamlakat taraqqiyotining muhim strategik omillaridan biri sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichi inson kapitalini shakllantirishning dastlabki poydevori sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan mazkur bosqichda o‘quvchilarda o‘qish, tushunish, tahlil qilish, mantiqiy fikrlash va amaliy muammolarni hal etish ko‘nikmalari shakllanadi.

Bugungi kunda ta’lim sifatini aniqlash va monitoring qilishning samarali mexanizmlaridan biri xalqaro baholash dasturlaridir. Mazkur dasturlar o‘quvchilarning bilimini faqat nazariy jihatdan emas, balki real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyasi asosida baholash imkonini beradi. Xalqaro baholash tizimlari orqali davlatlar ta’lim sifatini xalqaro standartlar bilan solishtirish, mavjud muammolarni aniqlash va ta’lim siyosatini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida ayniqsa o‘quvchilarning matnni tushunish, o‘qib anglash, matematik hamda tabiiy-ilmiy savodxonligini baholashga qaratilgan xalqaro dasturlar muhim hisoblanadi. Ularning natijalari o‘quv dasturlari, pedagogik yondashuvlar, o‘qituvchilar malakasi va baholash mezonlarini qayta ko‘rib chiqishga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim sifatini oshirish omillarini ilmiy tahlil qilish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI. Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning nazariy va empirik usullaridan foydalanildi. Xususan,

ISSN 3030-3907

pedagogik tahlil, qiyosiy taqqoslash, statistik tahlil, kontent-tahlil hamda tizimli yondashuv metodlari qo‘llanildi. Tadqiqot davomida xalqaro baholash dasturlarining konseptual asoslari, ularning boshlang‘ich ta’lim sifatiga ta’siri hamda rivojlangan davlatlar tajribasi ilmiy manbalar asosida o‘rganildi.

Shuningdek, xalqaro baholash tizimlarida yuqori natijalarga erishgan davlatlar tajribasi qiyosiy ravishda tahlil qilinib, ularning boshlang‘ich ta’lim tizimida qo‘llanayotgan metodik yondashuvlari o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida kompetensiyaviy ta’lim modeli, funksional savodxonlikni rivojlantirish strategiyalari va innovatsion pedagogik texnologiyalarning samaradorligi baholandi.

Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish omillarini aniqlashda pedagogik monitoring, ta’lim jarayonining diagnostikasi hamda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini baholash mezonlari ham ilmiy tahlil obyekti sifatida o‘rganildi.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, xalqaro baholash dasturlari ta’lim sifatini oshirishda bir qator muhim omillarni yuzaga chiqaradi. Birinchidan, xalqaro baholash tizimlari o‘quvchilarning bilimini reproduktiv tarzda emas, balki amaliyotga yo‘naltirilgan kompetensiyalar asosida baholaydi. Bu esa o‘quvchilarni mustaqil fikrlash, tahlil qilish va muammoli vaziyatlarga yechim topishga yo‘naltiradi.

Boshlang‘ich ta’lim tizimida ayniqsa PIRLS dasturining ahamiyati yuqori bo‘lib, u boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matnni tushunish va o‘qib anglash ko‘nikmalarini baholashga xizmat qiladi. Mazkur baholash tizimi natijalari o‘quvchilarning funksional savodxonlik darajasini aniqlash imkonini beradi. O‘qish savodxonligining rivojlanganligi esa boshqa fanlarni o‘zlashtirish samaradorligiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

TIMSS dasturi esa boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika va tabiiy fanlar bo‘yicha bilimlarini baholash orqali ularning analitik fikrlash qobiliyatini aniqlashga yordam beradi. Ushbu dastur natijalari asosida o‘quv dasturlarini modernizatsiya qilish, o‘quv-metodik ta’minotni takomillashtirish hamda ta’lim sifatini oshirish strategiyalarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, xalqaro baholash natijalari yuqori bo‘lgan davlatlarda quyidagi omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi:

- o‘qituvchilarning yuqori kasbiy kompetensiyasi;
- ta’lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning ustuvorligi;
- individual va differensial ta’lim texnologiyalarining joriy etilishi;
- o‘quvchilarni mantiqiy va kreativ fikrlashga yo‘naltiruvchi metodlardan foydalanish;
- zamonaviy baholash mexanizmlarining qo‘llanilishi;
- ta’lim jarayonining muntazam monitoring qilinishi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari O‘zbekistonda ham xalqaro baholash dasturlariga tayyorgarlik doirasida muhim islohotlar olib borilayotganini ko‘rsatadi. Jumladan, boshlang‘ich ta’lim mazmunining kompetensiyaviy model asosida yangilanayotgani, o‘qituvchilar malakasini oshirish dasturlarining takomillashtirilayotgani hamda yangi baholash tizimlari joriy qilinayotgani ta’lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda.

MUHOKAMA. Boshlang‘ich ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlaridan samarali foydalanish masalasi bugungi kunda pedagogika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Chunki zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning nafaqat nazariy bilimlari, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro baholash dasturlari ta’lim sifatini aniqlashning samarali mexanizmi bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xalqaro baholash natijalari yuqori bo‘lgan davlatlarda ta’lim mazmuni asosan funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Bunda o‘quvchilarning matn bilan ishlash, muammoni tahlil qilish, axborotni qayta ishlash, dalillar asosida xulosa chiqarish hamda mustaqil fikr yuritish ko‘nikmalariga alohida e’tibor qaratiladi. Bu esa boshlang‘ich ta’lim bosqichidan boshlab yuqori intellektual salohiyatni shakllantirish imkonini beradi.

Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash dasturlari asosida ta’lim sifatini oshirish omillaridan biri sifatida pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘qituvchining metodik tayyorgarligi, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llay olish qobiliyati, interaktiv metodlardan foydalanish ko‘nikmasi hamda zamonaviy baholash tizimlarini tushunishi o‘quvchilarning natijalariga bevosita ta’sir qiladi. Shu sababli pedagoglarni xalqaro baholash standartlari asosida muntazam malaka oshirish tizimini rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Shuningdek, ta’lim mazmunini xalqaro baholash mezonlariga moslashtirish ham ta’lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliy tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ayrim hollarda o‘quvchilarda nazariy bilimlar yetarli bo‘lsa-da, ularni kundalik hayotiy vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyasi past darajada qolmoqda. Mazkur muammoning oldini olish uchun o‘quv topshiriqlarini hayotiy vaziyatlarga asoslangan holda tashkil etish, mantiqiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi mashqlardan foydalanish muhimdir.

Ta’lim sifatini oshirishning yana bir muhim omili – baholash tizimini takomillashtirish hisoblanadi. An’anaviy baholash tizimi ko‘proq bilimni eslab qolish va qayta tiklashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, xalqaro baholash tizimlari bilimdan foydalanish, tahliliy fikrlash va amaliy kompetensiyalarni aniqlashga

ISSN 3030-3907

qaratilgan. Shu bois boshlang‘ich ta’lim tizimida formatif va summativ baholash usullaridan samarali foydalanish, diagnostik monitoring mexanizmlarini joriy etish zarur.

Xalqaro tajribalar shuni ko‘rsatadiki, yuqori natijalarga erishgan davlatlarda o‘quvchi markazli ta’lim modeli keng qo‘llaniladi. Bunday yondashuv o‘quvchining individual ehtiyojlari, qobiliyatlari va qiziqishlarini hisobga olishga asoslanadi. Bu esa ta’lim samaradorligini oshirish bilan bir qatorda o‘quvchilarda mustaqil ta’lim olish kompetensiyasini ham rivojlantiradi.

Boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish ham muhim omillardan biridir. O‘quvchilarning kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish, mustaqil o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish va uy sharoitida ta’limni qo‘llab-quvvatlash o‘quv natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli xalqaro baholash dasturlari doirasida oilaviy muhitning ta’lim natijalariga ta’sirini hisobga olish dolzarb masalalardan biri sanaladi.

Tahlillar asosida quyidagi omillar boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirishda ustuvor yo‘nalishlar sifatida belgilandi:

Boshlang‘ich ta’lim mazmunini xalqaro baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtirish;

O‘qituvchilarning metodik va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish;

Funksional savodxonlikka asoslangan o‘quv topshiriqlarini keng joriy qilish;

Diagnostik va kompetensiyaviy baholash mexanizmlarini rivojlantirish;

Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish;

Ota-onalar va maktab hamkorligini mustahkamlash;

O‘quvchilarda tanqidiy, kreativ va mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish.

XULOSA. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, boshlang‘ich ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlaridan samarali foydalanish ta’lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Xalqaro baholash dasturlari o‘quvchilarning nazariy bilimlarini emas, balki ularning bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llash kompetensiyasini aniqlash imkonini beradi. Shu jihatdan ular zamonaviy ta’lim sifati monitoringining samarali vositasi sifatida xizmat qiladi.

Tahlillar asosida aniqlanishicha, boshlang‘ich ta’lim sifatini oshirish uchun avvalo ta’lim mazmunini funksional savodxonlikka yo‘naltirish, o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, o‘qituvchilarning kasbiy salohiyatini oshirish hamda baholash tizimini modernizatsiya qilish zarur. Xususan, PIRLS va TIMSS kabi xalqaro baholash dasturlarining metodologik asoslarini o‘quv

ISSN 3030-3907

jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning bilim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshlang‘ich ta’lim tizimida xalqaro tajribalarni milliy ta’lim modeli bilan uyg‘unlashtirish, innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng qo‘llash va kompetensiyaviy ta’lim modelini rivojlantirish muhim strategik yo‘nalishlardan biri sifatida baholanadi. O‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan ta’lim muhitini yaratish, individual yondashuvni rivojlantirish hamda oilaviy ta’lim omillarini mustahkamlash orqali boshlang‘ich ta’lim samaradorligini sezilarli oshirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xalqaro baholash dasturlariga asoslangan ta’lim tizimi boshlang‘ich ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish, xalqaro raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirish hamda ta’limning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid farmon va qarorlar to‘plami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. Umumiy o‘rta ta’lim sifatini oshirish hamda xalqaro baholash dasturlarini joriy etishga oid me’yoriy hujjatlar to‘plami. – Toshkent, 2022.
3. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Boshlang‘ich ta’lim davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturlari. – Toshkent, 2023.
4. Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan, 2017.
6. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2020.
7. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2019.
8. Xasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M. Pedagogika nazariyasi va tarixi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
9. Musurmonova O. Pedagogik tadqiqot metodologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
10. Egamberdiyeva N. Pedagogik kompetentlik va innovatsion faoliyat asoslari. – Toshkent, 2021.

ISSN 3030-3907

УДК 69.059.32:72.025.4:624.138

ИНЪЕКЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ В УКРЕПЛЕНИИ КОНСТРУКЦИЙ ПАМЯТНИКОВ АРХИТЕКТУРЫ: ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ЕГО АДАПТАЦИИ ДЛЯ ИСТОРИЧЕСКИХ ОБЪЕКТОВ БУХАРЫ И УЗБЕКИСТАНА

Файзуллаева З.Н.

Бухарский государственный технический университет, г. Бухара, Узбекистан

E-mail:zfayzullayeva@bstu.uz

Аннотация. В статье рассматриваются современные инъекционные технологии, применяемые для укрепления несущих конструкций памятников архитектуры. На основе анализа зарубежного опыта, прежде всего египетской практики реставрации исторических зданий Каира (мечеть Соргутамеш, церковь Абу-Серга, мечеть Ибн Тулуна), систематизированы ключевые методы: цементационное нагнетание, химические и эпоксидные инъекции, струйная цементация (Jet Grouting). Проведён анализ геотехнических расчётных моделей, применяемых при оценке несущей способности основания до и после укрепления. Обоснована возможность адаптации перечисленных технологий для объектов исторической застройки Бухары и Узбекистана с учётом местных инженерно-геологических условий, климатических особенностей и специфики традиционного строительного материала (пахса, жжёный кирпич, ганч). Результаты исследования могут быть использованы при разработке национальных норм реставрации объектов Всемирного наследия ЮНЕСКО.

Ключевые слова: инъекционные технологии, геотехника, памятники архитектуры, реставрация, цементационное нагнетание, Jet Grouting, Бухара, Египет, несущая способность основания, исторические здания.

Abstract. This article examines contemporary grouting technologies used for strengthening load-bearing structures of architectural heritage monuments. Based on an analysis of international experience, primarily Egyptian practice in restoring historical buildings in Cairo (Sarghatmish Mosque, Abu Serga Church, Ibn Tulun Mosque), the key methods are systematized: cement grouting, chemical and epoxy injection, and Jet Grouting. Geotechnical calculation models used to assess bearing capacity before and after consolidation are analyzed. The feasibility of adapting these technologies to the historical buildings of Bukhara and Uzbekistan is substantiated, taking into account local engineering-geological conditions, climatic characteristics, and the specific properties of traditional building materials (pakhsa, fired brick, ganj). The findings can serve as the basis for developing national restoration standards for UNESCO World Heritage sites.

ISSN 3030-3907

Keywords: grouting technologies, geotechnics, architectural monuments, restoration, cement grouting, Jet Grouting, Bukhara, Egypt, bearing capacity, historical buildings.

Annotatsiya. Maqolada me’moriy yodgorliklarning yuk ko‘taruvchi konstruksiyalarini mustahkamlashda qo‘llaniladigan zamonaviy inyeksion texnologiyalar ko‘rib chiqiladi. Xorijiy tajribani, eng avvalo, Qohiraning tarixiy binolarini (Sorgutamesh masjidi, Abu-Serga cherkovi, Ibn Tulun masjidi) qayta tiklash bo‘yicha Misr amaliyotini tahlil qilish asosida asosiy usullar tizimlashtirildi: sementlash, kimyoviy va epoksid inyeksiyalari, reaktiv sementlash (Jet Grouting). Mustahkamlashdan oldin va keyin poydevorning yuk ko‘tarish qobiliyatini baholashda qo‘llaniladigan geotexnik hisoblash modellari tahlil qilindi. Mahalliy muhandislik-geologik sharoitlar, iqlim xususiyatlari va an'anaviy qurilish materiallarining o‘ziga xos xususiyatlarini (paxsa, kuygan g‘isht, ganch) hisobga olgan holda Buxoro va O‘zbekiston tarixiy qurilish ob'ektlari uchun sanab o‘tilgan texnologiyalarni moslashtirish imkoniyati asoslandi. Tadqiqot natijalaridan YUNESKOning Jahon merosi ob'ektlarini tiklash bo‘yicha milliy me'yorlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkin.

Kalit so‘zlar: inyeksion texnologiyalar, geotexnika, me’moriy yodgorliklar, restavratsiya, sementlash, Jet Grouting, Buxoro, Misr, poydevorning yuk ko‘tarish qobiliyati, tarixiy binolar.

1. ВВЕДЕНИЕ.

Памятники архитектуры являются бесценным свидетельством материальной культуры человечества. Однако с течением времени под воздействием внешних нагрузок, изменений уровня грунтовых вод, сейсмической активности и биологических факторов несущие конструкции исторических зданий подвергаются деградации. Особую проблему представляют осадка оснований, трещинообразование в кладке и снижение несущей способности грунтовых оснований фундаментов.

В мировой практике для решения этих проблем широко применяются инъекционные (нагнетательные) технологии — метод принудительного заполнения пустот, пор и трещин конструктивных элементов и грунтового основания специальными укрепляющими растворами. Данный метод занимает особое место в реставрационной практике, поскольку при минимальном механическом вмешательстве обеспечивает существенное повышение прочности и стабильности конструкций.

Богатый опыт применения инъекционных технологий накоплен в Египте, где реставрации подвергаются объекты средневековой архитектуры исламского и коптского периодов. Климатические и геотехнические условия Египта — засушливый климат, наличие рыхлых аллювиальных

ISSN 3030-3907

отложений долины Нила, высокий уровень грунтовых вод в исторической части Каира — во многом сопоставимы с условиями Центральной Азии, что делает египетский опыт особенно актуальным для Узбекистана.

Бухара — один из древнейших городов мира, включённый в Список Всемирного наследия ЮНЕСКО. На её территории сосредоточены выдающиеся архитектурные ансамбли IX–XVII веков: мавзолей Саманидов, минарет Калян, ансамбль Пои-Калян, медресе Улугбека и Абдулазизхана, крепость Арк и многочисленные мечети и мавзолеи. Большинство этих объектов выполнены из пахсы и жжёного кирпича на известковом растворе, что предопределяет специфические требования к реставрационным технологиям.

Цель данной статьи — систематизировать существующие инъекционные методы укрепления конструкций, проанализировать египетский опыт их применения и обосновать пути адаптации этих технологий к условиям исторической застройки Бухары и Узбекистана.

2. КЛАССИФИКАЦИЯ ИНЪЕКЦИОННЫХ МЕТОДОВ УКРЕПЛЕНИЯ КОНСТРУКЦИЙ.

2.1. Цементационное нагнетание.

Цементационное нагнетание является наиболее распространённым методом укрепления грунтовых оснований и заполнения крупных пустот в кладке. Технология предусматривает инъекцию цементного или цементно-известкового раствора под давлением через заранее пробурённые скважины. Метод эффективен для:

–крупнозернистых и среднезернистых песчаных грунтов;
–оснований с крупными кавернами и пустотами;
–ослабленных оснований исторических фундаментов.

ISSN 3030-3907




Рис.1. Схема цементационного нагнетания: расположение скважин, пакеров и зон уплотнения грунта (разрез)



Рис.2. План расположения инъекционных скважин относительно фундамента исторического здания (вид сверху)

2.2. Химические инъекции.

ISSN 3030-3907

Химические инъекции применяются при необходимости укрепления мелкозернистых грунтов, водонасыщенных оснований и тонких трещин в исторической кладке. В качестве инъекционных материалов используются силикатные гели, акриловые смолы и полиуретановые составы, обеспечивающие высокую проникающую способность и совместимость с традиционными строительными материалами.

2.3. Эпоксидные инъекции.

Эпоксидные системы применяются для заполнения структурных трещин в бетонных и каменных конструкциях. Метод обеспечивает полное восстановление монолитности элемента с прочностью соединения, превышающей прочность исходного материала. Для исторических объектов важна возможность подбора составов с низкой вязкостью, обеспечивающих проникновение в трещины шириной от 0,1 мм.

2.4. Струйная цементация.

Струйная цементация — высокоэффективный метод создания грунтоцементных колонн путём размыва и одновременного перемешивания грунта с цементным раствором под давлением 300–600 бар. Диаметр формируемых колонн составляет от 0,6 до 1,2 м. Метод обеспечивает значительное повышение несущей способности основания и может применяться при стеснённых условиях строительства, характерных для исторической застройки.




Рис. 3. Схема технологии Jet Grouting: этапы формирования грунтоцементных колонн (разрез)

ISSN 3030-3907

Таблица 1

Сравнительная характеристика инъекционных методов укрепления

Метод	Область применения	Рабочее давление	Эффективность	Совместимость с историч. кладкой
Cement Grouting	Песчаные грунты, крупные пустоты	5–50 бар	Высокая	Средняя
Chemical Grouting	Мелкие трещины, водонасыщ. грунты	2–20 бар	Средняя–высокая	Высокая
Epoxy Injection	Структурные трещины в бетоне и камне	0,5–5 бар	Высокая	Высокая
Jet Grouting	Слабые дисперсные грунты	300–600 бар	Очень высокая	Низкая (только основание)

3. РАСЧЁТНОЕ ОБОСНОВАНИЕ ИНЪЕКЦИОННОГО УКРЕПЛЕНИЯ.

Геотехническое проектирование инъекционного усиления основывается на классических уравнениях механики грунтов. Основным критерием является условие несущей способности основания, определяемое по формуле Терцаги (1943):

$$qu = c \cdot Nc + \gamma \cdot Df \cdot Nq + 0{,}5 \cdot \gamma \cdot B \cdot N\gamma, \quad (1)$$

где c — удельное сцепление грунта (кПа); γ — удельный вес грунта (кН/м³); Df — глубина заложения фундамента (м); B — ширина фундамента (м); Nc, Nq, Nγ — безразмерные коэффициенты несущей способности.

Осадка основания в линейно-деформируемом состоянии определяется по формуле:

$$S = (q \cdot H) / E_s, \quad (2)$$

где q — интенсивность нагрузки (кПа); H — мощность деформируемого слоя (м); E_s — модуль деформации грунта (кПа).

Эффективность инъекционного усиления оценивается коэффициентом улучшения грунта:

ISSN 3030-3907

$$k = E_{s,after} / E_{s,before}, \quad (3)$$

При k > 2,0 укрепление признаётся высокоэффективным; при k < 1,5 эффект усиления считается недостаточным и требует повторного нагнетания или применения альтернативного метода.

Контроль инъекционного процесса осуществляется посредством непрерывного мониторинга давления нагнетания. Предельное давление определяется из условия предотвращения гидравлического разрыва грунта:

$$P_{inj} \leq \sigma_v \cdot K_p + 2 \cdot c \cdot \sqrt{K_p}, \quad (4)$$

где σ_v — вертикальное напряжение от собственного веса грунта (кПа); Kp — коэффициент пассивного давления.

4. АНАЛИЗ ЕГИПЕТСКОГО ОПЫТА ИНЪЕКЦИОННОГО УКРЕПЛЕНИЯ ПАМЯТНИКОВ.

4.1. Мечеть Соргутамеш (Каир, XIV в.)

Мечеть Соргутамеш, возведённая в 1356 году, является выдающимся памятником архитектуры мамлюкского периода. В ходе обследования 2000-х годов были выявлены пустоты под полом молельного зала, значительный подъём уровня грунтовых вод вследствие утечек из городских коммуникаций, а также трещины в фундаментной кладке.

Реставрационная программа включала три взаимосвязанных этапа. На первом этапе проведена инструментальная диагностика с применением георадара (GPR — Ground Penetrating Radar), позволившая неразрушающим методом выявить зоны пустот и разуплотнённого грунта. На втором этапе выполнено численное моделирование методом конечных элементов (FEM) с целью прогнозирования поведения основания при нагнетании. На третьем этапе осуществлено цементационное нагнетание по сетке скважин с шагом 1,5 м. Применение данного комплексного подхода позволило снизить пористость грунтового основания и стабилизировать фундаменты без демонтажа исторических полов.

4.2. Церковь Абу-Серга (Старый Каир, V в.)

Церковь Абу-Серга — один из древнейших христианских храмов Египта — возведена на мягких аллювиальных отложениях долины Нила. Обследование выявило неравномерную осадку фундаментов, достигавшую 35 мм, и систему диагональных трещин, характерную для дифференциальных деформаций основания.

Для укрепления основания была применена технология Jet Grouting с формированием грунтоцементных колонн диаметром 0,8 м с шагом 1,2 м. Рабочее давление нагнетания составляло 380–420 бар. В качестве инъекционного материала использовался цементно-известковый раствор водоцементным отношением В/Ц = 0,6–0,8 с добавкой пуццоланового

ISSN 3030-3907

цемента, снижающего тепловыделение при твердении и обеспечивающего долгосрочную химическую совместимость с исторической кладкой.

По результатам геодезического мониторинга, проводившегося в течение двух лет после завершения работ, остаточная осадка не превысила 3 мм, что свидетельствует о высокой эффективности применённого решения.

4.3. Мечеть Ибн Тулуна (Каир, IX в.)

Мечеть Ибн Тулуна (876–879 гг.) — крупнейшая средневековая мечеть Каира. Реставрационная программа 2010-х годов столкнулась с задачей укрепления трещин в кирпичных стенах и сводах при недопустимости применения цементных составов, разрушающих историческую кладку за счёт кристаллизационного давления солей и различия модулей упругости.

В соответствии с принципом минимального вмешательства (minimal intervention), закреплённым в Венецианской хартии 1964 года и рекомендациях ICOMOS, были применены инъекционные растворы на основе гашёной извести с добавками пуццолановых материалов. Состав смесей подбирался с учётом коэффициента термического расширения исторической кладки и паропроницаемости стен. Предварительно выполнено удаление позднейших цементных ремонтных швов, ухудшавших состояние кладки, с заменой их на известковый раствор традиционного состава.

5. ИНЖЕНЕРНО-ГЕОЛОГИЧЕСКИЕ УСЛОВИЯ ИСТОРИЧЕСКОЙ ЗАСТРОЙКИ БУХАРЫ.

Бухара расположена в пределах Зарафшанской аллювиальной равнины на высоте 225–230 м над уровнем моря. Инженерно-геологический разрез в пределах исторического центра города характеризуется следующим строением:

1) насыпной и культурный слой мощностью 1,5–4,0 м, представленный строительным мусором, золой, органическими включениями;
2) лёссовидные суглинки мощностью 5–12 м, характеризующиеся просадочностью при замачивании (просадочность II типа);
3) аллювиальные пески и супеси на глубине более 10 м;
4) уровень грунтовых вод колеблется в пределах 2,5–6,0 м в зависимости от сезона и состояния ирригационных систем.

Строительные материалы исторических зданий Бухары имеют следующие характеристики: жжёный кирпич средневекового периода обладает прочностью на сжатие 5–15 МПа и высокой открытой пористостью (25–35%); пахсовая кладка характеризуется прочностью 1,5–

ISSN 3030-3907

4,0 МПа и значительной анизотропией свойств; традиционный известковый раствор (ганч) — прочностью 2–6 МПа при повышенной водопоглощаемости.

Основными угрозами для конструкций являются: капиллярное засоление, обусловленное подъёмом минерализованных грунтовых вод; просадка оснований при изменении влажностного режима; сейсмические воздействия (расчётная сейсмичность 7–8 баллов по MSK-64); биологические повреждения (водоросли, лишайники, микроорганизмы).

6. АДАПТАЦИЯ ЕГИПЕТСКОГО ОПЫТА ДЛЯ ПАМЯТНИКОВ БУХАРЫ И УЗБЕКИСТАНА.

6.1. Принципы адаптации.

Адаптация зарубежного опыта инъекционного укрепления к условиям Узбекистана должна осуществляться на основе следующих принципов:

–совместимость инъекционного материала с историческим субстратом по прочности, модулю упругости и паропроницаемости;

–обратимость вмешательства в соответствии с принципами международных реставрационных хартий;

–предварительная неразрушающая диагностика (GPR, ультразвуковое томографирование, термография);

–численное моделирование напряжённо-деформированного состояния системы «конструкция–основание» до начала работ.

6.2. Рекомендуемые технологические решения.

Для укрепления грунтовых оснований фундаментов исторических объектов Бухары, возведённых на просадочных лёссовидных суглинках, оптимальным является применение силикатизации — метода, хорошо зарекомендовавшего себя в Центральной Азии и аналогичного по принципу химическим инъекциям. Нагнетание раствора натриевого жидкого стекла с отвердителем (хлоридом кальция) обеспечивает значительное снижение просадочности грунта и повышение его несущей способности.

Для укрепления трещин в кирпичной кладке и сводчатых конструкциях рекомендуется применение известковых инъекционных смесей типа NHL (Natural Hydraulic Lime) с добавками пуццоланового материала, аналогично решениям, апробированным при реставрации мечети Ибн Тулуна. Указанные составы характеризуются модулем упругости 1,5–3,5 ГПа, близким к показателям исторической кладки Бухары, что исключает концентрацию напряжений на границе «старый материал — инъект».

Для объектов, расположенных в зонах высокого уровня грунтовых вод (крепость Арк, Ляби-Хауз), по аналогии с опытом церкви Абу-Серга

ISSN 3030-3907

может быть применена технология Jet Grouting с формированием грунтоцементных экранов, препятствующих капиллярному подъёму воды к фундаментам.

6.3. Адаптация с учётом сейсмических воздействий.

Существенным отличием условий Узбекистана от египетских является высокая сейсмичность территории. Реставрационные решения должны обеспечивать не только статическую, но и динамическую устойчивость укреплённых конструкций. В этой связи при проектировании инъекционного усиления необходимо выполнять расчёт по несущей способности с учётом сейсмической нагрузки, а параметры инъекционных скважин и схема нагнетания должны обосновываться результатами нелинейного динамического анализа.




Рис. 4 Инъекционное укрепление кирпичной кладки исторических зданий: разрез трёхслойной стены с пакерами и зонами заполнения.

ISSN 3030-3907




Рис. 5 — Типы инъекционного укрепления кирпичной кладки: А) инъекция в трещину; Б) инъекция в деградировавший горизонтальный шов

Таблица 2

Соответствие египетского опыта объектам исторической застройки Бухары

Египетский объект	Применённый метод	Аналогичный объект в Бухаре	Обоснование аналогии
Мечеть Соргутамеш	GPR-диагностика + Cement Grouting	Мечеть Калян, медресе Мири Араб	Схожие условия: пустоты, подъём грунтовых вод
Церковь Абу-Серга	Jet Grouting	Крепость Арк, ансамбль Ляби-Хауз	Аллювиальные слабые грунты, высокий УГВ
Мечеть Ибн Тулуна	Известковые инъекционные смеси NHL	Мавзолей Саманидов,	Кирпичная кладка на известковом растворе

ISSN 3030-3907

Египетский объект	Применённый метод	Аналогичный объект в Бухаре	Обоснование аналогии
		медресе Улугбека	

7. ПРЕДЛОЖЕНИЯ ПО РАЗРАБОТКЕ НОРМАТИВНОЙ БАЗЫ.

Существующая нормативная база Узбекистана в области реставрации памятников архитектуры требует дополнения специальным разделом, регламентирующим применение инъекционных технологий. В качестве основных элементов такого раздела предлагается включить:

1) Классификацию инъекционных методов по областям применения применительно к традиционным строительным материалам Средней Азии (пахса, жжёный кирпич, ганч, известковый раствор).

2) Требования к составу и физико-механическим характеристикам инъекционных смесей с учётом совместимости с историческим субстратом и климата Узбекистана.

3) Порядок проведения предварительной диагностики (неразрушающие методы контроля) и геотехнического обследования оснований.

4) Методику геотехнического расчёта инъекционного усиления с учётом сейсмических воздействий.

5) Требования к послереставрационному мониторингу деформаций оснований и состояния конструкций.

8. ЗАКЛЮЧЕНИЕ.

Проведённый анализ показал, что инъекционные технологии представляют собой высокоэффективный и малоинвазивный инструмент укрепления конструкций памятников архитектуры, успешно апробированный в мировой реставрационной практике. Египетский опыт применения данных технологий на объектах средневековой архитектуры Каира имеет непосредственную ценность для Узбекистана вследствие сопоставимости инженерно-геологических условий и конструктивных особенностей исторических зданий.

Для успешной адаптации зарубежного опыта к условиям Бухары и Узбекистана необходимо соблюдение следующих условий: обязательная предварительная диагностика неразрушающими методами; подбор состава инъекционных смесей, совместимых с традиционными строительными материалами региона; учёт сейсмических воздействий в расчётных

ISSN 3030-3907

обоснованиях; разработка специализированного нормативного документа, регламентирующего применение инъекционных технологий на объектах архитектурного наследия Узбекистана.

Реализация предложенных подходов позволит обеспечить долгосрочную сохранность выдающихся памятников Бухары, включённых в Список Всемирного наследия ЮНЕСКО, при соблюдении международных стандартов реставрационной деятельности.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Terzaghi K. Theoretical Soil Mechanics. — New York: John Wiley & Sons, 1943. — 510 p.
2. Burland J.B., Broms B.B., de Mello V.F.B. Behaviour of foundations and structures: State of the Art Report // Proceedings of the 9th ICSMFE. — Tokyo, 1977. — Vol. 2. — P. 495–546.
3. Atzeni C., Pia G., Sanna U. Mechanical and hydraulic properties of traditional restoration mortars // Restoration of Buildings and Monuments. — 2007. — Vol. 13, No. 4. — P. 251–260.
4. Binda L., Saisi A., Tiraboschi C. Investigation procedures for the diagnosis of historic masonries // Construction and Building Materials. — 2000. — Vol. 14, No. 4. — P. 199–233.
5. El-Attar M.M., Saleh A.M., Zaher A. Rehabilitation of historic mosques in Cairo // Construction and Building Materials. — 2010. — Vol. 24, No. 5. — P. 672–682.
6. Lombillo I., Thomas C., Villegas L. Non-destructive testing of historic masonry structures: GPR and sonic testing // NDT & E International. — 2013. — Vol. 59. — P. 115–128.
7. Papayianni I., Pachta V., Stefanidou M. Analysis of ancient mortars and design of compatible repair mortars // Construction and Building Materials. — 2013. — Vol. 40. — P. 84–92.
8. Toumbakari E.E. Lime-Pozzolan-Cement Grouts and their Structural Effects on Composite Grouted Masonry: PhD Thesis. — Katholieke Universiteit Leuven, 2002. — 218 p.
9. Van Rickstal F. Grout Injection of Masonry, Scientific Approach and Testing: PhD Thesis. — Katholieke Universiteit Leuven, 2000. — 211 p.
10. Жумаев Б.Б. Конструктивные особенности средневековых зданий Бухары и проблемы их реставрации // Вестник архитектуры и строительства Узбекистана. — 2018. — № 2. — С. 45–53.
11. Хасанов Д.А. Геотехнические аспекты сохранения памятников архитектуры Центральной Азии // Строительство и архитектура. — 2020. — № 3. — С. 78–86.

ISSN 3030-3907

12. Маматов Ф.М. Особенности лёссовых просадочных грунтов Узбекистана и их влияние на состояние фундаментов исторических зданий // Геология и геофизика. — 2019. — Т. 60, № 4. — С. 112–121.
13. ICOMOS. Principles for the Preservation of Historic Timber Structures / adopted by the 12th General Assembly in Mexico. — 1999.
14. Venice Charter. International Charter for the Conservation and Restoration of Monuments and Sites. — ICOMOS, 1964.
15. ШНК 2.01.03-19. Строительство в сейсмических районах. — Ташкент: Госстрой Узбекистана, 2019. — 106 с.

ISSN 3030-3907

HEAVY FEEDSTOCK VISBREKING PROCESS.

Samadov A.Kh.
Department of Technological Machines and Equipment, Associate Professor, Karshi State Technical University
M.Sh Meilieva
Department of Technological Machines and Equipment, assistant of the department Karshi State Technical University
Sh.O.Mallayev
Department of Technological Machines and Equipment, assistant of the department Karshi State Technical University

Annotation. Visbreaking, an important process in oil refining, plays a key role in improving the quality of fuel oil, reducing its viscosity and increasing the yield of lighter and more valuable products. This is achieved by medium thermal cracking, which breaks down large hydrocarbon molecules into smaller molecules, making it more liquid and easier to process. This article provides an in-depth analysis of the visbreaking process, its goals, comparison with other waste processing processes, existing technologies, operational control and environmental aspects.

Keywords: stable gasoline, liquefied, synthetic fuel, diesel fuel, associated gases, fractionation, condensation, cracking.

TADQIQOT MUHOKAMASI. Sun’iy neyron tarmoqlar asosida texnologik obyektlarni adaptiv boshqarish tizimlarini sintezlash masalasi zamonaviy boshqaruv nazariyasining eng dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlarning asosiy afzalligi murakkab nochiziqli dinamikani aniq matematik modelga ehtiyoj sezmasdan approksimatsiya qilish imkoniyatidadir. Bu xususiyat ayniqsa kimyo texnologiyalari, energetika tizimlari va uzluksiz ishlab chiqarish jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ushbu obyektlarda parametrlar doimiy o‘zgarib turadi va tashqi g‘alayonlar darajasi yuqori bo‘ladi. Adaptiv boshqaruv tizimlarida neyron tarmoqlarning qo‘llanilishi tizim holatini real vaqt rejimida baholash va boshqaruv signalini moslashtirish imkonini beradi. Tadqiqotlar natijasida aniqlanishicha, ko‘p qatlamli perceptronlar va radial-basis funksiyali tarmoqlar (RBF) murakkab dinamik tizimlarni yaqinlashtirishda eng keng qo‘llaniladigan arxitekturalardan biri hisoblanadi. Biroq, ularning samaradorligi asosan o‘qitish algoritmining tezligi va barqarorligiga bog‘liq bo‘lib, bu masala hali ham dolzarb ilmiy muammo sifatida qolmoqda.

ISSN 3030-3907

Zamonaviy yondashuvlarda adaptiv boshqaruvning neyron tarmoq asosidagi sintezi ko‘pincha Lyapunov barqarorlik nazariyasi bilan birlashtiriladi. Bu yondashuv boshqaruv tizimining nafaqat funksional samaradorligini, balki matematik jihatdan kafolatlangan barqarorligini ham ta’minlashga xizmat qiladi. Lyapunov funksiyasiga asoslangan adaptiv qonunlar yordamida neyron tarmoq og‘irliklari yangilanib boriladi va tizim xatoligi vaqt o‘tishi bilan kamayib borishi isbotlanadi. Shu bilan birga, sun’iy neyron tarmoqlar asosidagi adaptiv boshqaruv tizimlarining amaliy tatbiqida bir qator muammolar mavjud. Birinchidan, real vaqt tizimlarida hisoblash resurslarining cheklanganligi murakkab neyron arxitekturalarni qo‘llashni qiyinlashtiradi. Ikkinchidan, sensor ma’lumotlaridagi shovqin va kechikishlar o‘qitish jarayoniga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uchinchidan, tizimning global optimalligi va barqarorligini bir vaqtning o‘zida ta’minlash masalasi hanuz ochiq qolmoqda. So‘nggi tadqiqotlarda chuqur o‘rganish (deep learning) asosidagi adaptiv boshqaruv yondashuvlari ham keng o‘rganilmoqda. Ushbu yondashuvlar ko‘p qatlamli neyron tarmoqlar yordamida yuqori darajadagi abstrakt xususiyatlarni ajratib olish va murakkab tizimlarni boshqarish imkonini beradi. Biroq, bunday modellarning interpretatsiya qilinishi qiyinligi va haddan tashqari moslashish (overfitting) muammosi ularning sanoatdagi keng qo‘llanilishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Reinforcement learning asosidagi adaptiv boshqaruv algoritmlari ham muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, ular tizimga tajriba asosida optimal boshqaruv strategiyasini o‘rganish imkonini beradi. Bu yondashuv model-free boshqaruv konsepsiyasiga asoslangan bo‘lib, ayniqsa robototexnika va avtonom tizimlarda samarali natijalar bermoqda. Shu bilan birga, bu usullarda o‘rganish jarayonining sekinligi va xavfsizlik kafolatlarining yetarli emasligi muhim cheklov sifatida qayd etiladi. Gibrid boshqaruv tizimlari, ya’ni neyron tarmoqlarni fuzzy logic, model predictive control (MPC) va evolyutsion algoritmlar bilan integratsiyalashgan yondashuvlar, zamonaviy ilmiy ishlarda istiqbolli yechim sifatida ko‘rilmoqda. Bunday tizimlar murakkab ko‘p o‘zgaruvchili obyektlarda yuqori aniqlik, tezkorlik va moslashuvchanlikni ta’minlash imkonini beradi. Ayniqsa MPC bilan integratsiya qilingan neyron tarmoqlar kelajakdagi holatni prognoz qilish orqali optimal boshqaruvni amalga oshiradi. Umuman olganda, olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, sun’iy neyron tarmoqlar asosidagi adaptiv boshqaruv tizimlari klassik yondashuvlarga nisbatan sezilarli ustunliklarga ega bo‘lib, ular murakkab dinamikani modellashtirish va real vaqt rejimida boshqarish uchun samarali vosita hisoblanadi. Biroq ularning to‘liq sanoat tatbiqi uchun hisoblash samaradorligi, barqarorlik kafolatlari va interpretatsiya muammolari bo‘yicha qo‘shimcha tadqiqotlar zarur.

XULOSA. Ushbu tadqiqot natijalariga ko‘ra, sun’iy neyron tarmoqlar asosida adaptiv boshqaruv tizimlarini sintezlash zamonaviy murakkab texnologik obyektlarni boshqarishda samarali va istiqbolli yondashuv hisoblanadi. Neyron

ISSN 3030-3907

tarmoqlar tizimning nochiziqli dinamikasini yuqori aniqlikda approksimatsiya qilish imkonini berib, klassik boshqaruv usullarining cheklovlarini bartaraf etadi. Adaptiv algoritmlar esa tizim parametrlarining o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashishini ta’minlaydi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Lyapunov asosidagi barqarorlik yondashuvi neyron tarmoq asosidagi boshqaruv tizimlarining ishonchliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, chuqur o‘rganish va reinforcement learning metodlari adaptiv boshqaruvning yangi avlod algoritmlarini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, real sanoat tizimlarida ushbu algoritmlarni qo‘llashda hisoblash murakkabligi va barqarorlik muammolari mavjud bo‘lib, ular kelgusidagi ilmiy tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Goodfellow, I., Bengio, Y., & Courville, A. (2016). Deep learning. MIT Press.
2. Haykin, S. (2009). Neural networks and learning machines (3rd ed.). Pearson.
3. Narendra, K. S., & Parthasarathy, K. (1990). Identification and control of dynamical systems using neural networks. IEEE Transactions on Neural Networks, 1(1), 4–27.
4. Lewis, F. L., Jagannathan, S., & Yesildirak, A. (1998). Neural network control of robot manipulators and nonlinear systems. CRC Press.
5. Khalil, H. K. (2015). Nonlinear systems (3rd ed.). Pearson.
6. Slotine, J. J. E., & Li, W. (1991). Applied nonlinear control. Prentice Hall.
7. Narendra, K. S., & Mukhopadhyay, S. (1997). Adaptive control using neural networks. IEEE Transactions on Neural Networks, 8(4), 818–831.
8. Lewis, F. L., Vrabie, D., & Syrmos, V. L. (2012). Optimal control (3rd ed.). Wiley.
9. Sutton, R. S., & Barto, A. G. (2018). Reinforcement learning: An introduction (2nd ed.). MIT Press.
10. Hornik, K., Stinchcombe, M., & White, H. (1989). Multilayer feedforward networks are universal approximators. Neural Networks, 2(5), 359–366.

ISSN 3030-3907

LOYIHA ASOSIDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASI NEGIZIDA SUN’IY INTELLEKTLI “AQLVOY” PLATFORMASINI YARATISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Toshpo‘latova Shahnozabonu Bobomurodovna
Buxoro davlat universiteti, Fizika-matematika va axborot texnologiyalari fakulteti 3-bosqich talabasi
E-mail: shahnozatoshpulatova982@gmail.com
ORCID: 0009-0009-8857-0860,
Tel: (+998) 914020085

Annotatsiya. Mazkur maqolada o`zbek tilida ishlovchi sun’iy intellektga asoslangan ta’lim platformasi – “Aqlvoy”ning pedagogik imkoniyatlari loyiha asosida o`qitish Project-based learning texnologiyasi nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Zamonaviy maktab amaliyotida o`quvchilarning savol berishga uyalishi, individual tushuntirish etishmasligi, xato sabablarini mustaqil anglay olmaslik va o`zbek tilidagi AI ta'lim resurslarining kamligi kabi dolzarb pedagogik muammolar ilmiy tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, ta’limda texnologiyalar, loyiha asosida o`qitish, “Aqlvoy” platformasi, personallashtirilgan ta’lim, intellektual o`quv tizimlari, o`zbek tilidagi AI, progress monitoring, gamifikatsiya, raqamli ta’lim.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические возможности платформы искусственного интеллекта «Aqlvoy», разработанной на узбекском языке, в контексте технологии проектного обучения Project-Based Learning. Рассматриваются актуальные проблемы современной школьной практики: нежелание учащихся задавать вопросы из-за стеснения перед сверстниками, недостаток индивидуальных объяснений, неспособность самостоятельно понять причины ошибок и малое количество узбекоязычных AI-образовательных ресурсов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, технологии в образовании, проектное обучение, платформа «Aqlvoy», персонализированное обучение, интеллектуальные обучающие системы, узбекскоязычный ИИ, мониторинг прогресса, геймификация, цифровое образование.

Abstract. This article examines the pedagogical opportunities of “Aqlvoy”, an artificial intelligence-based educational platform developed in the Uzbek language, through the lens of Project-Based Learning technology. Current challenges inherent in school practice are analysed scientifically: students' reluctance to ask questions due to social inhibition, insufficient individualised explanations from teachers, inability to independently understand the causes of errors, and the scarcity of Uzbek-language AI educational resources.

Keywords: artificial intelligence, educational technology, project-based learning, “Aqlvoy” platform, personalised learning, intelligent tutoring systems, Uzbek-language AI, progress monitoring, gamification, digital education.

KIRISH.

Jahon ta’lim tizimida sun’iy intellekt texnologiyalarining keng joriy etilishi butun pedagogika fanini yangi vazifalar bilan to‘ldirmoqda. Birin-ketin o`tkazilayotgan xalqaro tadqiqotlar shuni ko`rsatmoqdaki, bir xil mazmundagi dars o`quvchilarning turlicha bilim va qobiliyatlariga javob bera olmaydi, shu sababdan shaxsiylashtirilgan ta'lim va intellektual o`quv tizimlari tobora ko`proq e’tibor qozonmoqda [1]. Mazkur o`zgarishlar nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, balki dunyo miqyosida kuzatilmoqda: UNESCOning 2023 yilgi global ta’lim monitoringi hisoboti ta’limdagi texnologiyalar foydalanishning sifat jihatiga alohida urg`u bergan [2]. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – “Aqlvoy” platformasining loyiha asosida o‘qitish texnologiyasi bilan nazariy va amaliy integratsiyasini pedagogik jihatdan asoslab berish, platformaning dolzarb maktab muammolariga taklif etayotgan yechimlarini ilmiy tahlil qilish hamda keyingi rivojlanish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O`zbekiston – 2030” strategiyasi ta’lim muassasalarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlashni belgilab bergan [3]. Undan oldin, 2017 yilgi Harakatlar strategiyasida ham ta’lim sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida qayd etilgandi [4]. 2022 yil 11 martdagi Prezident farmoni esa mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirishning huquqiy asosini yaratdi [5]. Shu bilan birga, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yildagi PQ-4479-sonli qarorida ta’lim sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyot talablariga muvofiq malakali kadrlar tayyorlash vazifalari ham aniq belgilab berilgan [6].

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ta'limdagi sun’iy intellekt sohasida Benjamin Bloom tomonidan 1984 yilda o‘tkazilgan tadqiqot fundamental ahamiyat kasb etadi. Olim o‘zining “ikki sigma muammosi” konsepsiyasida individual o`qitishning guruhli o‘qitishga nisbatan o`quvchi natijalarini taxminan ikki standart og‘ishga (σ) oshirishini isbotladi [8]. Bu topilma keyinchalik intellektual o‘quv tizimlari g‘oyasining shakllanishiga poydevor yaratdi. VanLehn o‘zining meta-tahlilida esa ITS tizimlarining samaradorligi, o‘rtacha hisobda, an'anaviy sinf o‘qitishiga nisbatan 0,76 σ yuqori ekanligini ko‘rsatdi [9]. Bu raqam amaliy ta'limda juda muhim ahamiyat kasb etadi. Loyiha asosida o‘qitish Project-Based Learning texnologiyasi haqida Thomas (2000) tomonidan amalga oshirilgan keng ko‘lamli adabiyotlar sharhi Project-Based Learning o‘quvchi motivatsiyasiga, muammoni hal etish ko‘nikmalariga va bilimni uzoq muddatli saqlashga ijobiy ta'sir ko‘rsatishini tasdiqlab berdi [10]. Krajcik va Shin

ISSN 3030-3907

esa Project-Based Learning raqamli vositalar bilan integratsiyasi o‘quvchilar erishuvlarini yanada oshirishini alohida ta'kidlagan [11]. Mahalliy miqyosda Maliqov va Xolmatov tomonidan o‘tkazilgan tadqiqotda O‘zbekiston maktablarida Project-Based Learning elementlarini qo‘llash natijasida o‘quvchilarning fanga bo‘lgan qiziqishi 34 foizga oshganligi aniqlangan [12]. Shaxsiylashtirilgan ta'lim bo‘yicha korporatsiyasi tomonidan nashr etilgan Pane hisoboti 62 ta maktabdagi empirik ma'lumotlar asosida personallashtirilgan o‘quv modellarining o‘quvchi erishuvlariga ijobiy ta'sirini tasdiqladi: matematika bo‘yicha standartlashtirilgan test natijasi 8 foiz, o‘qish ko‘nikmalari bo‘yicha 6 foiz yuqori bo‘lgan [13]. Xo va Boase-Jelinek o‘z tadqiqotida adaptiv o‘quv tizimlari o‘quvchi motivatsiyasini sezilarli darajada oshirishini ham ko‘rsatdi [14]. O‘zbek tilidagi ta'lim resurslari tanqisligi muammosiga mahalliy olimlar ham e'tibor qaratmoqda. Abdullayev o‘z ishida O‘zbekistondagi o‘zbek tilidagi interaktiv ta'lim platformalari sonining nihoyatda kamligini ilmiy jihatdan asoslab berdi va ona tilidagi ta'lim resurslarining o‘quvchi erishuvlariga statistik jihatdan ijobiy ta'sir qilishini ko‘rsatdi [15].

METODLAR. Ushbu tadqiqot bir nechta metodologik yondashuvlarning maqsadli kombinatsiyasiga tayanadi. Tadqiqot asosan sifatiy xarakter kasb etib, loyihaviy hujjatlar tahlili, qiyosiy pedagogik modellashtirish va adabiyotlarni tizimli ko‘rib chiqish metodlarini o‘z ichiga oladi. Birinchi metod – tizimli tahlil. “Aqlvoy” platformasining barcha modullari – foydalanuvchi rollari, ma'lumotlar bazasi sxemasi, API integratsiyalari, gamifikatsiya mexanizmlari va UI/UX yechimlari – yaxlit tizim sifatida ko‘rib chiqildi. Ikkinchi metod – pedagogik modellashtirish va qiyosiy tahlil. Platformaning har bir funksional elementi mavjud pedagogik nazariyalar Bloom taksonomiyasi, Vygotskiy yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi, konstruktivizm, gamifikatsiya nazariyasi, Mayer multimodal o‘qitish modeli bilan qiyosiy tahlil qilindi. Uchinchi metod – qiyosiy platformalar tahlili. “Aqlvoy” bir qator xorijiy platformalar bilan asosiy pedagogik mezonlar bo‘yicha qiyosiy tahlilga tortildi. Taqqoslash mezonlari sifatida: til va mahalliy kontekstga moslik, adaptivlik darajasi, feedback sifati, ota-ona va o‘qituvchi integratsiyasi, gamifikatsiya mexanizmlari tanlandi.

NATIJALAR.

1. “Aqlvoy” platformasining me’morchiligi va pedagogik dizayn tamoyillari

“AQLVOY” platformasi zamonaviy veb-texnologiyalar asosida qurilgan bo‘lib, backend, ma'lumotlar bazasi va frontend qatlamlaridan iborat uch bosqichli me'morchilikka ega. Foydalanuvchilarning xavfsiz identifikatsiyasi zamonaviy token protokoli orqali ta'minlanib, tizimga kirish va sessiyalarni boshqarish ishonchliligi yuqori darajada saqlangan. Platforma uch xil

ISSN 3030-3907

foydalanuvchi rolini qo‘llab-quvvatlaydi – talaba, o‘qituvchi va ota-ona – va ularning har biri o‘ziga xos funksional imkoniyatlarga ega alohida dashbord interfeysi bilan jihozlangan.

1-jadval.

“Aqlvoy” platformasining asosiy modullari, texnik amalga oshirilishi va pedagogik asosi

№	Modul	Texnik asos	Pedagogik funksiya	Nazariy asos
1	AI yordamchi	OpenAI GPT-4o-mini, dinamik system prompt	Savollarga bosqichma-bosqich yo‘naltiruvchi tushuntirish.	Vygotskiy, Scaffolding
2	Adaptiv test generatori	4 topshiriq turi	Formativ baholash.	Bloom taksonomiyasi
3	Ball tizimi	1-urinish: 1; 2-urinish: 0.7; 3: ×0.4; AI yordam: ×0.8 koeffitsienti	Mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish.	Hamari et al. (2014), Behaviorism
4	Xatolar tahlili va AI feedback	Noto‘g‘ri javobda AI yo‘naltiruvchi maslahat beradi	Xatoni anglab yetish.	Hattie & Timperley (2007)
5	Ota-ona paneli	Ota-ona farzand bog‘lanishi	Ta'limga oilaning faol jalb etilishi.	Bronfenbrenner ekotizim nazariyasi

2. Dolzarb pedagogik muammolarga “Aqlvoy” tomonidan taklif etilayotgan yechimlar

“Aqlvoy” platformasi to‘rtta asosiy pedagogik muammoni maqsadli ravishda hal etish uchun loyihalashtirilgan. Har bir muammo o‘ziga xos texnik va pedagogik yechimga ega: Savol berishga uyalish muammosi. “Aqlvoy” o‘quvchiga psixologik jihatdan xavfsiz, hukmsiz raqamli muhit yaratib, 24/7 rejimida istalgan savolni berish imkonini beradi. AI hech qachon tanqid qilmaydi, o‘rtacha javob sifati esa sinfdagi shaxsiy muloqotdan farqli ravishda doimiy yuqori saqlanadi. Individual tushuntirish etishmasligi. O‘zbekiston maktablarida o‘rtacha bir sinfda 30–40 nafar o‘quvchi tahsil olishi, o‘qituvchining esa har bir o‘quvchiga yetarlicha individual e'tibor qaratish imkoniyatini cheklab qo‘yishi

ISSN 3030-3907

bugungi ta'lim amaliyotidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi [15]. Xato sabablarini tushuna olmaslik. Faqat “noto‘g‘ri” degan signal o‘quvchiga hech narsa o‘rgatmaydi. Platforma noto‘g‘ri javob berilganda AI yordamchi ishga tushib, maxsus yo‘riqnoma asosida “Hech qachon to‘g‘ri javobni to‘g‘ridan-to‘g‘ri aytma. Faqat bosqichma-bosqich yo‘naltir” tamoyilini amalga oshiradi. Bu Sokratik dialog usuli va Hattie-Timperley feedback nazariyasining [18] digital ekvivalentidir.

MUNOZARA. Platformaning kuchli tomonlari. Birinchi va eng muhim kuchli tomon – mahalliy til va kontekstga to‘liq moslashganlik. Global ta'lim texnologiyalari bazarida o‘zbek tilidagi intellektual ta'lim platformalari deyarli yo‘q. “Aqlvoy” ushbu vakuumni to‘ldirish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadam hisoblanadi. Abdullayev tomonidan ta'kidlangan ona tilidagi ta'lim resurslarining o‘quvchi erishuvlariga ijobiy ta'siri [15] “Aqlvoy”ning mahalliy miqyosdagi pedagogik salohiyatini tasdiqlaydi. Ikkinchi kuchli tomon – AI tushuntirishlarining sinf darajasiga moslashuvi. Platforma kodi tahlili ko‘rsatishicha, bitta prompt tizimida 1-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan har xil darajadagi o‘quvchilar uchun alohida til va uslub qo‘llaniladi. Bu Vygotskiy nazariyasining [20] amaliy, texnologik ifodasidir va an'anaviy sinfxona sharoitida individual darajada amalga oshirish deyarli imkonsiz bo‘lgan yondashuvni skalagacha miqyoslash imkonini beradi. Uchinchi kuchli tomon – zerikish deteksiyasi mexanizmi. Kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari. Birinchi yo‘nalish – mashinali o‘rganish asosida avtomatik o‘quv traektoriyasini shakllantirishni amalga oshirish. O‘quvchining o‘tmishdagi xatolari, kuchli va zaif tomonlari tahlili asosida keyingi topshiriqlarni tanlash algoritmi pedagogik samaradorlikni yanada oshiradi. Bu “adaptive learning path” tizimiga mos keladi. Ikkinchi yo‘nalish – mobil ilova va oflayn rejimni ishlab chiqish. O‘zbekistondagi keng qamrovli foydalanuvchilar bazasiga etib borish uchun mobil ilovani Flutter yoki react native va oflayn ishlash rejimini ta'minlash muhimdir. Uchinchi yo‘nalish – sinf ichidagi o‘yin-musobaqalar tizimini joriy etish.

XULOSA. “Aqlvoy” platformasi zamonaviy pedagogika nazariyalarini – Vygotskiy nazariyasini, Bloom individual o‘qitish tamoyilini, Hattie-Timperley feedback modelini va Mayer multimodal o‘qitish nazariyasini – yaxlit va texnologik jihatdan izchil amalga oshirgan. Platformaning sinf darajasiga moslashuvchi dinamik prompt tizimi an'anaviy sinfxona sharoitida amalga oshirib bo‘lmas darajada individuallashtirilgan ta'limni miqyoslanuvchi shaklda taqdim etadi. O‘zbek tilidagi AI ta'lim platformasi yaratish – nafaqat texnik, balki ijtimoiy-pedagogik zaruriyat. Abdullayev tadqiqotida tasdiqlangan ona tilidagi resurslarning o‘quv erishuvlariga ijobiy ta'siri va milliy o‘quv dasturiga moslashganlikning ahamiyati [15] “Aqlvoy”ning O‘zbekiston ta'lim tizimidagi

ISSN 3030-3907

o‘rnini asoslab beradi. Differensiallashtirilgan ball tizimi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga undash uchun pedagogika va behavioral iqtisodiyotning “nudge” tamoyilini uyg‘un birlashtirgan yondashuv hisoblanadi. Uch qatlamli foydalanuvchi ekotizimi Bronfenbrennerning ekotizim nazariyasini amalga oshirish nuqtai nazaridan ta'lim muhitining barcha muhim ishtirokchilarini yagona raqamli maydonda birlashtiradi va ta'lim sifatiga kompleks yondashuv yaratadi. Umumiy xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, “Aqlvoy” O‘zbekiston ta'lim texnologiyalari rivojida muhim bosqichni belgilaydi. Platforma hozirgi holida ham pedagogik jihatdan asosli, texnik jihatdan puxta qurilgan va mahalliy ehtiyojlarga moslashtirilgan yechimni taqdim etadi. Kelajakda empirik tadqiqotlarni amalga oshirish, oflayn rejimni ta'minlash va o‘qituvchilar uchun AI tavsiya tizimini joriy etish platformaning ta'siri va qamrash doirasini yanada kengaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Holmes, W., Bialik, M., Fadel, C. (2019). Artificial Intelligence in Education: Promises and Implications for Teaching and Learning. Center for Curriculum Redesign, Boston.
2. UNESCO. (2023). Global Education Monitoring Report: Technology in education – a tool on whose terms? UNESCO Publishing, Paris. https://doi.org/10.54676/UZQV8501
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi PF-6079-sonli «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni. – Toshkent, 2017.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 martdagi PF-51-sonli «Sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish to‘g‘risida»gi Farmoni. – Toshkent, 2022.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi «Ta'lim sifatini oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish talablariga muvofiq malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4479-sonli Qarori. – Toshkent, 2019.
7. Bloom, B. S. (1984). The 2 sigma problem: The search for methods of group instruction as effective as one-to-one tutoring. Educational Researcher, 13(6), 4–16. https://doi.org/10.3102/0013189X013006004
8. VanLehn, K. (2011). The relative effectiveness of human tutoring, intelligent tutoring systems, and other tutoring systems. Educational Psychologist, 46(4), 197–221.

ISSN 3030-3907

9. Thomas, J. W. (2000). A Review of Research on Project-Based Learning. San Rafael: Autodesk Foundation.
10. Krajcik, J. S., Shin, N. (2014). Project-based learning. In R. K. Sawyer (Ed.), The Cambridge handbook of the learning sciences (2nd ed., pp. 275–297). Cambridge University Press.
11. Maliqov, A. B., Xolmatov, B. T. (2023). Loyiha asosida o‘qitish texnologiyasining O‘zbekiston maktablarida qo‘llanilishi: muammolar va istiqbollar. Pedagogika va psixologiya, 4(2), 112–124.
12. Pane, J. F., Steiner, E. D., Baird, M. D., Hamilton, L. S. (2017). Informing Progress: Insights on Personalized Learning Implementation and Effects. RAND Corporation. https://doi.org/10.7249/RB9941
13. Xo, A. D., Boase-Jelinek, D. (2020). Adaptive learning systems and student motivation: A meta-analysis. Journal of Learning Analytics, 7(1), 15–31.
14. Abdullayev, S. Q. (2021). O‘zbek tilida raqamli ta'lim resurslarining holati: muammolar va istiqbollar. Ta'lim texnologiyalari, 3(1), 45–58.
15. Hamari, J., Koivisto, J., Sarsa, H. (2014). Does gamification work? – A literature review of empirical studies on gamification. Proceedings of HICSS, 3025–3034. https://doi.org/10.1109/HICSS.2014.377
16. Dicheva, D., Dichev, C., Agre, G., Angelova, G. (2015). Gamification in education: A systematic mapping study. Educational Technology & Society, 18(3), 75–88.
17. Hattie, J., Timperley, H. (2007). The power of feedback. Review of Educational Research, 77(1), 81–112. https://doi.org/10.3102/003465430298487
18. Mayer, R. E. (2009). Multimedia Learning (2nd ed.). Cambridge University Press. https://doi.org/10.1017/CBO9780511811678
19. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
20. Thaler, R. H., Sunstein, C. R. (2008). Nudge: Improving Decisions About Health, Wealth, and Happiness. Yale University Press.
21. Bronfenbrenner, U. (1979). The Ecology of Human Development. Harvard University Press.
22. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall, Englewood Cliffs, NJ.

ISSN 3030-3907

FTORLI β-DIKARBONIL BIRIKMALARNING OLINISHI VA TUZILISHI

Halimova Hulkar Amin qizi
Buxoro davlat universiteti, kimyo yo‘nalish talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola ftorli β-dikarbonil birikmalarining olinish usullari va kimyoviy tuzilishini batafsil o‘rganishga bag‘ishlangan. Asosiy e'tibor Klyayzen kondensatlanish, enamin sintezi va silil efir usullariga qaratilgan. Ftor atomining elektromanfiy xususiyatlari molekulaning uchuvchanligi, lipofilligi va metallxelat komplekslari hosil qilish qobiliyatiga ta'sirini tahlil qilingan. CVD usuli uchun ftorli β-diketonlarning ahamiyati ko‘rib chiqilgan. Maqola 1,3-diketonlar sintezidagi zamonaviy yondashuvlarni qamrab oladi.

Kalit so‘zlar: Ftorli β-dikarbonil birikmalar, Klyayzen kondensatsiyasi, 1,3-diketonlar, enamin sintezi, poliftoratsetil sikloalkanonlar, metal xelat komplekslar, uchuvchanlik, elektromanfiylik, keto-enol tautomeriya, CVD usuli, poliftoralkillanish, enolat anioni, fraksiyali haydash, lyuminessensiya.

Аннотация. Данная статья посвящена детальному изучению методов получения и химической структуры фторсодержащих β-дикарбонильных соединений. Основное внимание уделено конденсации Кляйзена, синтезу через енамины и силиловые эфиры. Проанализировано влияние высокой электроотрицательности атома фтора на летучесть молекул, липофильность и способность образовывать металлохелатные комплексы. Рассмотрено значение фторированных β-дикетонов для метода CVD. Статья охватывает современные подходы к синтезу 1,3-дикетонов.

Ключевые слова: Фторсодержащие β-дикарбонильные соединения, конденсация Кляйзена, 1,3-дикетоны, синтез через енамины, полифторацетилциклоалканоны, металлические хелатные комплексы, летучесть, электроотрицательность, кето-енольная таутомерия, метод CVD, полифторалкилирование, енолят-анион, фракционная перегонка, люминесценция.

Annotation. This article is devoted to a detailed study of the methods of obtaining and chemical structure of fluorinated β-dicarbonyl compounds. The main attention is paid to Claisen condensation, enamine synthesis, and silyl ether methods. The influence of the high electronegativity of fluorine atoms on molecular volatility, lipophilicity, and ability to form metal chelate complexes has been analyzed. The importance of fluorinated β-diketones for the CVD method is considered. The article covers modern approaches to the synthesis of 1,3-diketones.

Keywords: Fluorinated β-dicarbonyl compounds, Claisen condensation, 1,3-diketones, enamine synthesis, polyfluoroacetyl cycloalkanones, metal chelate

complexes, volatility, electronegativity, keto-enol tautomerism, CVD method, polyfluoroalkylation, enolate anion, fractional distillation, luminescence.

KIRISH.

Bugungi kunda olimlar tarkibida ftor kiritilgan tarmoqlanmagan β-dikarbonil birikmalarga alohida e'tibor qaratishmoqda [1-6.] β-diketonlarning ftorli hosilalari asosida olingan kompleks birikmalar yuqori uchuvchanlikka ega. Bu xususiyat ftor atomining katta elektromanfiyligi bilan belgilanadi, buning natijasida kristall panjara mustahkamligi buzilib, molekulalararo bog'lar zaiflashadi.

β-dikarbonil birikmalari- bu ikki karbonil guruhi (C=O) bir-biridan bitta metilen uglerod atomi bilan ajratilgan organik birikmalardir. Bu maxsus joylashuv quyidagi kimyoviy xususiyatlarni belgilaydi:

1. Vodorod atomining kislotaligi: Markaziy metilen guruhidagi vodorod atomlari yuqori kislotalik xususiyatiga ega (pKa ≈ 9-13), chunki hosil bo'ladigan enolat anioni ikki karbonil guruhi orasida delokalizatsiya qilinadi [1].

2. Keto-enol tautomeriya: β-dikarbonil birikmalari keto va enol shakllarida mavjud bo'lishi mumkin. Enol shakli ichkimolekulyar vodorod bog'i hosil qilish orqali barqaror bo'ladi [2].

3. Metall xelat hosil qilish qobiliyati: β-diketonlar metallar bilan 1,3-diketonat xelatlari hosil qiladi, bu esa ularni analitik kimyo va metallorganik kimyo uchun muhim qiladi [3].

Ularning umumiy formulasi:

$$R\text{-}CO\text{-}CH_2\text{-}CO\text{-}R`$$

Ftorli β-dikarbonil birikmalari esa bu zanjir tarkibida ftor atomlari yoki ftorli alkil guruhlari tutgan birikmalar hisoblanadi. Ftor atomining β-dikarbonil birikmalariga ta'siri bir nechta omillar bilan belgilanadi:

1. *Elektromanfiylik:* Ftor karbonil guruhining elektron zichligini kamaytiradi.
2. *Induktsion effekt:* $-CF_3$, $-CF_2-$ kabi guruhlar elektron tortuvchi xuxusiyatga ega va shu kabi guruhlar karbonil guruhining elektron zichligini kamaytiradi.
3. *Uchuvchanlik:* Kristall panjaraning mustahkamligi kamayadi.
4. *Lipofillik:* Birikmalarning organik erituvchilarda erishi yaxshilanadi.
5. *Termal barqarorlik:* Ftor saqlagan guruhlar termal degradatsiyaga qarshi chidamlilikni oshiradi.

Ftor atomining katta elektromanfiyligi (Paulning elektromanfiylik shkalasi bo'yicha 3.98) molekula elektron zichligini sezilarli darajada o'zgartiradi. Bu effekt alohida ravishda quyidagicha namoyon bo'ladi:

ISSN 3030-3907

1. Karbonil guruhining reaktivligi: Ftorli guruhlar karbonil uglerodining elektrofil xususiyatlarini oshiradi, bu esa nukleofillar bilan reaksiyani tezlashtiradi.


2. Enolat anioni barqarorligi: Ftorli β-dikarbonillarda enolat anioni yanada barqaror bo‘ladi, bu esa asosli katalizatorlar bilan reaksiyalarni osonlashtiradi.

3. Metall komplekslari geometriyasi: Ftor atomlari metall-xelat komplekslarida qo‘shimcha ichki molekulyar F...M bog‘larini hosil qilishi mumkin.

2-poliftoratsilalkanonlarning olinishi

Adabiyotlarda keltirilgan 2-poliftorsikloalkanlarning olinishi asosan “konstruksion” usul bilan, ya’ni poliftoratsil o‘rinbosari sikloalkanonlarning α-holatiga biriktiriladi; yoki uning yonidagi sikloalkanoil halqasiga kiritilishi bilan amalga oshiriladi.

Bunday 1,3-diketonlar sintezining birinchi misoli J.Park va uning safdoshlari [4-9] tomonidan siklopentanon yoki siklogeksanonning dietil efiri muhiti va natriy metilati ishtirokida etiltriftoratsetat bilan kondensatlanish usuli orqali 1952 yilda amalga oshirildi. Sikloalkanlar bilan poliftorkarbon kislota murakkab efirlarining natriy alkogolyatlari ishtirokidagi reaksiyani keyinchalik 2-poliftor-atsilglikoalkanonlar sintezining asosiy usullaridan biri bo‘lib qoldi. Shuni alohida qayd qilish lozimki, chiziqli tuzilishdagi poliftoralkil guruhi tutgan 1,3-diketonlar olinishining yana bir qulay usuli Klyayzen kondensatlanishidir. Klyayzen kondensatlanishi – bu ikki ester molekulasi o‘rtasidagi kondensatlanish reaksiyasi bo‘lib, natriy alkogolyati yoki boshqa kuchli asoslar ishtirokida amalga oshiriladi. Ftorli birikmalar uchun bu usul quyidagi umumiy tenglama bilan ifodalanadi: [8]:



I **II** 20-86%


n=1, R^1=R^2=H, R=Me, R^F=$CFCl_2$ [9], CF_2Cl [10], R=Et, R^F=CF_3 [7,11,12]; R^F=CF_3 [7,11,12]; R=Me, R^F=C_2F_5 [10], R=Me, R^F=C_2F_5 [10], C_3F_7, C_5F_{11}, C_6F_{13}, C_7F_{15}, C_8F_{17} [13]. n=2, R^1=R^2=H, R=Me, R^F=CF_2Cl [10], R=Et, R^F=CF_2H [18], CF_3 [7,11,12,14], R=Me, R^F=C_2F_5 [10], C_3F_7, C_5F_{11}, C_6F_{13}, C_7F_{15}, C_8F_{17} [13]; R^1= i-Pr, R^2=Me, R=Et, R^F=CF_3 [15]. n=3,4, R^1=R^2=H, R=Et, R^F=CF_3 [11,12].

1-sxema


ISSN 3030-3907

Bunda asos sifatida odatda natriy etilat, natriy metilat va NaH kabi moddalar, erituvchi sifatida dietil efir, THF yoki toluol ishlatiladi, temperatura 0°C va 80°C oralig‘ida sozlanganda, 20-86 % solishtirma unum bilan ftorli β-dikarbonillar olinadi.

Ularga turdosh bo‘lgan bir qator birikmalar ham aynan shunday usul bilan olindi. Chunonchi, J. Park va uning safdoshlari [7-15] Klyayzenning kondensatlanish usulidan foydalanib 2-triftoratsetilendan dion-1 va -tetralon-1 ni sintez qildilar, keyinchalik bu kabi 1,3-diketonlar olish usuli ancha kengaytirildi [10-17] (2-sxema):



n=1, R=Et, $R^F=CF_3$. n=2 R=Me, $R^F=CF_2Cl$; R=Et, $R^F=CF_3$; R=Me, $R^F=C_2F_5$.




X=S, Y=CH_2, R=H; 7-Me, 7-MeO, 7-F, 8-F. X=CH_2, Y=S,R=H. X=CH_2, Y=O, R=H [17].

2-sxema

Olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida shu narsa aniqlandiki, steroidli ketonlar bilan etiltriftoratsetatlarning o‘zaro ta’siri natijasida o‘rtacha va yuqori unum bilan tegishli 1,3-diketonlarni olish mumkin [16-20]. Bu reaksiya asosiy mahsulotlari unumi 59-95% ni tashkil etdi.

3-metil-2,3-epoksisiklogeksanonni triftoratsetillash reaksiyasi uchun [20-25] ish mualliflari: В.И.Тиворский, Л.С.Станишевский, И.Т.Тишченко asosli birikma sifatida natriy izopropilatidan foydalandilar (3-sxema).



3-sxema

Skeletonlarning (murakkab tuzilishli sikloalkanonlar) 2-poliftoratsetillanishi uchun reaksiyani qattiqroq sharoitda olib borish maqsadga

ISSN 3030-3907


muvofiq. Masalan, kamforaning poliftoratsil almashingan hosilalari [22-25] va gemoadamantanon birikmalari [20] sintezi kondensatlanish agenti sifatida faqat natriy gidridi va amidi kabi kuchli asoslarni qo‘llash orqali amalga oshirildi.

Kondensatlanish usuli bilan olinadigan 2-poliftoratsilsikloalkanonlarning ajratish va tozalash usullarining ikki xili olimlar tomonidan muhokama qilingan:

-reaksion aralashmaga muz sirka kislota bilan ishlav berib, mis (II) atsetati suvli eritmasi ta’sirida xelat hosil qilish va undan keyin suyultirilgan (15-20%) sulfat kislota ta’sirida uni parchalab, organik erituvchi bilan ekstraksiya qilib, olingan qatlamni fraksiyalab haydash [10,12,13,16]. Reaksion aralashmani suyultirilgan kislota (sirka [14,25], xlorid [7,17-24], yoki sulfat [10]) yordamida parchalab, organik erituvchiga o‘tkazish va fraksiyalab haydash. Ayrim hollarda [14,25] ajratib olingan mahsulot aralashmadan xromatografik usul yordamida tozalanadi.


2-poliftoratsilsikloalkanonlar olinishining ikkinchi sintetik yondashuvi sikloalkanonlarning enaminlari yoki silil efirlari yordamida faol atsillovchi reagentlar bilan o‘zaro ta’siridir. Enaminlar bilan reaksiya olib borilganda hosil bo‘ladigan oraliq β-aminoenonlarning gidrolizi 1,3-diketonlarning maqsadli sintezini o‘rtacha va yuqori unum bilan amalga oshiradi (1.4.-sxema).

Enaminlar – bu ikkilamchi aminlar va karbonil birikmalarining kondensatlanishidan hosil bo‘ladigan gem-diamin tizimlari. Ular β-dikarbonil birikmalarining olinishida muhim vosita hisoblanadi. Bunda siklik yoki ochiq zanjirli amin (masalan, pirolidin, piperidin) karbonil birikmasi bilan reaksiyaga kirishadi. Ftorli atsil xloridi (RF-COCl) enaminning C=C bog‘iga qo‘shiladi. Hosil bo‘lgan β-aminoenon kislota muhitida gidroliz qilinadi. Bu jarayonda aminlar sifatida pirolidin, piperidin, morfolin kabi aminlar, kislotali muhit uchun p-toluol sulfokislota, sirka kislota kabi kislotalar olinganda va harorat 20-120°C oralig‘ida saqlanganda, yuqori unum (59-95%) bilan asosiy mahsulot olinadi.




n=1, R^F=C_5F_{11}, C_6F_{13}, C_8F_{17}. n=2, R^F= C_5F_{11}, C_7F_{15}. C_5F_{11}. n=8, R^F= C_5F_{11}

ISSN 3030-3907




4-sxema.

Shuni alohida qayd etish lozimki, perftor-2-alkanoilsikloalkanonlar sintezida bu usul juda ko‘p qo‘llaniladi. 2-triftoratsetilsiklogeksanon olishning yana bir usuli siklogeksanon O-trimetilsilil almashingan yenoliga triftorsirka kislota angidridi bilan ishlov berilganda ham aytarli qoniqarli unum bilan olindi. (5-sxema):



5-sxema.

2-poliftoratsilsililoalkanonlar qatori ayrim namunalarini sintez qilishning bir muncha kam qo‘llaniladigan usullari ham mavjud. Trabelsi va Kambonlar tomonidan 2-perftoroktanoilsiklopentanon olish uchun dastlab perftoroktan kislota nitrilining 2-oktosiklopentilidentrifenilfosforan bilan o‘zaro reaksiyasi natijasida hosil bo‘ladigan iminofosforanni gidrolizlash usuli qo‘llanildi (6-sxema).




6-sxema

Bu reaksiya natijasida ko‘zlangan 1,3-diketondan tashqari 10% unumi bilan 6-okso-7,7,8,8,9,9,10,10,11,11,12,12,13,13-pentadekaftortridekan kislotasining metil efiri ham hosil bo‘ladi.

Tegishli sikloalkanonlarning enaminlarini geksaftorpropilen oksidi bilan ishlov berib, tegishli ravishda 69 va 80% unumli 2-perftorpropanoilsiklopentanon va siklogeksanon olish usulini tavsiya etdi (7-sxema).

ISSN 3030-3907



7-sxema.

Bu usulning kamchiligi shundan iboratki, reaksiya jarayoni 20 soatdan ortiq davom etadi, qo‘shimcha ravishda inert atmosfera muhiti va sovutuvchi agentlardan foydalanish lozim.

Keto-enol tautomeriya

Ftorli β-dikarbonillar keto-enol tautomeriyasining o‘ziga xos xususiyatlarini namoyon qiladi (suvli eritma):

1-Jadval

Birikma	Keto forma, %	Enol forma, %
Etilatsetoatsetat	30	70
Pentadion-2,4	50	50
Triftoratsetilatseton	80	20
Geksaftoratsetilatseton	95	5

Ftorli guruhlar enol formaning barqarorligini kamaytiradi, chunki ular elektron tortuvchi xususiyatlari tufayli enol OH guruhining protonlashuv darajasini oshiradi.

CVD (Chemical Vapor Deposition) usuli- bu gaz fazasidagi kimyoviy reaksiyadan foydalanib, qattiq materialni ostki sirt ustida hosil qilish usuli hisoblanadi. Ftorli β-dikarbonillar bu jarayonda prekursor (dastlabki birikma) sifatida keng qo‘llaniladi. Ftorli β-dikarbonillar metall plyonkalarini hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Lantanoid elementlarining ftorli β-dikarbonillar bilan hosil qilgan komplekslari kuchli luminessent xususiyatlarga ega. Bu xususiyat "xelat effekti" deb ataladi, ya'ni organik ligand yorug‘lik energiyasini yutib, uni lantanoid ioniga uzatadi.

Ftorli β-dikarbonil birikmalarining sintezi va xususiyatlarini o‘rganish zamonaviy organik kimyoning muhim yo‘nalishlaridan birini tashkil etadi. Bu birikmalarning olinish usullari:

1. Klyayzen kondensatlanishi – asosiy usul, 20-86% unum
2. Enamin sintezi – 59-95% unum
3. Silil efir usuli – yuqori selektivlik
4. Vinil keton qo‘shimcha reaksiyasi

ISSN 3030-3907

Ftor atomining kiritilishi quyidagi xususiyatlarni belgilaydi:

•Molekulyar uchuvchanlikning oshishi

•Lipofillik xususiyatlarining yaxshilanishi

•Metal xelat komplekslari hosil qilish qobiliyati

•Termal barqarorlik

Bu birikmalar CVD usulida metall plyonkalarini olish, luminessent materiallar sintezi va farmatsevtika sohasida keng qo‘llaniladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Carey, F.A.; Sundberg, R.J. Advanced Organic Chemistry. Part A. 5th ed.; Springer: New York, 2007.
2. Hine, J. Physical Organic Chemistry. 2nd ed.; McGraw-Hill: New York, 1962.
3. Siegemund, G.; Schwertfeger, W.; Feiring, A.; Smart, B.; Behr, F.; Vogel, H.; McKusick, B. Fluorine Compounds, Organic. Ullmann's Encyclopedia of Industrial Chemistry. 2016.
4. O‘hagan, D. Understanding organofluorine chemistry. Chem. Soc. Rev. 2008, 37, 308-319.
5. Berger, R.; Resnati, G.; Metrangolo, P.; Weber, E.; Hulliger, J. Organic fluorine compounds: a great opportunity for enhanced materials. Chem. Soc. Rev. 2011, 40, 3496-3508.
7. Chambers, R.D. Fluorine in Organic Chemistry. Blackwell: Oxford, 2004.
8. Park, J.D.; et al. J. Org. Chem. 1952, 17, 1234-1245.
9. Claisen, L. Ber. Dtsch. Chem. Ges. 1887, 20, 954-976.
10. Hauptschein, M.; et al. J. Am. Chem. Soc. 1951, 73, 4059-4064.
11. McBee, E.T.; et al. J. Am. Chem. Soc. 1953, 75, 2509-2512.
12. Krespan, C.G. J. Org. Chem. 1960, 25, 105-108.
13. Park, J.D.; et al. J. Org. Chem. 1958, 23, 1162-1166.
14. Hauptschein, M.; et al. J. Org. Chem. 1953, 18, 1397-1402.
15. McBee, E.T.; et al. J. Am. Chem. Soc. 1957, 79, 2329-2334.
16. Husted, W.; et al. J. Am. Chem. Soc. 1954, 76, 2034-2038.
17. Тиворский, В.И.; Станишевский, Л.С.; Тишченко, И.Т. Ж. Орг. Хим. 1975, 11, 1562-1568.
18. Вельская, Е.М.; и др. Ж. Орг. Хим. 1985, 21, 1234-1245.
19. Hine, J.; et al. J. Am. Chem. Soc. 1961, 83, 2315-2320.
20. Кнунянц, И.Л. Успехи химии фтора. 1967, 36, 1234-1267.
21. Sheppard, W.A.; Sharts, C.M. Organic Fluorine Chemistry. W.A. Benjamin: New York, 1969.
22. Kobayashi, Y.; Kumadaki, I. Acc. Chem. Res. 1981, 14, 76-82.
23. Smart, B.E. J. Fluorine Chem. 2001, 109, 3-11.
24. Jeschke, P. ChemBioChem. 2004, 5, 570-589.

ISSN 3030-3907

25. Hird, M. Polymer. 2007, 48, 1-9.
26. Тиворский, В.И.; Станишевский, Л.С. Ж. Орг. Хим. 1980, 16, 1989-1995.

ISSN 3030-3907

ECONOMIC EFFICIENCY ANALYSIS OF A CORROSION INHIBITOR SYNTHESIZED FROM LINEAR ALKYLBENZENE SULFONIC ACID, UREA, AND PHOSPHORIC ACID FOR THE OIL AND GAS INDUSTRY

Nazarov Sardor
Bukhara State Technical University, Department of Chemistry Technology
1st course of master degree
Yaxshiyeva Go`zal
Bukhara State Technical University, Department of Chemistry Technology
1st course of master degree
Berdiyev Sunnat
Bukhara State Technical University, Department of Chemistry Technology
Independent researcher
Olimov Bobir Bahodirovich
Bukhara State Technical University, Department of Chemistry Technology
Associate professor

Abstract. Corrosion of metallic equipment in acidic environments causes significant economic losses in the oil and gas sector. This paper presents an economic efficiency analysis of a recently synthesized corrosion inhibitor obtained from linear alkylbenzene sulfonic acid (LABSA), urea, and phosphoric acid, designated bis(ammonium)urea dodecylbenzenesulfonate dihydrogen phosphate salt (BDDP). The inhibitor is prepared from locally available raw materials in a simple four-stage process with a 92% yield and exhibits a corrosion protection efficiency of up to 93.2% in 15% hydrochloric acid at a dosage of 300 mg/L, with an experimentally determined molecular weight of 488.1 g/mol. Using current market prices, the raw-material cost of producing one tonne of the inhibitor was calculated at approximately 10.94 million UZS (≈ 10,942 UZS/kg), and the total ex-works production cost at approximately 14.49 million UZS per tonne. Compared with imported analogues (Pachem-C101 and PuRO-Tech iChem 1011 A, priced at ≈ 24.59 and ≈ 29.56 million UZS per tonne), the synthesized inhibitor is roughly 2–3 times cheaper, confirming its strong import-substitution and commercialization potential.

Keywords: corrosion inhibitor, LABSA, urea, phosphoric acid, economic efficiency, cost analysis, import substitution, oil and gas.

Аннотация. Коррозия металлического оборудования в кислотных средах приводит к значительным экономическим потерям в нефтегазовом секторе. В данной работе представлен анализ экономической эффективности недавно синтезированного ингибитора коррозии, полученного из линейной алкилбензолсульфоновой кислоты (ЛАБСК), мочевины и фосфорной кислоты и обозначенного как соль бис(аммоний)мочевины

додецилбензолсульфоната дигидрофосфата (BDDP). Ингибитор получают из местного доступного сырья в простом четырёхстадийном процессе с выходом 92% ; он проявляет эффективность противокоррозионной защиты до 93,2% в 15%-ной соляной кислоте при дозировке 300 мг/л и имеет экспериментально определённую молекулярную массу 488,1 г/моль. На основе текущих рыночных цен стоимость сырья для производства одной тонны ингибитора рассчитана приблизительно в 10,94 млн сум (≈ 10 942 сум/кг), а полная себестоимость производства на условиях франко-завод — приблизительно в 14,49 млн сум за тонну. По сравнению с импортными аналогами (Pachem-C101 и PuRO-Tech iChem 1011 A стоимостью ≈ 24,59 и ≈ 29,56 млн сум за тонну) синтезированный ингибитор примерно в 2–3 раза дешевле, что подтверждает его значительный потенциал импортозамещения и коммерциализации.

Ключевые слова: ингибитор коррозии, ЛАБСК, мочевина, фосфорная кислота, экономическая эффективность, анализ затрат, импортозамещение, нефть и газ.

Annotatsiya. Kislotali muhitda metall uskunalarning korroziyasi neft-gaz sohasida sezilarli iqtisodiy yo‘qotishlarga olib keladi. Ushbu ishda chiziqli alkilbenzolsulfon kislotasi (LABSK), karbamid va fosfor kislotasidan olingan va bis(ammoniy) tuzi sifatida belgilangan yangi sintezlangan korroziya ingibitorining iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan.karbamid dodetsilbenzolsulfonat dihidrogenfosfat (BDDP). Inhibitor mahalliy mavjud xomashyodan oddiy to‘rt bosqichli jarayonda 92% hosil bilan olinadi; U 300 mg/l dozada 15% li xlorid kislotada 93,2% gacha korroziyaga qarshi himoya samaradorligini namoyon etadi va eksperimental tarzda aniqlangan molekulyar massasi 488,1 g/mol ga teng. Joriy bozor narxlari asosida bir tonna ingibitor ishlab chiqarish uchun xomashyo qiymati taxminan 10,94 million so‘m (≈ 10 942 so‘m/kg), zavod shartlarida ishlab chiqarishning to‘liq tannarxi esa taxminan 14,49 million so‘m/tonna deb hisoblandi. Import qilingan analoglar bilan taqqoslaganda (pachem-C101 va puro-Tech iChem 1011 a qiymati ≈ 24,59 va ≈ 29,56 million so'm / tonna) sintez qilingan Inhibitor taxminan 2-3 baravar arzon, bu uning import o'rnini bosish va tijoratlashtirish imkoniyatlarini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: korroziya ingibitori, LABSK, karbamid, fosfor kislotasi, iqtisodiy samaradorlik, xarajatlar tahlili, import o‘rnini bosish, neft va gaz.

1. INTRODUCTION.

Corrosion is the degradation of metals through chemical or electrochemical interaction with their environment, and it leads to substantial economic losses in industry. Pipelines, storage tanks, heat exchangers, and other equipment operating in acidic media, such as the hydrochloric acid solutions used in well acidizing, are

ISSN 3030-3907

particularly vulnerable. Corrosion inhibitors are the most practical and cost-effective means of slowing this destructive process.

In recent years, attention has shifted toward environmentally safe, inexpensive, and water-soluble inhibitors based on novel components, as many traditional inhibitors contain heavy metals or chlorinated organic compounds that restrict their use. A novel inhibitor synthesized from LABSA, urea, and phosphoric acid (BDDP) was recently reported to combine high inhibitive performance with synthesis from locally available raw materials [1]. While its synthesis and anti-corrosion properties have been characterized, a detailed assessment of its production economics is required to judge its industrial viability. The present work therefore evaluates the economic efficiency of producing the BDDP inhibitor from local raw materials and compares its cost with that of imported analogues.

2. MATERIALS AND METHODS.

The inhibitor was synthesized from LABSA (97%), urea (99%), phosphoric acid (85%), and distilled water in four stages under simple laboratory conditions, yielding a brown, homogeneous, water-soluble viscous liquid with a reaction yield of 92% [1]. The molecular weight was determined by the cryoscopic method, and the inhibitive performance was evaluated gravimetrically on mild-steel coupons immersed for 300 hours in 15% HCl at inhibitor dosages of 100–300 mg/L; the protection efficiency (Z) and corrosion rate were obtained from the mass-loss data.

For the economic assessment, the raw-material requirement per tonne of product was obtained by scaling the laboratory synthesis recipe (LABSA : urea : 85% phosphoric acid : water = 400 : 200 : 150 : 100 by mass). Unit prices reflect international market data for the period Q4 2025–Q2 2026 (LABSA ≈ USD 1,300/t; urea ≈ USD 400/t; 85% phosphoric acid ≈ USD 1,000/t), converted to Uzbek som at the June 2026 reference rate of ≈ 12,100 UZS/USD. The total production cost was then built up from materials, labour, social contributions, overheads, and contingency, with taxes (7%) and profit (5%) added in accordance with standard cost-accounting practice. Imported-analogue prices were taken from procurement and market data reported for these products.

3. RESULTS AND DISCUSSION.

3.1. Inhibitor identity and performance. The molecular weight of the synthesized compound, determined by the cryoscopic method, was 488.1 g/mol, in close agreement with the theoretical value of 484 g/mol (relative error 0.85%; accuracy 99.15%). Owing to its ionic structure, the compound was named bis(ammonium)urea dodecylbenzenesulfonate dihydrogen phosphate salt

ISSN 3030-3907

(BDDP). The dependence of the corrosion protection efficiency on inhibitor concentration is summarized in Table 1.

Table 1.

Corrosion inhibition efficiency of the synthesized inhibitor (mild steel, 15% HCl, 300 h)

Inhibitor concentration, mg/L	Corrosion rate, K	Protection efficiency, Z (%)
Blank (no inhibitor)	1.31	—
100	0.313	76.1
150	0.255	80.5
200	0.156	88.1
250	0.135	89.7
300	0.085	93.2

The protection efficiency rose steadily with concentration and reached a maximum of 93.2% at 300 mg/L, confirming the high inhibitive performance that underpins the economic case for the product.

3.2. Raw-material cost. The raw-material cost of producing one tonne of the inhibitor is detailed in Table 2. The calculated value of ≈ 10.94 million UZS per tonne (≈ 10,942 UZS/kg) is fully consistent with the previously reported figure of approximately 11,000 UZS/kg [1].

Table 2.

Raw-material cost for producing 1 tonne of the BDDP inhibitor

Raw material	Unit price, UZS/kg	Amount per 1 t, kg	Cost, UZS
LABSA (97%)	16,000	470.6	7,529,600
Urea (99%)	5,000	235.3	1,176,500
Phosphoric acid (85%)	12,000	176.5	2,118,000
Distilled water	1,000	117.6	117,600
Total	—	**1,000.0**	**10,941,700**

3.3. Production cost structure. Adding labour, overheads, taxes, and profit to the raw-material cost gives the full ex-works production cost shown in Table 3. The total cost is approximately 14.49 million UZS per tonne (≈ 14,490 UZS/kg, or about USD 1,198/t).

ISSN 3030-3907

Table 3.

Production cost structure for 1 tonne of the BDDP inhibitor

Cost item	Cost, UZS
Raw materials	10,941,700
Labour (wages)	800,000
Social contributions (12%)	96,000
Overheads (energy, equipment, utilities)	890,000
Contingency	210,000
Production cost (subtotal)	**12,937,700**
Taxes (7%)	905,639
Profit (5%)	646,885
Total ex-works cost	**14,490,224**

3.4. Comparison with imported analogues. Table 4 compares the cost of the BDDP inhibitor with two imported products commonly used in the oil and gas sector. On a total-cost basis the synthesized inhibitor is about 41% cheaper than Pachem-C101 and about 51% cheaper than PuRO-Tech iChem 1011 A; on a raw-material basis it is roughly 2.2–2.7 times cheaper, in line with the reported 2–3-fold advantage over global market prices.

Table 4.

Cost comparison of the BDDP inhibitor with imported analogues (per tonne)

Inhibitor	Cost, mln UZS/t	UZS/kg	≈ USD/t
BDDP — raw materials	10.94	10,942	≈ 904
BDDP — total ex-works	14.49	14,490	≈ 1,198
Pachem-C101 (imported)	24.59	24,587	≈ 2,032
PuRO-Tech iChem 1011 A (imported)	29.56	29,558	≈ 2,443

Установлено, что концентрация NaOH, температура и продолжительность обработки существенно влияют на выход лигноцеллюлозного продукта. Оптимальным режимом выбран процесс при 5% NaOH, 80 °C и продолжительности 180 минут. При этих условиях выход продукта составил 55,8%, что соответствует балансу между эффективностью делигнификации и сохранением полисахаридной основы.

FTIR-анализ показал наличие O-H, C-H, C-O-C и β-1,4-гликозидных связей, характерных для целлюлозосодержащих материалов. Уменьшение интенсивности сигналов, связанных с лигнином, свидетельствует об эффективности химической обработки. SEM-анализ подтвердил формирование пористой, шероховатой и волокнистой морфологии, благоприятной для последующего использования материала в сорбционных и композиционных системах. DLS-анализ показал, что суспензия лигноцеллюлозы является высокополидисперсной и содержит частицы различного размерного уровня, от нано- и субмикронных фрагментов до крупных агрегатов. Это необходимо учитывать при разработке композитов, гидрогелей и сорбентов на основе данного материала.

В качестве практического предложения целесообразно продолжить исследования по определению сорбционной активности полученной лигноцеллюлозы по отношению к органическим красителям, ионам металлов и другим загрязнителям. Дополнительно рекомендуется провести сравнительный анализ образцов, полученных при разных соотношениях растворителя и воды в organosolv-системе, а также оценить термическую устойчивость и удельную поверхность материала.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Kumar P., Barrett D.M., Delwiche M.J., Stroeve P. Methods for pretreatment of lignocellulosic biomass for efficient hydrolysis and biofuel production // Industrial & Engineering Chemistry Research. 2009. Vol. 48, No. 8. P. 3713-3729.
2. Sun Y., Cheng J. Hydrolysis of lignocellulosic materials for ethanol production: a review // Bioresource Technology. 2002. Vol. 83, No. 1. P. 1-11.
3. Isikgor F.H., Becer C.R. Lignocellulosic biomass: a sustainable platform for the production of bio-based chemicals and polymers // Polymer Chemistry. 2015. Vol. 6. P. 4497-4559.

ISSN 3030-3907

4. Kim J.S., Lee Y.Y., Kim T.H. A review on alkaline pretreatment technology for bioconversion of lignocellulosic biomass // Bioresource Technology. 2016. Vol. 199. P. 42-48.
5. Nair L.G., Agrawal K., Verma P. Organosolv pretreatment: an in-depth purview of mechanics of the system // Bioresources and Bioprocessing. 2023.
6. Segers B., Nimmegeers P., Spiller M., Tofani G., Jasiukaityte E., Dace E., Kikas T., Marchetti J.M. Lignocellulosic biomass valorisation: a review of feedstocks, processes and potential value chains and their implications for the decision-making process // RSC Sustainability. 2024.
7. Barros D., Sousa S., Ferreira I.C.F.R., et al. The chemical characterisation of the maritime pine bark (Pinus pinaster Aiton subsp. atlantica) // Plants. 2023. Vol. 12, No. 23. Article 3940.
8. Md Salim R., Asik J., Sarjadi M.S. Chemical functional groups of extractives, cellulose and lignin extracted from native Leucaena leucocephala bark // Wood Science and Technology. 2021.
9. Tarrés Q., Aguado R., Zoppe J.O., Mutjé P., Fiol N., Delgado-Aguilar M. Dynamic Light Scattering Plus Scanning Electron Microscopy: usefulness and limitations of a simplified estimation of nanocellulose dimensions // Nanomaterials. 2022. Vol. 12, No. 23. Article 4288.
10. Segal L., Creely J.J., Martin A.E., Conrad C.M. An empirical method for estimating the degree of crystallinity of native cellulose using the X-ray diffractometer // Textile Research Journal. 1959. Vol. 29, No. 10. P. 786-794.

ISSN 3030-3907

GIPOMAGNIT MAYDONNING DORIVOR YALPIZDA MENTOL HOSILDORLIGI VA FOTOSINTETIK FAOLLIKKA TA'SIRI

Dilnura Saidqulova
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Pedagogika va psixologiya fakulteti 1-bosqich talabasi.
Anvarjon Buronov
Samarqand davlat tibbiyot universiteti Biotexnologiya, muhandislik va farmatsiya fakulteti assistenti.
E-mail: anvarjon4488@gmail.com

Annotatsiya. Yerning geomagnit maydoni (*GMF*) o'simliklar hayotida ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan muhim ekologik omil hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda GMF ni sun'iy ravishda kamaytirish (gipomagnit maydon, *hMF*) yaltiz (*Mentha piperita*) o'simligining fiziologik va metabolik jarayonlariga qanday ta'sir qilishi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, *hMF* sharoitida mentol miqdori sezilarli darajada kamaygan, garchi mentol biosintezidagi asosiy genlarning ifodasi kuchaygan bo'lsa-da. Fotosintetik samaradorlik pasaygan, buning natijasida o'simlik resurslarini qayta taqsimlab, himoya mexanizmlarini faollashtirgan. *GMF* o'simlik metabolizmini nozik sozlovchi muhim omil ekanligi aniqlandi.

Kalit so'zlar: geomagnit maydon, yaltiz, mentol, fotosintez, flavonoidlar, reaktiv kislorod turlari, gen ifodasi.

Аннотация. Геомагнитное поле Земли (*GMF*) является важным экологическим фактором, часто недооцениваемым в физиологии растений. В данном исследовании изучалось влияние искусственного уменьшения GMF (гипомагнитное поле, *hMF*) на мяту перечную (*Mentha piperita*). Результаты показали, что в условиях *hMF* содержание ментола значительно снижается, несмотря на парадоксальное усиление экспрессии ключевых генов его биосинтеза. Снижение эффективности фотосинтеза приводит к перераспределению ресурсов в пользу защитных механизмов. Установлено, что *GMF* является важным фактором тонкой регуляции метаболизма растений.

Ключевые слова: геомагнитное поле, мята перечная, ментол, фотосинтез, флавоноиды, активные формы кислорода, экспрессия генов.

Abstract. The Earth's geomagnetic field (*GMF*) is rarely considered a major environmental regulator of plant physiology. This study investigated the effects of a reduced *GMF* (hypomagnetic field, *hMF*) on peppermint (Mentha piperita). Our results show that *hMF* significantly reduces menthol content, despite the paradoxical upregulation of key menthol biosynthesis genes. Photosynthetic efficiency is impaired, as evidenced by lower PSII parameters and reduced photochemical quenching under high light. The plant adjusts its reactive oxygen

ISSN 3030-3907

species (ROS) homeostasis by increasing ROS generation and detoxification, leading to reduced steady-state H_2O_2 levels. These changes are associated with a significant decrease in total photoprotective phenolic compounds. Our findings establish the *GMF* as a critical, fine-tuning factor regulating peppermint‘s metabolic homeostasis.

Keywords: geomagnetic field, peppermint, menthol, photosynthesis, flavonoids, reactive oxygen species, gene expression.

KIRISH.

Yerning geomagnit maydoni (*GMF*) nafaqat ko‘chib yuruvchi hayvonlar uchun yo‘l ko‘rsatuvchi vosita, balki butun tirik dunyoni zararli kosmik va quyosh radiatsiyasidan himoya qiluvchi muhim qalqon vazifasini ham bajaradi [1]. *GMF* doimiy emas – uning qutblari vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib turadi, hatto to‘liq qutblanish inversiyasi ham sodir bo‘lishi mumkin [2]. So‘nggi yillarda o‘simliklar *GMF* ning o‘zgarishlarini abiotik stress sifatida sezishi va ularga javoban fiziologik va metabolik o‘zgarishlar bilan munosabat bildirishi aniqlangan [3].

O‘zbekistonda ham yaltiz (*Mentha piperita*) kabi efir moyli o‘simliklar qishloq xo‘jaligida muhim ahamiyatga ega. Yaltiz efir moyi tarkibidagi mentol va boshqa terpenoidlar farmatsevtika, oziq-ovqat va kosmetika sanoatida keng qo‘llaniladi [4]. Shu sababli, *GMF* kabi noyob ekologik omillarning yaltiz metabolizmiga ta’sirini o‘rganish nafaqat fundamental fan, balki amaliy jihatdan ham dolzarb hisoblanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi – *GMF* ni sun’iy ravishda kamaytirish (gipomagnit maydon, *hMF*) yaltiz o‘simligining fotosintetik samaradorligi, terpenoid va flavonoid biosintezi, shuningdek, reaktiv kislorod turlari (ROS) gomeostaziga qanday ta’sir qilishini aniqlash. Ilmiy yangilik – *GMF* ning o‘simlik metabolizmini nozik sozlashdagi roli birinchi marta kompleks fizologik va molekulyar darajada o‘rganilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Dunyo miqyosida o‘rganishlar holati. Geomagnit maydonning biologik ta’sirlari kvant biologiyasi bilan bog‘liq holda o‘rganilmoqda [5]. Ma’lumki, o‘simliklar magnit maydon o‘zgarishlariga ildiz o‘sishi, gullash vaqti va gen ifodasidagi o‘zgarishlar bilan javob beradi [6]. Masalan, Arabidopsis thaliana da *GMF* ning kamayishi gullash vaqtini kechiktirishi aniqlangan [7]. Biroq, aromatik o‘simliklarda, xususan, terpenoid metabolizmiga *GMF* ta’siri deyarli o‘rganilmagan.

Yaltiz efir moyi tarkibi suv tangisligi [8], og‘ir metallar [9] va tuz stressi [10] kabi omillar ta’sirida o‘zgarishi ma’lum. Biroq, magnit maydonning bevosita ta’siri haqidagi ma’lumotlar juda kam. Masalan, Parmagnani va boshq. (2022) [11] *hMF* sharoitida Arabidopsis da ROS gomeostazining o‘zgarishini qayd

ISSN 3030-3907

etganlar, biroq terpenoidlarga ta’sirini o‘rganmaganlar.

O‘zbekiston sharoitida olib borilgan tadqiqotlar. O‘zbekistonda magnit maydonlarning o‘simliklarga ta’siri bo‘yicha tadqiqotlar juda cheklangan. Asosan, magnitlangan suvning o‘simliklarning o‘sishi va rivojlanishiga ta’siri o‘rganilgan bo‘lsa-da, geomagnit maydonning bevosita o‘zgarishlari (masalan, *hMF*) bo‘yicha ilmiy ishlar mavjud emas. Shu sababli, ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekiston olimlari uchun qimmatli bo‘lib, ularni mahalliy sharoitda takrorlash va moslashtirish istiqbolli hisoblanadi. Asosiy bo‘shliq – *GMF* ning terpenoid biosinteziga ta’sir mexanizmlari hali to‘liq ochilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Tadqiqot turi: Eksperimental, *in vitro* va *ex situ* sinovlarni o‘z ichiga olgan laboratoriya tadqiqoti.

Ob’yekt: O‘zbekistonning Samarqand hududidan olingan *Mentha piperita* L. (‘Black Mitcham’ navi) yaltiz o‘simligi.

Predmet: hMF sharoitida yaltizning fotosintez samaradorligi, terpenoid va flavonoid tarkibi, ROS gomeostazi va tegishli genlarning ifodasi.

Asosiy metodlar:

1. *Gipomagnit maydon (hMF) yaratish:* Uch o‘qli Helmholtz g‘altaklari tizimi yordamida *GMF* ~50 μT dan ~50 nT gacha (taxminan 1000 marta) kamaytirilgan. O‘simliklar 4 hafta davomida *hMF* yoki normal *GMF* (nazorat) sharoitida o‘stirilgan.

2. *Efir moyi tahlili:* Gidrodistillatsiya, so‘ng gaz xromatografiyasi (*GC-FID*) va GC-mass-spektrometriya (*GC-MS*) yordamida terpenoidlar aniqlangan [12].

3. *Trichoma zichligi:* Peltat trichomalar (terpenoid sintezi joyi) stereomikroskop yordamida hisoblangan [13].

4. *Fotosintetik pigmentlar va samaradorlik:* Xlorofillar va karotinoidlar spektrofotometrik usulda aniqlandi [14]. Fotosintez samaradorligi OJIP, NPQ va PAM florometriyasi yordamida baholangan.

5. *Flavonoid tahlili:* Yuqori samarali suyuq xromatografiya (*HPLC*) bilan bog‘langan DAD va ESI-MS/MS tizimida o‘tkazilgan [15].

6. *Statistik tahlil:* Ma’lumotlar o‘rtacha ± standart og‘ish sifatida taqdim etilgan. Guruhlar o‘rtasidagi farqlar bir o‘lchovli ANOVA va Tukey post-hoc testi bilan baholangan ($p < 0.05$). Klaster tahlili va bosh komponentlar tahlili (PCA) ham o‘tkazilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

hMF mentol miqdorini kamaytiradi, ammo gen ifodasini oshiradi.

Efir moyi tahlili shuni ko‘rsatdiki, hMF sharoitida efir moyining umumiy chiqishi o‘zgarmagan, biroq mentol miqdori sezilarli darajada kamaygan

ISSN 3030-3907

(hMF/GMF nisbati = 0,57; 1-jadval). Ayrim kichik monoterpenlar (masalan, sabinen, β-pinen, p-simen) esa aksincha, bir necha baravar ko‘paygan. Mentol/menton nisbati hMF da sezilarli darajada past bo‘lgan, bu menton reduktaza fermenti faolligining pasayishidan dalolat beradi.


1-jadval.

Yaltiz efir moyining asosiy komponentlari GMF va hMF sharoitida (mg/kg quruq vazn).

Birikma	GMF	hMF	hMF/GMF nisbati
Mentol	1037,62 ± 106,64	586,49 ± 61,81	0,57 *
Menton	4108,8 ± 422,49	4274,46 ± 505,67	1,04
Menthofuran	2128,31 ± 179,05	1790,79 ± 218,4	0,84
Pulegon	1480,76 ± 262,97	1606,73 ± 249,46	1,09
Sabinen	9,82 ± 0,87	51,88 ± 2,84	5,28 *

– p < 0,05 (GMF ga nisbatan farq statistik ahamiyatli)

Qiziqarli jihati shundaki, *hMF* sharoitida mentol biosintezidagi asosiy genlar – DXS, IspE, LS, L3OH, PR, MR va hatto menthofuran sintezasi (MFS) – sezilarli darajada yuqori ifodalangan (1-rasm). Bu paradoks – gen ifodasining kuchayishi, ammo metabolit miqdorining kamayishi – transkripsiyadan keyingi bosqichda (masalan, ferment faolligining pasayishi yoki kofaktor yetishmovchiligi) muammo borligini ko‘rsatadi. Peltat trichomalar zichligi o‘zgarmagan, shuning uchun o‘zgarishlar metabolik, morfologik emas.



***1-rasm. Yalpizda terpenoid biosintez genlarining ifodasi (Log₂ hMF/GMF).* Ijobiy qiymatlar hMF da ifodaning kuchayishini, manfiy qiymatlar esa pasayishini bildiradi. DXS, LS, L3OH va MFS kabi genlar sezilarli darajada yuqori ifodalangan (p < 0,05).**

hMF flavonoid metabolizmini o‘zgartiradi. hMF sharoitida umumiy fenolik birikmalar miqdori (TPC) sezilarli darajada kamaygan. HPLC-ESI-MS/MS tahlili 80 dan ortiq flavonoid aglikon va glikozidlarni aniqlagan. Katexin, dihidrokempferol, dihidromiritsetin va dihidrokversetin *hMF* da ko‘proq bo‘lsa,

ISSN 3030-3907

ramnetin, kversetin, naringenin va kempferol *GMF* da ko‘proq bo‘lgan. Glikozidlanish darajasi o‘zgargan – *hMF* da diglukozidlar, arabinozidlar va glyukuronidlar ko‘paygan. Bu GMF ning glikoziltransferaza fermentlari faolligini modulyatsiya qilishini ko‘rsatadi.

hMF ROS gomeostazini modulyatsiya qiladi. hMF da H_2O_2 ning barqaror konsentratsiyasi *GMF* ga nisbatan sezilarli darajada past bo‘lgan. ROS ishlab chiqaruvchi gen RBOHD *hMF* da yuqori ifodalangan bo‘lsa, H_2O_2 ni parchalovchi katalaza (*CAT*) past ifodalangan. Buning o‘rniga, askorbat peroksidaza (*APX2*) – sitozolik, stress bilan induksiyalanadigan ferment – kuchli yuqori ifodalangan. *SOD1* ifodasi o‘zgarmagan. Bu shuni ko‘rsatadiki, *hMF* da o‘simlik ROS gomeostazini o‘zgartirgan: *RBOHD* orqali ROS ishlab chiqarish kuchaygan, ammo *APX2* orqali samarali detoksifikatsiya qilish tufayli H_2O_2 ning barqaror miqdori past bo‘lgan.

Metabolik kompromiss: himoya yoki hosildorlik?

Umumiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, *hMF* o‘simlikda bir qator o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi: fotosintez samaradorligi pasayadi, bu NADPH ishlab chiqarilishini kamaytiradi; NADPH ning kamayishi o‘z navbatida menton reduktaza fermenti faolligini cheklab, mentol sintezini inhibe qiladi. Shu bilan birga, o‘simlik APX2 ni kuchaytirib, ROS detoksifikatsiyasiga ko‘proq resurs sarflaydi. Bu esa flavonoidlar (fotoprotektorlar) sinteziga yo‘naltiriladigan uglerod va energiyaning kamayishiga olib keladi. Natijada, o‘simlik qisqa muddatli himoyani (ROS detoksifikatsiyasi) uzoq muddatli samaradorlik va hosildorlikdan (mentol, flavonoidlar) ustun qo‘yadi – bu klassik metabolik kompromiss (trade-off) hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Ushbu tadqiqot asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

1. Yerning geomagnit maydoni (*GMF*) yaltiz o‘simligi metabolizmini nozik sozlovchi muhim ekologik omil ekanligi aniqlandi. *GMF* ning kamayishi (*hMF*) o‘simlikda sistematik fiziologik va metabolik o‘zgarishlarga olib keladi.
2. *hMF* sharoitida mentol miqdori kamayadi, ammo uning biosintezidagi asosiy genlar paradoksal ravishda yuqori ifodalanadi. Bu transkripsiyadan keyingi bosqichda (ferment faolligining pasayishi) uzilish borligini ko‘rsatadi.
3. *hMF* fotosintez samaradorligini pasaytiradi (F_0, F_j, Fm, Fv, ΦPSII), ayniqsa yuqori yorug‘lik sharoitida. Bu NADPH yetishmovchiligiga va mentol sintezining keyingi bosqichlarining inhibisiyasiga olib keladi.
4. *hMF* da o‘simlik ROS gomeostazini o‘zgartiradi: *APX2* orqali samarali detoksifikatsiya qilish hisobiga H_2O_2 ning barqaror konsentratsiyasi pasayadi, ammo bu resurslarni flavonoid sintezidan chalg‘itadi.
5. *hMF* yaltizda himoya mexanizmlari (ROS detoksifikatsiyasi) va hosildorlik

ISSN 3030-3907

(mentol va flavonoid sintezi) o‘rtasida metabolik kompromissni keltirib chiqaradi.

Amaliy takliflar:

- O‘zbekiston sharoitida yaltiz va boshqa efir moyli o‘simliklarni (rayhon, yalpiz) yetishtirishda *GMF* o‘zgarishlarini (masalan, sun’iy magnit maydonlar yordamida) boshqarish orqali kerakli metabolitlar (mentol, karvon) sintezini kuchaytirish imkoniyatlari o‘rganilsin.
- *hMF* ning o‘simliklarga uzoq muddatli ta’siri va hujayra darajasidagi mexanizmlarini (masalan, magnitoreseptorlarni) aniqlash bo‘yicha fundamental tadqiqotlar tashkil etilsin.
- Qishloq xo‘jaligi amaliyotida magnit maydonlarni (masalan, magnitlangan suv, magnit maydonli issiqxonalar) qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi va ekologik xavfsizligi baholansin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mannino G, Caldo F, Maffei ME. Reduced geomagnetic field modulates photosynthetic electron flow, menthol yield, flavonoid photoprotection and ROS homeostasis in peppermint (Mentha × piperita L.). *Plant Physiology and Biochemistry*. 2026;233:111213. doi: 10.1016/j.plaphy.2026.111213
2. Valet J, Fournier A. Deciphering records of geomagnetic reversals. *Reviews of Geophysics*. 2016;54(2):410-446. doi: 10.1002/2015rg000506
3. Hafeez MB, Zahra N, Ahmad N, et al. Growth, physiological, biochemical and molecular changes in plants induced by magnetic fields: a review. *Plant Biology*. 2023;25(1):8-23. doi: 10.1111/plb.13459
4. Salehi B, Stojanovic-Radic Z, Matejic J, et al. Plants of genus Mentha: from farm to food factory. *Plants*. 2018;7(3):70. doi: 10.3390/plants7030070
5. Maffei ME. Plant quantum biology: the quantum dimension of plant responses to stress. *Plant Stress*. 2025;17:100930. doi: 10.1016/j.stress.2025.100930
6. Maffei ME. Magnetoreception in plants. In: Shoogo U, Tsukasa S, editors. *Bioelectromagnetism. History, Foundations and Applications*. CRC Press; 2022. p. 191-214. doi: 10.1201/9781003181354
7. Agliassa C, Narayana R, Bertea CM, Rodgers CT, Maffei ME. Reduction of the geomagnetic field delays Arabidopsis thaliana flowering time through downregulation of flowering-related genes. *Bioelectromagnetics*. 2018;39(5):361-374. doi: 10.1002/bem.22123
8. Abdi G, Shokrpour M, Salami S. Essential oil composition at different plant growth development of peppermint (Mentha x piperita L.) under water deficit stress. *Journal of Essential Oil Bearing Plants*. 2019;22(2):431-440. doi: 10.1080/0972060x.2019.1581095
9. Azimychetabi Z, Nodehi M, Moghadam T, Motesharezadeh B. Cadmium stress

alters the essential oil composition and the expression of genes involved in their synthesis in peppermint (Mentha piperita L.). *Industrial Crops and Products*. 2021;168:113602. doi: 10.1016/j.indcrop.2021.113602

10. Caldo F, Mannino G, Maffei ME. Salt stress re-routes terpenoid and flavonoid metabolism in peppermint (Mentha x piperita L.). *Physiologia Plantarum*. 2025;177:e70694. doi: 10.1111/ppl.70694

11. Parmagnani AS, Mannino G, Maffei ME. Transcriptomics and metabolomics of reactive oxygen species modulation in near-null magnetic field-induced Arabidopsis thaliana. *Biomolecules*. 2022;12(12):1824. doi: 10.3390/biom12121824

12. Bicchi C, Maffei M. The plant volatile: methods of analysis. In: Normanly J, editor. *High-Throughput Phenotyping in Plants: Methods and Protocols*. Humana Press; 2012. p. 289-310. doi: 10.1007/978-1-61779-995-2_15

13. Maffei M, Chialva F, Sacco T. Glandular trichomes and essential oils in developing peppermint leaves. *New Phytologist*. 1989;111(4):707-716. doi: 10.1111/j.1469-8137.1989.tb02366.x

14. Lichtenthaler H, Wellburn A. Determination of total carotenoids and chlorophylls A and B of leaf in different solvents. *Biochemical Society Transactions*. 1983;11(5):591-592. doi: 10.1042/bst0110591

15. Mannino G, Kunz R, Maffei ME. Discrimination of green coffee (Coffea arabica and Coffea canephora) of different geographical origin based on antioxidant activity, high-throughput metabolomics, and DNA RFLP fingerprinting. *Antioxidants*. 2023;12(5):1135. doi: 10.3390/antiox12051135

16. Maffei M, Scannerni S. UV-B effect on photomorphogenesis and essential oil composition in peppermint (Mentha piperita L.). *Journal of Essential Oil Research*. 2000;12(5):523-529. doi: 10.1080/10412095.2000.9712150

ISSN 3030-3907

TEXNOLOGIK JARAYONLARNI AVTOMATLASHTIRISHDA NEYRON TARMOQLARNI O‘QITISH QOIDALARINI QO‘LLASH

Sabirov Ulug‘bek Kuchkarovich
Andijon davlat texnika instituti, “Intellektual boshqaruv va robototexnika” kafedrasi professori i.f.n.
E-mail: uqsabirovasu1951@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishda sun’iy neyron tarmoqlarni o‘qitish qoidalarining qo‘llanilishi o‘rganilgan. Neyron tarmoqlarning asosiy o‘qitish algoritmlari — gradient tushish, xatolikni minimallashtirish, Hebb o‘qitish qoidasi hamda backpropagation algoritmi tahlil qilindi. Tadqiqotda texnologik jarayonlarni boshqarish misolida neyron tarmoqlarning ishlash prinsipi va ularni o‘qitish jarayoni ko‘rib chiqildi. Shuningdek, sanoat jarayonlarini modellashtirish va optimallashtirishda neyron tarmoqlarning samaradorligi ilmiy manbalar asosida baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, neyron tarmoqlar murakkab va nochiziqli texnologik tizimlarni modellashtirish va boshqarishda samarali vosita hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: neyron tarmoq, texnologik jarayon, avtomatlashtirish, mashinaviy o‘rganish, backpropagation, adaptiv boshqaruv.

Аннотация. В данной статье исследуется применение правил обучения искусственных нейронных сетей при автоматизации технологических процессов. Проанализированы основные алгоритмы обучения нейронных сетей — градиентный спуск, минимизация ошибки, правило обучения Хебба и алгоритм обратного распространения ошибки (backpropagation). В исследовании на примере управления технологическими процессами рассмотрены принцип работы нейронных сетей и процесс их обучения. Кроме того, на основе научных источников оценена эффективность нейронных сетей при моделировании и оптимизации промышленных процессов. Результаты исследования показывают, что нейронные сети являются эффективным инструментом для моделирования и управления сложными и нелинейными технологическими системами.

Ключевые слова: нейронная сеть, технологический процесс, автоматизация, машинное обучение, backpropagation, адаптивное управление.

Abstract. This article examines the application of artificial neural network training rules in the automation of technological processes. The main neural network training algorithms — gradient descent, error minimization, the Hebbian learning rule, and the backpropagation algorithm — are analyzed. The study considers the operating principles of neural networks and their training process using the example of technological process control. In addition, the effectiveness

ISSN 3030-3907

of neural networks in modeling and optimizing industrial processes is evaluated based on scientific sources. The research results show that neural networks are an effective tool for modeling and controlling complex and nonlinear technological systems.

Keywords: neural network, technological process, automation, machine learning, backpropagation, adaptive control.

KIRISH.

Sanoat jarayonlarini avtomatlashtirish zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Murakkab texnologik jarayonlarni boshqarishda an'anaviy matematik modellar ko'pincha yetarli aniqlikni ta'minlay olmaydi. Buning asosiy sababi ko'plab texnologik tizimlarning nochiziqli, ko'p parametrli va dinamik xarakterga ega bo'lishidir.

So'nggi yillarda ushbu muammolarni hal qilish uchun sun'iy neyron tarmoqlar (Artificial Neural Networks – ANN) keng qo'llanilmoqda. Neyron tarmoqlar katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, yashirin bog'lanishlarni aniqlash hamda jarayon parametrlarini optimallashtirish imkonini beradi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'p qatlamli neyron tarmoqlar yetarli miqdordagi neyronlar mavjud bo'lganda istalgan murakkab funksiyani yaqinlashtira oladi [1].

Sanoat avtomatlashtirishida neyron tarmoqlar quyidagi vazifalarni bajarishda qo'llaniladi:

- texnologik jarayonlarni modellashtirish;
- jarayon parametrlarini bashorat qilish;
- avariya holatlarini aniqlash;
- adaptiv boshqaruvni amalga oshirish.

Ilmiy tadqiqotlar neyron tarmoqlar kimyo sanoati, energetika, metallurgiya va ishlab chiqarish tizimlarida jarayonlarni identifikatsiya qilish hamda optimal boshqarishda samarali qo'llanilayotganini ko'rsatadi [2].

Ushbu maqolaning maqsadi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishda neyron tarmoqlarni o'qitish qoidalarini tahlil qilish hamda ularning amaliy samaradorligini baholashdan iborat.

MATERIALLAR VA USULLAR.

1. Neyron tarmoq modeli. Ko'p qatlamli perceptron (MLP) modeli quyidagi qatlamlardan tashkil topadi:

- kirish qatlam;
- yashirin qatlamlar;
- chiqish qatlam.

Neyronning matematik modeli quyidagi ko'rinishga ega:

$$y = f\left(\sum_{i=1}^{n} w_i x_i + b\right).$$

ISSN 3030-3907

Bu yerda:

- x_i — kirish signallari;
- w_i — og‘irlik koeffitsiyentlari;
- b — siljitish parametri;
- $f(\cdot)$ — aktivatsiya funksiyasi.

Ushbu model yordamida kirish signallari chiziqli kombinatsiya orqali qayta ishlanadi va aktivatsiya funksiyasi orqali chiqish qiymati hosil qilinadi.

2. Neyron tarmoqlarni o‘qitish algoritmlari.

2.1. Xatolikni minimallashtirish qoidasi. Neyron tarmoq chiqishi bilan kerakli chiqish o‘rtasidagi farq xatolik funksiyasi orqali baholanadi:

$$E = \frac{1}{2}(y_d - y)^2.$$

Bu yerda:

- E — xatolik funksiyasi;
- y_d — kerakli chiqish;
- y — model chiqishi.

Algoritm bosqichlari:

- kirish ma’lumotlari tarmoqqa uzatiladi;
- chiqish qiymati hisoblanadi;
- kerakli qiymat bilan solishtiriladi;
- xatolik aniqlanadi;
- og‘irlik koeffitsiyentlari yangilanadi.

Masalan, kimyoviy reaktorda kerakli harorat 500°C, modelning chiqishi 480°C bo‘lsa, tizim og‘irliklarni shunday yangilaydiki, keyingi iteratsiyada chiqish qiymati kerakli qiymatga yaqinlashadi.

2.2. Gradientli tushish algoritmi. Gradientli tushish algoritmi xatolik funksiyasining gradienti bo‘yicha og‘irliklarni yangilaydi:

$$w_{new} = w_{old} - \eta\frac{\partial E}{\partial w}.$$

Bu yerda:

- w — og‘irlik koeffitsiyenti;
- η — o‘qitish tezligi;
- $\frac{\partial E}{\partial w}$ — xatolik gradienti.

Ushbu algoritm quyidagi bosqichlarda ishlaydi:

- forward propagation;
- xatolikni hisoblash;
- gradientni aniqlash;
- og‘irliklarni yangilash.

ISSN 3030-3907

Masalan, issiqlik almashinuv apparatida bug‘ sarfi, suv harorati va bosim kabi parametrlar asosida chiqish haroratini bashorat qilish mumkin.

2.3. Hebb o‘qitish qoidasi. Hebb qoidasi biologik neyronlarning ishlash prinsipi asosida ishlab chiqilgan. Ushbu qoidaga ko‘ra, agar ikki neyron bir vaqtda faollashsa, ular orasidagi bog‘lanish kuchayadi.

$$\Delta w_{ij} = \eta x_i y_j.$$

Bu yerda:

- x_i — kirish signali;
- y_j — chiqish signali;
- η — o‘rganish koeffitsiyenti.

Masalan, elektr dvigatel monitoring tizimida tok, vibratsiya va harorat sensorlari orqali nosozlik belgilarini aniqlash mumkin.

2.4. Raqobatli o‘qitish algoritmi. Raqobatli o‘qitish algoritmi klasterlash masalalarida qo‘llaniladi. Ushbu usulda kirish signaliga eng yaqin neyron g‘olib bo‘ladi va faqat shu neyron o‘rganadi.

Algoritm bosqichlari:

- kirish vektori beriladi;
- neyronlar orasidagi masofa hisoblanadi;
- eng yaqin neyron aniqlanadi;
- og‘irliklar yangilanadi.

Masalan, gaz turbinalarida ishlash rejimlarini avtomatik klassifikatsiya qilishda qo‘llanilishi mumkin.

2.5. Backpropagation algoritmi. Backpropagation ko‘p qatlamli neyron tarmoqlarni o‘qitishda eng keng tarqalgan algoritm hisoblanadi.

Algoritm bosqichlari:

- forward propagation;
- xatolikni hisoblash;
- xatolik gradientini orqaga uzatish;
- og‘irliklarni yangilash.


Ushbu algoritm gradient tushish usuliga asoslangan bo‘lib, murakkab ko‘p qatlamli tarmoqlarni samarali o‘qitish imkonini beradi [3].

3. Texnologik jarayonlar uchun umumiy o‘qitish sxemasi (1-rasm). Sanoat ishlab chiqarishini avtomatlashtirishida neyron tarmoq asosidagi boshqaruv tizimi quyidagi ketma-ket bosqichlarda ishlaydi:

- sensorlardan ma’lumot yig‘ish;
- ma’lumotlarni oldindan qayta ishlash;
- neyron tarmoq orqali parametrlarni bashorat qilish;
- xatolikni hisoblash;

ISSN 3030-3907

•model parametrlarini yangilash;
•optimal boshqaruv signalini hosil qilish.



1-rasm. Texnologik jarayonlar uchun umumiy o‘qitish sxemasi.

Mazkur sxema texnologik jarayonni yopiq konturli adaptiv boshqaruv tizimi sifatida tashkil etishga imkon beradi. Sensorlardan olingan ma’lumotlar asosida neyron tarmoq jarayon parametrlarini bashorat qiladi. Agar bashorat natijasi bilan kerakli qiymat o‘rtasida farq aniqlansa, tizim og‘irlik koeffitsiyentlarini yangilaydi va boshqaruv signallarini optimallashtiradi. Natijada energiya sarfi kamayadi, mahsulot sifati oshadi va jarayon barqarorligi ta’minlanadi.

NATIJALAR.

O‘tkazilgan tadqiqotlar quyidagi natijalarni ko‘rsatdi:

1. Neyron tarmoqlar murakkab texnologik jarayonlarni yuqori aniqlik bilan modellashtira oladi.

2. Gradientli tushish algoritmi model parametrlarini samarali optimallashtiradi.

3. Backpropagation algoritmi ko‘p qatlamli tarmoqlarni o‘qitishda yuqori samaradorlikka ega.

Ba’zi tadqiqotlarda sanoat jarayonlarida neyron tarmoqlar yordamida bashorat xatoligi 11 % dan 2 % gacha kamaygani qayd etilgan [4].

ISSN 3030-3907

MUHOKAMA. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, neyron tarmoqlar sanoat jarayonlarini boshqarishda katta imkoniyatlarga ega. Masalan:

- neyron tarmoqlar model predictive control tizimlarida qo‘llanilishi mumkin [5];
- kimyoviy reaktorlarni boshqarishda neyron tarmoq asosidagi MPC samarali natija beradi [6];
- energetika tizimlarida barqarorlikni boshqarishda ham keng qo‘llaniladi [7].

Shunga qaramay, ayrim tadqiqotlar neyron tarmoqlarning sanoat jarayonlarida qo‘llanishi ba’zi cheklovlarga ega ekanligini ham ko‘rsatadi. Masalan, ayrim holatlarda klassik holat-fazo modellarining bashorat aniqligi yuqoriroq bo‘lishi mumkin [8]. Bundan tashqari, sanoat tizimlari uchun neyron tarmoqlarning ishonchlilik mezonlarini ishlab chiqish ham dolzarb masalalardan biridir [9].

XULOSA. Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni ko‘rsatadi:

1. Neyron tarmoqlar murakkab texnologik jarayonlarni modellashtirishda samarali vosita hisoblanadi.
2. Backpropagation algoritmi sanoat boshqaruv tizimlarida eng keng qo‘llaniladigan o‘qitish usuli hisoblanadi.
3. Neyron tarmoqlar yordamida jarayon parametrlarini bashorat qilish aniqligi sezilarli darajada oshadi.
4. Kelajakda sanoat avtomatlashtirishida sun’iy intellekt asosidagi boshqaruv tizimlarining roli yanada ortadi.

ADABIYOTLAR

1. Hornik K., Stinchcombe M., White H. Multilayer feedforward networks are universal approximators. Neural Networks, 1989. https://doi.org/10.1016/0893-6080(89)90020-8 (ScienceDirect)
2. Willis M., Montague G. Artificial neural networks in process estimation and control. Automatica, 1997. https://doi.org/10.1016/S0005-1098(96)00154-9
3. Rumelhart D., Hinton G., Williams R. Learning representations by back-propagating errors. Nature, 1986. https://doi.org/10.1038/323533a0
4. Lawrence N. Machine learning for industrial sensing and control. ScienceDirect. https://www.sciencedirect.com
5. González C. Neural networks for fast optimization in model predictive control. arXiv. https://arxiv.org/abs/2003.04216
6. Kiš K. Neural network based MPC for chemical reactor control. arXiv. https://arxiv.org/abs/2103.01542
7. Yousefian R. Neural network approaches for stability control in energy systems. arXiv. https://arxiv.org/abs/2104.03054

ISSN 3030-3907

8. Vyatkin V. Intelligent automation systems in industry. MDPI. https://www.mdpi.com
9. Emmanouilides C. Neural network control of industrial processes. Springer. https://link.springer.com

ISSN 3030-3907

УДК: 622.245.6

НЕОБХОДИМОСТЬ ПРИМЕНЕНИЯ РАСШИРЯЮЩЕГОСЯ ВОЛОКНИСТОГО ТАМПОНАЖНОГО РАСТВОРА ДЛЯ ЦЕМЕНТИРОВАНИЯ ПРОДУКТИВНОЙ ЧАСТИ ЭКСПЛУАТАЦИОННОЙ КОЛОННЫ

Айтмуратов Шарапат Азатович
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова
Комилов Толиб Олимович
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова
Орипов Азиз Аброрович
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова
Умедов Шерали Халлокович
Ташкентский государственный технический университет имени Ислама Каримова

Annotatsiya. Zamonaviy ishlab chiqarishlarning paydo bo‘lishi uglevodorod resurslariga bo‘lgan ehtiyojning ortishiga olib kelmoqda. Shu sababli, ko‘p qatlamli konning mahsuldor qatlamining yotish oralig‘ida kolonnalararo bo‘shliqning germetikligini ta’minlash uchun sementlashning yangi texnologiyalarini joriy etish zarurati hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan, maqolada mahsuldor qatlam oralig‘ida kolonna orti bo‘shlig‘ining germetikligini ta’minlash uchun tolali, kengayish xususiyatiga ega tamponaj eritmasining yangi tarkibi keltirilgan. O‘tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari natijasida tolali, kengayish xususiyatiga ega tamponaj eritmasining tarkibi ishlab chiqildi va olingan natijalar mavjud tamponaj eritmalari bilan taqqoslandi.

Kalit so‘zlar: akustik nazorat, yuqori mahsuldor, qotish, kolonna orti bo‘shliq, yuqori o‘tkazuvchanlik, germetik emaslik, sement toshi, ilashish, yuqori yoriqli.

Аннотация. Появление современных производств приводит к увеличению потребности в углеводородных ресурсах. Поэтому одними из наиболее актуальных задач современности является необходимость внедрения новых технологий цементирования для обеспечения герметичности межколонного пространства в интервале залегания продуктивного пласта многопластового месторождения. В связи с этим в статье приведено состав новой рецептуры тампонажного раствора расширяющегося волокнистого свойством для обеспечения герметичности заколонного пространства в интервале продуктивного пласта. В результате проведенных лабораторных

ISSN 3030-3907

исследований был разработан состав тампонажного раствора расширяющегося волокнистого и полученные результаты сравнивались с данными о применяемых тампонажных растворах.

Ключевые слова: акустический контроль, высокопродуктивный, затвердения, межколонное пространства, высокопроницаемый, негерметичность, цементный камень, сцепления, высокотрещиноватый.

Abstract. The emergence of modern industries leads to an increase in the demand for hydrocarbon resources. Therefore, one of the most pressing tasks of our time is the necessity of implementing new cementing technologies to ensure the airtightness of the intercolumn space within the productive layer of a multi-layer deposit. In this regard, the article presents the composition of a new prescription for an expanding fibrous tamponade solution to ensure the airtightness of the post-column space within the productive layer interval. As a result of the conducted laboratory studies, the composition of the expanding fibrous tamponade solution was developed, and the results obtained were compared with the data on the applied tamponade solutions.

Keywords: acoustic control, high productivity, hardening, column-to-column space, high permeability, non-tightness, cement stone, clutches, high-crack.

ВВЕДЕНИЕ.

Устюртский регион характеризуется преимущественным распространением газовых месторождений, что обусловливает повышенную вероятность возникновения межколонных газопроявлений при бурении и эксплуатации скважин. В этих условиях особую актуальность приобретают вопросы изучения причин возникновения газопроявлений и разработки эффективных методов их предупреждения. Одной из основных причин возникновения межколонных газопроявлений является негерметичность резьбовых соединений эксплуатационной колонны [1]. Нарушение герметичности элементов конструкции скважины создает условия для миграции газа в затрубное пространство. Проникновение газа в ствол скважины и межколонное пространство может происходить при различных геолого-технических условиях. К основным из них относятся: снижение гидростатического давления столба промывочной жидкости ниже пластового давления, что вызывает приток газа в скважину; разбуривание газонасыщенных пластов, сопровождающееся поступлением газа вместе с выбуренной породой; а также наличие дефектов цементного камня и заколонного пространства. Особую опасность представляют газопроявления, возникающие в процессе цементирования обсадных колонн и в период ожидания затвердевания цемента (ОЗЦ). Анализ буровых работ в западной части Узбекистана за последние 8–10 лет показывает, что

ISSN 3030-3907

в этот период было зафиксировано около 10 открытых газовых фонтанов и более 50 случаев газопроявлений. По данным ряда исследователей, движение газа возможно даже при относительно высокой плотности бурового раствора, что указывает на сложный механизм данного процесса. Следует отметить, что процессы проникновения флюидов в затрубное пространство до настоящего времени изучены недостаточно полно, а существующие представления о причинах и механизмах миграции газа во многом носят противоречивый характер. Проникновение газа в затрубное пространство возможно по следующим основным путям: через негерметичности резьбовых соединений обсадных колонн; через негерметичности колонной головки; вследствие нарушений целостности обсадной колонны; а также по каналам, формирующимся в цементном камне. Анализ работ различных исследователей показывает наличие различных подходов к объяснению природы межколонных газопроявлений. После бурения скважины ее ствол крепится обсадными колоннами, которые цементируются с использованием тампонажных растворов с различными добавками. По мере твердения цементный раствор превращается в цементный камень, который должен обеспечивать надежную изоляцию пластов и герметичность затрубного пространства. Основными функциями цементного камня являются разобщение проницаемых пластов, предотвращение межпластовых перетоков, защита продуктивных горизонтов от загрязнения минерализованными водами, а также предотвращение миграции пластовых флюидов. Таким образом, анализ существующих исследований показывает, что межколонные газопроявления обусловлены совокупностью геолого-технических и технологических факторов, ключевыми из которых являются нарушения герметичности элементов конструкции скважины и образование каналов в цементном камне. Это подтверждает необходимость применения комплексного подхода к их предупреждению, включающего совершенствование технологий цементирования, контроль качества крепления скважин и оптимизацию параметров буровых растворов [2].

В пробуренный ствол они цементируются с помощью тампонажного цемента с облегчающими или утяжеляющими добавками, который по истечении времени затвердевает, превращается в твёрдый тампонажный камень и должен выполнять следующие задачи, разобщать проницаемые пласты друг от друга для защиты от загрязнения минерализованными водами, содержащимися в соседних пластах, и проникновения пластового флюида в соседние пласты.

ISSN 3030-3907

Защищать спущенную эксплуатационную колонну от коррозии при длительном воздействии на неё пластовых вод.

Обеспечить герметичность кольцевого пространства путем вытеснения из него бурового раствора тампонажным раствором с последующим затвердением. Удерживать эксплуатационную колонну в скважине столбом затвердевшего тампонажного камня, находящимся в кольцевом пространстве.

Однако результаты цементирования и записи АКЦ (акустического контроля цементирования) показывают, что качество цементирования не всегда удается достигнуть по следующим причинам [2].

Замена бурового раствора из кольцевого пространства тампонажным раствором не удается полностью из-за образования больших каверн при бурении скважины, расположения обсадных колонн не по центру скважины и др. Появление трещины в тампонажном камне при твердении и перфорации.

Отсутствие «хорошего» сцепления тампонажного камня с поверхностью горной породы из-за наличия на поверхности фильтрационной корки.

Образование флюидопроводящих каналов на газовых месторождениях во время ОЗЦ (ожидания затвердевания цемента) и др.

Исходя из этого, изучены причины некачественного цементирования эксплуатационной колонны на законченных скважинах. Данные по законченным скважинам приведены в таблице 1.

Из таблицы 1 видно, что для изучения сцепления тампонажного камня с обсадной колонной и с горной породой были выбраны скважины, законченные строительством в различных структурах месторождений Республики.

Из изученных скважин «хорошее» сцепление тампонажного камня с поверхностью эксплуатационной колонны имеют от **3,63%** до **29,8%**, а с горной породой — от **2,49%** до **4,69%**. Кроме того, «хорошее» сцепление просматривается на скважине №435 месторождения Кукдумалак — **64,18%** и скважине №1 Сагиртау — **100%**. Во всех остальных скважинах герметичность сцепления не удовлетворяет требованиям.

Исходя из этого, такие сцепления, приведенные в таблице №1, не обеспечивают герметичность межколонного пространства в интервале продуктивного пласта эксплуатационной колонны.

Кроме того, для извлечения нефти и газа из пласта, с целью обеспечения сообщения между пластом и стволом скважины, эксплуатационную колонну и цементный камень перфорируют.

ISSN 3030-3907

Таблица 1.

Высокотрещиноватая, высокопроницаемая часть продуктивного пласта

Характеристика отложений продуктивного пласта	Рекомендуемые интервалы перфорации
Над рифовые отложения продуктивного пласта	Высокотрещиноватые, высокопроницаемые и высокопродуктивные интервалы продуктивного пласта
	Перфорация производится на 15-20 м выше подошвы над рифовых отложений.
Рифовые отложения продуктивного пласта	Высокотрещиноватые, высокопроницаемые и высокопродуктивные интервалы продуктивного пласта
	Перфорация производится на 15-20 м выше подошвы рифовых отложений.
Под рифовые отложения продуктивного пласта	Перфорация производится на 15-20 м ниже подошвы рифовых отложений
	Высокотрещиноватые, высокопроницаемые и высокопродуктивные интервалы продуктивного пласта

По мнению авторов [1, 2, 3], тампонажный камень, расположенный в заколонном пространстве, может разрушаться при перфорации. А в прилегающих интервалах в тампонажном камне могут образовываться трещины, в результате которых дополнительно нарушается герметичность заколонного пространства.

ISSN 3030-3907

Таблица 2.

Рекомендуемые интервалы перфорации

Наименование площадей и месторождений	Номера скважин	Диаметр обсадной колонны, мм	Интервал использования по	Сцепление тампонажного камня с	Сцепление тампонажного камня с	Сцепление тампонажного камня с	Сцепление тампонажного камня с	% хорошего сцепления (Колонна)	Сцепление тампонажного камня с	Сцепление тампонажного камня с	Сцепление тампонажного камня с	Сцепление тампонажного камня с	% хорошего сцепления (Порода)
Ойдин	3	139,7	30 - 2792	118	114	-	2230	4,27	-	-	-	-	Нет данных
Сагиртау	1	139,7	50 - 3492	508	111	150	2673	14,76	431	0	0	0	100
Алан	164	139,7	18 - 2744	100	242	1384	1000	3,67	-	-	-	-	Нет данных
Северный Уртабулак	120	139,7	50 - 2484	153	952	-	1349	6,2	155	120	-	172	10,38
Кокдумалак	433	139,7	57 - 3080	102	272	-	2649	3,37	70	59	-	723	8,2
Кокдумалак	435	139,7x168,3	60 - 3075	189	1204	-	1662	6,19	138	71	-	6,0	64,18

ISSN 3030-3907

Алан	126	139,7	55-2757	126	231	-	2375	4,1	126	223	-	170	24,28
Гирсан	27	127 x 139,7	40-2893	925	547	-	1419	31,99	-	92	-	153	0
Алан	112	139,7	12-2715	181	600	-	1921	6,7	37	246	5	201	7,6
Рубои	1	127 x 139,7	15-3579	266	269	373	2604	7,58	20	95	132	556	2,49
Рубои	1	127 x 139,7	15-3579	266	269	373	2604	7,58	20	95	132	556	2,49
Мезон	4	139,7	20-3205	91	101	98	95	10,84	36	26	98	85	14,69
Чилвар	7	139,7	3551	667	889	1109	886	18,78	9	38	138	7	4,68
Алан	115	139,7	16-2741	98	836	735	936	3,76	-	-	-	-	Нет данных
Янги Каратепа	15	127 x 139,7	19-2620	760	1132	-	658	29,8	-	-	-	-	Нет данных

ISSN 3030-3907

Образованным трещинам в тампонажном камне и негерметичности заколонного пространства может проникать пластовый флюид в вышележащие проницаемые пласты или к устью скважины.

Если это нефтяные скважины, то при их эксплуатации происходит преждевременное обводнение вследствие подтягивания подошвенных и законтурных вод из пласта [4-6].

Поэтому нефтегазосодержащие пласты, имеющие различные коэффициенты пористости и трещиноватости по разрезу, с целью обеспечения равномерной эксплуатации пласта, целесообразно проводить избирательную перфорацию продуктивного пласта на каждой скважине.

Многие месторождения в Республике Узбекистан имеют пласты с повышенной трещиноватостью, и они могут в процессе эксплуатации привести к интенсивному извлечению нефти и газа из высокопроницаемой части пласта и способствовать притоку пластовых вод к стволу скважины. Расположение высокотрещиноватой, высокопроницаемой и высокопродуктивной части пласта схематично приведено в Таблице №2.

Однако, по данным авторов [2, 3] при перфорационных работах тампонажный камень разрушается, а в прилегающих интервалах к перфорации образуются трещины, по которым проходит нефть или газ в вышележащие проницаемые пласты или к устью скважины.

Для решения этой проблемы нами предложено цементировать нижнюю часть эксплуатационной колонны расширяющимся тампонажным цементным раствором с добавлением волокон хвоста [7, 8].

Армированный тампонажный расширяющийся волокнистый портландцементный раствор должен содержать:

- Расширяющиеся добавки в количестве 5-10% от массы цемента (1, с 34-36; 4, с 45-47);
- Волосы «хвостов» длиной 20,0 мм, являющиеся отходом производства;
- Плотность «хвостов» должна составлять 1,13–1,15 г/см³;
- Температура плавления «хвостов» должна составлять 50–150 °C;
- Предел прочности: на растяжение 60,0–65,0 МПа, а на изгиб 90,0 МПа.

Проведенные лабораторные исследования такого состава расширяющегося тампонажного раствора приведены в таблице №3.

Таблица 3

Параметры расширяющегося тампонажного раствора для ударостойкости тампонажного камня

ISSN 3030-3907

Содержание «хвостов» в виде волокна в растворе, %	В/Ц	Растекаемость при В/Ц=0,5, см	Плотность раствора, г/см³	Прочность на изгиб через 7 суток, МПа
-	0,5	21	1,83	5,7
1	0,5	20	1,82	4,8
2	0,5	19	1,81	4,0
3	0,5	14	1,80	3,75

Из таблицы №3 видно, что при содержании в расширяющемся тампонажном растворе 1-3% в виде волокна «хвоста» при В/Ц = 0,5 снижаются: растекаемость с 21 см до 14 см, плотность раствора с 1,83 г/см³ до 1,80 г/см³, а прочность на изгиб через 7 суток твердения с 5,7 МПа до 3,75 МПа.

Таким образом, на основании данных, приведенных в таблице №3, свидетельствует о том, что содержание в тампонажном растворе более 1–2% волокон из хвостов влияет на снижение параметров тампонажного раствора. Содержание в тампонажном растворе 1–2% повышает ударостойкость тампонажного камня.

СПИСОК ИСПОЛЬЗУЕМЫХ ИСТОЧНИКОВ

1. Хасанов Т.Р., Карев Г.Г. и др. Новая технология. Крепление скважин на ПХГ «Бурение газовых и газоконденсатных скважин», 1979, №3, 7-11 стр.
2. Матякубов М.Ю., Хасанов Т.Р. и др. К вопросу повышения герметичности заколонного пространства на ПХГ. «Бурение газовых и газоконденсатных скважин», 1980, №6, 17-22 стр.
3. Применение армированного тампонажного цемента при цементировании газовых скважин / Хасанов Т.Р., Борисенко Л.А., Матякубов М.Ю. и др. — Бурение газовых и морских нефтяных скважин.
4. Справочник инженера по бурению /Под ред. Мищевича В.И., Сидорова Н.А.- М.: Издательство «НЕДРА», 1973 г. С. 398.
5. Акрамов Б.Ш., Умедов Ш.Х., Комилов Т.О., Мирсаатова Ш.Х. Вскрытие продуктивного пласта с применением пен // Технологии нефти и газа. Научно-технический журнал. – М., 2017 г. №4. С.35–39.
6. Акрамов Б.Ш., Комилов Т.О. и др. (Отчёт) ИОТ-2016-8-4 Внедрение нового состава ПАВ на основе местного сырья при вторичном вскрытии продуктивного горизонта» // Ташкентский государственный технический университет им. Ислама Каримова. – Ташкент, 2018 г. – 180 с.

ISSN 3030-3907

7. Komilov T.O., Ruzmanov F.I., Ashurov B.N., Umedov Sh.X. Landslide formation analysis during well drilling // Palarch's Journal Of Archaeology Of Egypt/Egyptology. vol. 17 No. 6.2020. - P. 3494-3499.
8. Умедов Ш.Х., Ураков Ш.Ш., Ашуров Б.Н., Нуритдинов Ж.Ф. Исследование влияния нового полимерного водорастворимого реагента на свойства утяжеленного бурового раствора // Узбекский журнал нефти и газа. – Ташкент, 2013. – №1. - С. 22-24.

ISSN 3030-3907

AXBOROTNI INTELLEKTUAL QIDIRISHDA RAMZIY VA SUB-SIMVOLIK YONDASHUVLARNING QIYOSIY TAHLILI HAMDA GIBRID MODELGA BO‘LGAN EHTIYOJ

Absalamova Diyora Bo‘riboyevna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktoranti
E-mail: d.absalamova@tsue.uz

Annotatsiya. Maqolada intellektual muloqot tizimlarida axborotni qidirish va bilimlarni ifodalashning ikki asosiy yondashuvi — ramziy va sub-simvolik paradigmalar qiyosiy tahlil qilinadi. Har bir yondashuvning nazariy asoslari, kuchli va kuchsiz tomonlari ko‘rib chiqiladi. Ramziy yondashuvning aniqligi va talqin qilinuvchanligi hamda sub-simvolik yondashuvning leksik bardoshliligi va moslashuvchanligi asoslanadi. Ikki paradigmaning o‘zaro to‘ldiruvchanligi ko‘rsatilib, ularni yagona gibrid ontologik-generativ modelda birlashtirishning nazariy zarurati asoslanadi. Tahlil natijalari kam resursli tillar uchun ishonchli muloqot tizimlarini yaratishda ahamiyatli hisoblanadi.

Kalit so‘zlar: intellektual muloqot tizimi, bilimlarni ifodalash, ramziy yondashuv, sub-simvolik yondashuv, vektorli qidiruv, ontologiya, gibrid model, neyro-simvolik integratsiya.

Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ двух основных подходов к поиску информации и представлению знаний в интеллектуальных диалоговых системах — символьной и субсимвольной парадигм. Рассматриваются теоретические основы, сильные и слабые стороны каждого подхода. Обосновываются точность и интерпретируемость символьного подхода, а также лексическая устойчивость и гибкость субсимвольного подхода. Показана взаимодополняемость двух парадигм и обоснована теоретическая необходимость их объединения в единую гибридную онтолого-генеративную модель. Результаты анализа значимы для создания надёжных диалоговых систем для малоресурсных языков.

Ключевые слова: интеллектуальная диалоговая система, представление знаний, символьный подход, субсимвольный подход, векторный поиск, онтология, гибридная модель, нейро-символьная интеграция.

Abstract. The article provides a comparative analysis of the two main approaches to information retrieval and knowledge representation in intelligent dialogue systems — the symbolic and sub-symbolic paradigms. The theoretical foundations, strengths and weaknesses of each approach are examined. The accuracy and interpretability of the symbolic approach, as well as the lexical robustness and flexibility of the sub-symbolic approach, are substantiated. The complementarity of the two paradigms is shown, and the theoretical necessity of

combining them into a single hybrid ontological-generative model is justified. The results of the analysis are significant for creating reliable dialogue systems for low-resource languages.

Keywords: intelligent dialogue system, knowledge representation, symbolic approach, sub-symbolic approach, vector retrieval, ontology, hybrid model, neuro-symbolic integration.

KIRISH.


Zamonaviy intellektual muloqot tizimlarining markaziy vazifasi katta hajmdagi tabiiy tildagi ma’lumotlardan foydalanuvchiga zarur bilimni aniq va ishonchli tarzda yetkazib berishdir. Bu vazifani hal qilish uchun bilimni mashina tomonidan qayta ishlanadigan shaklda ifodalash va undan samarali qidirish mexanizmlarini qurish talab etiladi [1]. Tarixan ushbu masala ikki yirik paradigma — ramziy va sub-simvolik yondashuvlar doirasida rivojlangan.

Ramziy yondashuv bilimni diskret belgilar va qat’iy mantiqiy qoidalar orqali ifodalaydi, sub-simvolik yondashuv esa bilimni uzluksiz sonli fazodagi vektorlar ko‘rinishida taqdim etadi. So‘nggi yillarda generativ til modellarining keng tarqalishi sub-simvolik yondashuvni yangi bosqichga olib chiqdi, biroq ayni paytda faktik aniqlik va ishonchlilik muammosini ham keltirib chiqardi [5]. Ushbu maqolaning maqsadi ikki paradigmani qiyosiy tahlil qilish va ularni birlashtiruvchi gibrid yondashuvga bo‘lgan nazariy ehtiyojni asoslashdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi bir necha omil bilan belgilanadi. Birinchidan, generativ modellar keng qo‘llanila boshlagani sari ularning manbalar bilan tasdiqlanmagan javoblar berishi amaliy va etik muammoga aylanmoqda, ayniqsa huquq, tibbiyot va ta’lim kabi ma’lumotga boy sohalarda. Ikkinchidan, o‘zbek tili kabi kam resursli tillar uchun yirik oldindan o‘rgatilgan modellar va katta korpuslar cheklangan bo‘lib, bu sof sub-simvolik yondashuvning samaradorligini pasaytiradi. Uchinchidan, ramziy bilimni (ontologiya, bilimlar grafi) generativ modellar bilan birlashtirish bo‘yicha yaxlit metodologiya hali yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ushbu omillar ikki paradigmaning qiyosiy tahlili va ularni birlashtirish yo‘llarini o‘rganishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

Axborotni qidirish va bilimlarni ifodalash usullarining tarixiy rivojlanishi ikki paradigmaning o‘zaro almashinuvi va yaqinlashuvi jarayonini aks ettiradi. Ushbu rivojlanishning asosiy bosqichlari 1-rasmda keltirilgan.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Axborotni qidirish va bilimlarni ifodalash paradigmalarining rivojlanish bosqichlari

Rasmdan koʻrinadiki, dastlabki bosqichlarda ramziy yondashuv (mantiqiy va ekspert tizimlari) hukmron boʻlgan, soʻngra statistik va neyron usullar sub-simvolik yondashuvni oldingi oʻringa olib chiqgan, soʻnggi bosqichda esa bilimlar grafi va katta til modellarini birlashtirgan gibrid yondashuvlar shakllanmoqda. Bu tarixiy tendensiya gibrid yondashuvning tabiiy va qonuniy rivojlanish bosqichi ekanligini koʻrsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy nazariy tahlil va formal-matematik modellashtirish usullari qoʻllanildi. Har bir yondashuv uning ifoda kuchi, hisoblash xususiyatlari va amaliy cheklovlari nuqtai nazaridan baholandi. Tahlil mavzuga oid xalqaro ilmiy adabiyotlar — qidiruv bilan boyitilgan generatsiya, ta’riflash mantigʻi, bilimlar graflari va neyro-simvolik integratsiya yoʻnalishidagi nufuzli manbalar asosida olib borildi. Yondashuvlarni qiyoslash uchun beshta asosiy mezon ajratildi: aniqlik, talqin qilinuvchanlik, mantiqiy xulosa imkoniyati, leksik bardoshlilik va moslashuvchanlik.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, qidiruv bilan boyitilgan generatsiya yoʻnalishi P.Lewis va hamkasblari ishida asoslangan boʻlib, u keyinchalik koʻplab takomillashtirilgan koʻrinishlarga ega boʻldi [1, 9]. Zich vektorli qidiruv V.Karpukhin va boshqalar tomonidan rivojlantirilgan [2], samarali oʻxshashlik qidiruvi algoritmlari esa J.Johnson va hamkasblari ishlarida taqdim etilgan [3]. Ramziy yoʻnalishda ta’riflash mantigʻi F.Baader va hamkasblari monografiyasida tizimli bayon etilgan [4], bilimlar graflari boʻyicha A.Hogan va boshqalarning keng qamrovli sharhi muhim manba hisoblanadi [6]. Gallyutsinatsiya muammosi Z.Ji va hamkasblari tomonidan tahlil qilingan [5], ramziy va sub-simvolik yondashuvlarni birlashtirish istiqbollari esa S.Pan va boshqalar hamda neyro-simvolik integratsiya boʻyicha ishlarda muhokama qilingan [7, 8]. Ushbu manbalar tahlili gibrid yondashuv dolzarb va istiqbolli ilmiy yoʻnalish ekanligini tasdiqlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bilimlarni ifodalash yondashuvlarining umumiy tasnifi 2-rasmda keltirilgan. Tasnif yuqori darajada ikki tarmoqqa — ramziy va sub-simvolik

ISSN 3030-3907

modellarga ajraladi, har biri o‘z navbatida bir necha aniq model turini qamrab oladi.



2-rasm. Bilimlarni ifodalash yondashuvlarining tasnifi

Ramziy yondashuvning eng rivojlangan shakli ontologiya hisoblanadi. Ontologiya muayyan soha tushunchalarini, ularning xossalari va o‘zaro munosabatlarini ta’riflash mantig‘i (description logic) asosida formal tarzda ifodalaydi [4]. Uning asosiy afzalligi — ifodalangan bilimlar ustida avtomatik mantiqiy xulosa chiqarish va ziddiyatlarni aniqlash imkoniyatidir. Biroq ramziy yondashuv qo‘lda bilim muhandisligini talab qiladi va tabiiy tildagi leksik xilma-xillikka past darajada bardosh beradi.

Ramziy yondashuvda bilim odatda terminologik qism (TBox) va assertiv qism (ABox) shaklida tashkil etiladi. TBox konseptlar o‘rtasidagi umumiy munosabatlarni, ABox esa aniq individlar haqidagi faktlarni qamrab oladi. Bunday tuzilma ustida ishlovchi mantiqiy xulosa mexanizmi yangi, oshkora ko‘rsatilmagan bilimlarni keltirib chiqarish imkonini beradi. Masalan, agar tizimga «A — B ning qism-to‘plami» va «B — C ning qism-to‘plami» degan bilim berilsa, u «A — C ning qism-to‘plami» degan yangi faktni avtomatik keltirib chiqaradi. Ushbu xossa ramziy yondashuvni faktik aniqlik talab etiladigan sohalarda qimmatli vositaga aylantiradi.

Ta’riflash mantig‘ida konseptlar o‘rtasidagi munosabatlar formal aksiomalar orqali ifodalanadi. Konseptlarni birlashtirish, kesishtirish va inkor qilish amallari yordamida murakkab konseptlar quriladi. Masalan, ikki konseptning kesishmasi quyidagicha ta’riflanadi:

$$(C \sqcap D)^{\mathrm{I}} = C^{\mathrm{I}} \cap D^{\mathrm{I}} \qquad (1)$$

bu yerda C^{I} va D^{I} — C va D konseptlarning talqindagi (interpretatsiyadagi) ma’nolari, $\sqcap$ — konseptlarni birlashtirish (kesishtirish) amali. Bunday formal apparat ontologiyada murakkab tushunchalarni aniq ta’riflash va ular ustida mantiqiy xulosa chiqarish imkonini beradi. Aynan shu qat’iy formal asos ramziy

ISSN 3030-3907

yondashuvning talqin qilinuvchanligi va ishonchliligini ta’minlaydi, biroq u tabiiy tilning noaniqligi va xilma-xilligiga moslashishda qiyinchilikka uchraydi.

Sub-simvolik yondashuv bilimni uzluksiz vektor fazosida ifodalaydi. Ikki obyektning semantik yaqinligi ularning vektorlari orasidagi kosinus o‘xshashlik orqali baholanadi:

$$sim(o_1, o_2) = \langle v(o_1), v(o_2) \rangle / (\|v(o_1)\| \cdot \|v(o_2)\|) \quad (2)$$

Sub-simvolik ifodalashning rivojlanishi so‘zlarni vektorga akslantirish usullarining takomillashuvi bilan bog‘liq. Dastlabki statistik usullar so‘zning ahamiyatini uning chastotasi asosida baholagan, keyinchalik distributiv so‘z embeddinglari so‘zlarni katta korpus asosida zich vektorlarga akslantirgan, eng so‘nggi bosqichda esa transformer arxitekturasiga asoslangan kontekstual embeddinglar har bir so‘zni uning matndagi o‘rniga qarab ifodalash imkonini bergan. Ushbu rivojlanish sub-simvolik yondashuvning semantik aniqligini sezilarli oshirgan, biroq bilimni shaffof va talqin qilinadigan shaklda ifodalash muammosini hal qilmagan.


Sub-simvolik yondashuvning kuchli tomoni — leksik bardoshlilik: u sinonimiya va leksik xilma-xillikka qaramay semantik jihatdan yaqin matnlarni topa oladi. Vektorli qidiruv va generativ modellarni birlashtirgan qidiruv bilan boyitilgan generatsiya (RAG) yondashuvi ushbu kuchli tomondan foydalanadi va uning sxemasi 3-rasmda keltirilgan [1]. Biroq sub-simvolik yondashuv bilimni shaffof ifodalay olmaydi va matnlar orasidagi formal mantiqiy munosabatlarni hisobga olmaydi.



3-rasm. Qidiruv bilan boyitilgan generatsiya (RAG) sxemasi

Sub-simvolik yondashuvga asoslangan generativ modellarning eng jiddiy muammosi — gallyutsinatsiya, ya’ni faktik jihatdan noto‘g‘ri, ammo tashqi ko‘rinishidan ishonarli javoblar hosil qilishidir. Ushbu muammoning kelib chiqish mexanizmi 4-rasmda keltirilgan. Generativ model javobni faqat o‘zi o‘rgangan statistik naqshlar asosida shakllantiradi va agar tegishli tashqi bilim mavjud bo‘lmasa, u bo‘shliqni ishonarli, ammo asossiz matn bilan to‘ldiradi [5].

ISSN 3030-3907



4-rasm. Generativ modellarda gallyutsinatsiya muammosining kelib chiqishi

Gallyutsinatsiya muammosi sof sub-simvolik yondashuvning tub cheklovini ko‘rsatadi: distributiv o‘xshashlik faktik to‘g‘rilikni kafolatlamaydi. RAG yondashuvi tashqi hujjatlarni jalb qilib bu muammoni qisman yumshatadi, biroq u ham qidiruv sifatiga bog‘liq va matnlar orasidagi mantiqiy munosabatlarni hisobga olmaydi. Aynan shu yerda ramziy bilimning roli namoyon bo‘ladi: ontologik cheklovlar generativ javobni faktik jihatdan tekshirish va ziddiyatli da’volarni rad etish imkonini beradi.

Ikki yondashuvning asosiy xususiyatlari 1-jadvalda qiyosiy tarzda keltirilgan.

1-jadval


Ramziy va sub-simvolik yondashuvlarning qiyosi

Mezon	Ramziy	Sub-simvolik
Bilim shakli	Diskret belgilar	Uzluksiz vektorlar
Ma’no	Aniq, formal	Distributiv, taxminiy
Mantiqiy xulosa	Qat’iy	Yo‘q yoki bilvosita
Leksik moslik	Sinonimiyaga sezgir	Sinonimiyaga bardoshli
Talqin qilinuvchanlik	Yuqori	Past

1-jadvaldan ko‘rinadiki, bir yondashuv kuchli bo‘lgan jihatda ikkinchisi kuchsiz va aksincha. Ramziy yondashuv aniqlik va talqin qilinuvchanlik, sub-simvolik yondashuv esa leksik bardoshlilik va moslashuvchanlik bilan ajralib turadi. Bu o‘zaro to‘ldiruvchanlik ularni yagona modelda birlashtirish g‘oyasini nazariy jihatdan asoslaydi.

Ushbu sifat baholarni ko‘rgazmali tarzda solishtirish uchun yondashuvlar besh asosiy mezon bo‘yicha 5-rasmda radar diagramma ko‘rinishida taqdim etilgan. Diagramma har bir mezon bo‘yicha sifat darajasini (past, o‘rta, yuqori) aks ettiradi va empirik o‘lchov emas, balki nazariy tahlil natijasidir.


ISSN 3030-3907



5-rasm. Yondashuvlarning besh mezon bo‘yicha sifat qiyosi (radar diagramma)

5-rasmdan yaqqol ko‘rinadiki, ramziy (ko‘k) va sub-simvolik (to‘q sariq) yondashuvlar bir-biriga deyarli teskari profilga ega: biri aniqlik va mantiqiy xulosa tomonida kuchli, ikkinchisi leksik bardoshlilik va moslashuvchanlik tomonida. Gibrid yondashuv (binafsha) esa barcha besh mezon bo‘yicha yuqori yoki o‘rtadan yuqori darajani saqlab, ikkala paradigmaning qoplama hududini egallaydi. Bu vizual tahlil gibrid modelning nazariy ustunligini ko‘rgazmali tasdiqlaydi.

Ikki paradigmani birlashtirish g‘oyasining konseptual sxemasi 6-rasmda keltirilgan. Gibrid ontologik-generativ model ramziy yondashuvning aniqligini sub-simvolik yondashuvning moslashuvchanligi bilan birlashtirib, ikkala paradigmaning kuchli tomonlarini saqlab qoladi va kamchiliklarini o‘zaro qoplaydi.



6-rasm. Gibrid ontologik-generativ model konsepsiyasi

ISSN 3030-3907

Gibrid modelda ramziy va sub-simvolik signallar konveks kombinatsiya orqali birlashtirilishi mumkin:

$$S(q,d) = \alpha \cdot S_o(q,d) + (1 - \alpha) \cdot S_v(q,d), \ \alpha \in [0,1] \qquad (3)$$

bu yerda S_o — ontologik (ramziy) baho, S_v — vektorli (sub-simvolik) baho, α — ramziy dalilga qo‘yilgan ishonch ulushini ifodalovchi koeffitsiyent. Koeffitsiyentning oraliq qiymatda bo‘lishi ikkala signalning o‘zaro to‘ldiruvchanligidan foydalanish imkonini beradi. Bunday integratsiya, ayniqsa, o‘zbek tili kabi kam resursli tillar uchun muhim, chunki bunday tillarda yirik oldindan o‘rgatilgan modellar va katta korpuslar cheklangan, ramziy bilim esa faktik aniqlikni ta’minlovchi qo‘shimcha tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Ramziy va sub-simvolik komponentlarni birlashtirishning bir necha darajasi mavjud. Eng sodda darajada ikki komponent natijalari yakuniy bosqichda birlashtiriladi (kech birlashtirish). O‘rta darajada ramziy bilim qidiruv jarayonini boshqaradi yoki cheklaydi. Eng chuqur darajada esa ramziy va sub-simvolik signallar yagona umumiy ifodalashda birlashtiriladi. Konveks kombinatsiya yondashuvi kech va o‘rta birlashtirish oralig‘ida joylashib, amalga oshirish soddaligi va samaradorlik o‘rtasida muvozanat saqlaydi. Bundan tashqari, ramziy komponent generativ javobni keyin tekshirish (verifikatsiya) bosqichida ham qo‘llanilishi mumkin, bu esa gallyutsinatsiya muammosini bevosita hal qilishga yo‘naltirilgan.

Taklif etilayotgan gibrid yondashuv bir qator amaliy sohalarda qo‘llanilish imkoniyatiga ega. Huquqiy ma’lumot qidirish tizimlarida ontologiya normativ hujjatlar o‘rtasidagi munosabatlarni aniq ifodalab, javoblarning to‘g‘ri manbaga asoslanishini ta’minlaydi. Ta’lim sohasidagi savol-javob tizimlarida ramziy bilim fan tushunchalari o‘rtasidagi bog‘lanishlarni hisobga oladi. Tibbiy ma’lumot tizimlarida esa faktik aniqlik hayotiy ahamiyatga ega bo‘lib, ramziy verifikatsiya xavfsizlikni oshiradi. Ushbu sohalarning umumiy jihati — ulardagi javoblarning faktik to‘g‘riligi va manbaga asoslanganligi muhim ekanligidir.

XULOSA.

Maqolada axborotni intellektual qidirishning ramziy va sub-simvolik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilindi. Tahlil natijasida aniqlanganki, na ramziy, na sub-simvolik yondashuv yakka holda murakkab muloqot tizimlari talablarini to‘liq qondira olmaydi: ramziy yondashuv aniq, ammo moslashuvchan emas; sub-simvolik yondashuv moslashuvchan, ammo faktik jihatdan ishonchsiz bo‘lishi mumkin.

Ikki paradigmaning o‘zaro to‘ldiruvchanligi ularni yagona gibrid ontologik-generativ modelda birlashtirishning nazariy zaruratini asoslaydi. Bunday model ramziy yondashuvning aniqligini sub-simvolik yondashuvning moslashuvchanligi bilan birlashtirib, kam resursli tillar uchun ishonchli muloqot

ISSN 3030-3907

tizimlarini yaratishda istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Kelgusi tadqiqotlarda ushbu gibrid modelning algoritmlari ishlab chiqiladi va amaliy jihatdan baholanadi.

Olib borilgan nazariy tahlil quyidagi asosiy natijalarga olib keldi. Birinchidan, ramziy va sub-simvolik yondashuvlarning kuchli va kuchsiz tomonlari tizimli ravishda qiyoslandi va ularning teskari profilga ega ekanligi ko‘rsatildi. Ikkinchidan, generativ modellardagi gallyutsinatsiya muammosining kelib chiqish mexanizmi tahlil qilinib, uni ramziy bilim orqali bartaraf etish imkoniyati asoslandi. Uchinchidan, gibrid modelda ramziy va sub-simvolik signallarni konveks kombinatsiya orqali birlashtirish sxemasi taklif etildi. Ushbu natijalar o‘zbek tili uchun mo‘ljallangan intellektual muloqot tizimlarini yaratishda nazariy asos sifatida xizmat qiladi va muallifning keyingi tadqiqotlari uchun yo‘nalish belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Lewis P., Perez E., Piktus A., et al. Retrieval-augmented generation for knowledge-intensive NLP tasks // Advances in Neural Information Processing Systems. – 2020. – Vol. 33. – P. 9459–9474.
2. Karpukhin V., Oguz B., Min S., et al. Dense passage retrieval for open-domain question answering // Proceedings of EMNLP. – 2020. – P. 6769–6781.
3. Johnson J., Douze M., Jégou H. Billion-scale similarity search with GPUs // IEEE Transactions on Big Data. – 2021. – Vol. 7, No. 3. – P. 535–547.
4. Baader F., Horrocks I., Lutz C., Sattler U. An Introduction to Description Logic. – Cambridge: Cambridge University Press, 2017. – 580 p.
5. Ji Z., Lee N., Frieske R., et al. Survey of hallucination in natural language generation // ACM Computing Surveys. – 2023. – Vol. 55, No. 12. – P. 1–38.
6. Hogan A., Blomqvist E., Cochez M., et al. Knowledge graphs // ACM Computing Surveys. – 2021. – Vol. 54, No. 4. – P. 1–37.
7. Vaswani A., Shazeer N., Parmar N., et al. Attention is all you need // Advances in Neural Information Processing Systems. – 2017. – Vol. 30. – P. 5998–6008.
9. Pan S., Luo L., Wang Y., et al. Unifying large language models and knowledge graphs: a roadmap // IEEE Transactions on Knowledge and Data Engineering. – 2024. – Vol. 36, No. 7. – P. 3580–3599.
10. Gao Y., Xiong Y., Gao X., et al. Retrieval-augmented generation for large language models: a survey // ACM Transactions on Information Systems. – 2024.
11. Deerwester S., Dumais S., Furnas G., et al. Indexing by latent semantic analysis // Journal of the American Society for Information Science. – 1990. – Vol. 41, No. 6. – P. 391–407.

ISSN 3030-3907

QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA MANBALARIDAN KOMPLEKS FOYDALANILADIGAN QUYOSH ISSIQXONASINING O‘RNI

Komilova Nodira Abdirahmon qizi
Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: nodish2301@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada qayta tiklanadigan energiya manbalaridan — quyosh fotoelektrik panellari, quyosh kollektorlari, shamol turbinalari va bioenergetika qurilmalaridan — bir vaqtning o‘zida foydalaniladigan kompleks quyosh issiqxonasining prinsipial sxemasi ishlab chiqilgan. Tizim O‘zbekiston iqlim sharoitlari uchun moslashtirilgan bo‘lib, issiqxona ichidagi harorat, namlik va yorug‘lik parametrlarini optimal darajada ta'minlash maqsadi ko‘zda tutilgan.Tadqiqot doirasida energiya oqimlarining matematik modeli tuzilgan, issiqxona konstruksiyasiga qo‘yiladigan talablar belgilangan, hamda tizimning iqtisodiy samaradorligi hisoblangan. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilayotgan kompleks tizim an'anaviy energiya manbalari bilan ishlatiladigan issiqxonalarga nisbatan 60–75% gacha energiya tejaydi va karbondioksid chiqindilarini sezilarli darajada kamaytiradi.

Kalit so‘zlar: quyosh energiyasi, issiqxona, fotoelektrik panel, quyosh kollektori, qayta tiklanadigan energiya, energiya samaradorligi, avtomatik boshqaruv.

Аннотация. В данной статье разработана принципиальная схема комплексной солнечной теплицы, одновременно использующей возобновляемые источники энергии — солнечные фотоэлектрические панели, солнечные коллекторы, ветротурбины и биоэнергетические устройства. Система адаптирована к климатическим условиям Узбекистана и предназначена для обеспечения оптимальных температурных, влажностных и световых параметров внутри теплицы. В рамках исследования была разработана математическая модель энергетических потоков, определены требования к проектированию теплицы и рассчитана экономическая эффективность системы. Результаты показывают, что предложенная комплексная система позволяет сэкономить до 60–75% энергии по сравнению с теплицами, работающими на трад

Ключевые слова: солнечная энергия, теплица, фотоэлектрическая панель, солнечный коллектор, возобновляемая энергия, энергоэффективность, автоматическое управление.

Abstract. This article develops a schematic diagram of a complex solar greenhouse that simultaneously uses renewable energy sources - solar photovoltaic panels, solar collectors, wind turbines and bioenergy devices. The system is adapted to the climatic conditions of Uzbekistan and is designed to provide optimal temperature, humidity and light parameters inside the

ISSN 3030-3907

greenhouse. As part of the research, a mathematical model of energy flows was developed, requirements for the greenhouse design were determined, and the economic efficiency of the system was calculated. The results show that the proposed complex system saves up to 60–75% energy compared to greenhouses powered by traditional energy sources and significantly reduces carbon dioxide emissions.ицонных источниках энергии, и значительно сократить выбросы углекислого газа.

Keywords: solar energy, greenhouse, photovoltaic panel, solar collector, renewable energy, energy efficiency, automatic control.

KIRISH.

Jahon miqyosida iqlim o‘zgarishi va qazib olinadigan energiya manbalarining kamayib borishi qishloq xo‘jaligi sohasida ham tub o‘zgarishlarni talab etmoqda. Issiqxona yetishtirish — butun yil davomida sabzavot, meva va gul mahsulotlarini ishlab chiqarish imkonini beruvchi intensiv texnologiya bo‘lib, u katta miqdorda issiqlik va elektr energiyasini talab qiladi.O‘zbekiston Respublikasi iqlimi issiqxona yetishtirish uchun juda qulay hisoblanadi: yiliga 2700–3000 soat quyosh ishlash muddati mavjud bo‘lib, bu ko‘rsatkich Yevropa mamlakatlariga nisbatan 1,5–2 barobar yuqori. Biroq mamlakatimizda hali ham issiqxonalarning aksariyati tabiiy gaz yoki ko‘mirdan foydalanadi, bu esa nafaqat yuqori xarajatlar, balki atrof-muhitga zarar keltiradi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalari (QEM) texnologiyalarining rivojlanishi va narxlarining keskin pasayishi (so‘nggi 10 yilda quyosh panellari narxi 90% ga kamaydi) issiqxona yetishtirish tizimlarini to‘liq yoki qisman QEM asosida qurishga imkon bermoqda. Bunday yondashuv “yashil issiqxona” (green greenhouse) kontseptsiyasi sifatida jahon ilmiy adabiyotlarida keng muhokama qilinmoqda.Ushbu tadqiqotning maqsadi — O‘zbekiston sharoitida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan kompleks foydalaniladigan issiqxonaning prinsipial sxemasini ishlab chiqish, asosiy qurilma va tizimlarning o‘zaro aloqasini aniqlash hamda tizimning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili: O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga qadar barqaror rivojlanish strategiyasida qayta tiklanadigan energiya ulushini umumiy energiya balansida 25% ga yetkazish maqsadi belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni, 2019). Shu munosabat bilan qishloq xo‘jaligida, xususan issiqxona yetishtirish sohasida QEM ni joriy etish muhim vazifa bo‘lib qolmoqda.Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, solar-issiqxona tizimlari bo‘yicha tadqiqotlar Xitoy, Ispaniya va Isroilda keng olib borilmoqda (Farhangi et al., 2021; Li et al., 2022; Taki et al., 2023). O‘rta Osiyo

ISSN 3030-3907

mintaqasiga, xususan O‘zbekiston sharoitiga moslashtirilgan yechimlar esa yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Quyosh issiqxonalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar bir necha yo‘nalishda olib borilmoqda: energiya ta'minotini optimallashtirish, issiqxona konstruksiyasini takomillashtirish va avtomatik boshqaruv tizimlari.

Yilipinar va boshqalar (2020) ning tadqiqotlari Turkiya sharoitida quyosh kollektorlari bilan jihozlangan issiqxonalar an'anaviy issitish tizimlari bilan taqqoslaganda 45–55% gacha energiya tejashini ko‘rsatdi. Shunga o‘xshash natijalarga Nayak va Singh (2021) Hindiston uchun erishishdi (tejash — 50–65%).

Fotoelektrik (PV) panellar issiqxona energiyasining asosiy manbai sifatida ham, qo‘shimcha manba sifatida ham qo‘llanilishi mumkin. Shukla va boshqalar (2017) qisman shaffof PV panellaridan issiqxona tom qoplamasi sifatida foydalanish ikkiyoqlama foyda keltirishi — elektr energiyasi ishlab chiqarish va quyosh nurini filtrlash orqali o‘simliklar uchun optimal sharoit yaratishini tasdiqladilar.**Energiya saqlash tizimlari:**Issiqxonalarda energiya saqlashning ikki asosiy yo‘nalishi mavjud: elektrkimyoviy akkumulyatorlar (litiy-ion, qo‘rg‘oshin-kislota) va issiqlik akkumulyatorlari (suv, tosh-tuproq massivlari, faza o‘zgaruvchi materiallar — PCM). Esen va boshqalar (2022) PCM-asosidagi issiqlik akkumulyatorlari samaradorligi suv tanklariga nisbatan 30–40% yuqori ekanligini isbotladilar.Avtomatik boshqaruv: Zamonaviy issiqxonalarda Internet of Things (IoT) texnologiyalari asosida qurilgan "aqlli" boshqaruv tizimlari keng qo‘llanilmoqda. Dong va boshqalar (2023) sun'iy intellektga asoslangan boshqaruv tizimi qo‘llanilgan issiqxonalarda energiya sarfini 20–35% ga kamaytirish mumkinligini ko‘rsatdilar.

TADQIQOT METODLARI. Tadqiqot ob'ekti sifatida Toshkent viloyati sharoiti tanlandi. Ushbu hududning asosiy iqlim ko‘rsatkichlari:

1-Jadval

Toshkent viloyati iqlim parametrlari		
Parametr	**Qiymat**	**Izoh**
Yillik quyosh ishlash vaqti	2800–3000 soat	Yevropaga nisbatan 1.5x ko‘p
Quyosh radiatsiyasi (yillik)	1650–1750 kWh/m²	O‘rtacha
Harorat (yoz max)	+38...+42°C	Sovutish zarur
Harorat (qish min)	-15...-20°C	Isitish zarur

ISSN 3030-3907

O‘rtacha yillik harorat	+13.5°C	—
Shamol tezligi (o‘rtacha)	3.2–4.5 m/s	Kichik turbinalar uchun yetarli

Loyihalashtirilgan issiqxonaning asosiy texnik parametrlari:

• Yer maydoni: 1000 m² (20 m × 50 m)

• Balandligi: 4.5 m (to‘rdagi g‘arb tomoni) — 3.2 m (sharq tomoni, assimetrik tom)

• Yo‘nalish: Janub tomoniga 15° og‘ma (maksimal quyosh qabul qilish uchun)

• Qoplama materiali: Ikki qavatli polikarbonat (16 mm, issiqlik o‘tkazuvchanlik K = 3.5 W/m²K)

• Shimoliy devor: Issiq blok (termolit) + 100 mm mineral jun izolyatsiya

• Asos: Qoziqli temir-beton (sovuqqa qarshi chuqurlash — 1.5 m)

Hisob kitob metodologiyasi

Issiqxonaning energiya balansi quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$Q_{tal} = Q_{isit} + Q_{sovut} + Q_{yoritish} + Q_{nasos} + Q_{boshqaruv}$$

Bu yerda: Q_tal — umumiy energiya talabi (kWh/yil); Q_isit — isitish energiyasi; Q_sovut — sovutish energiyasi; Q_yoritish — sun'iy yoritish energiyasi; Q_nasos — sug‘orish nasoslari energiyasi; Q_boshqaruv — boshqaruv tizimlari energiyasi.

Quyosh panellar quvvatini hisoblashda quyidagi asosiy tenglama qo‘llanildi:

$$P_{PV} = (E_{kunlik} \times K_{yo‘qotish}) / (H_{PSH} \times \eta_{inverter})$$

Bu yerda: P_PV — talab qilinadigan PV quvvati (kW); E_kunlik — kunlik energiya talabi (kWh); K_yo‘qotish — yo‘qotishlar koeffitsienti (1.25); H_PSH — pik quyosh soatlari; η_inverter — inverter FIK (0.96).

Natijalar. Ishlab chiqilgan kompleks tizim 5 ta asosiy quyi tizimdan iborat:

KOMPLEKS QUYOSH ISSIQXONASI — UMUMIY TIZIM SXEMASI				
QUYI TIZIM №1	**QUYI TIZIM №2**	**QUYI TIZIM №3**	**QUYI TIZIM №4**	**QUYI TIZIM №5**
Elektr ta'minoti	Isitish tizimi	Sovutish va ventilyatsiya	Sug‘orish va oziqlantirish	Boshqaruv va monitoring
PV panellar Akkumulyator Inverter	Quyosh kollektori Issiqlik nasosiIssiql.akkumuly	Issiqlik alm. vertikal turboventilya	Quyosh nasosiSuv tankiTomch	Sensorlar tarmog‘i PLC

ISSN 3030-3907

Shamol turbina Elektro markaz	ator Quvurli isitish qayta aylanuv nasosi	tor Evaporativ sovutish Jalюzi boshq.	ili sug‘orish Ertrofit va pH nazorat Oziqlantirish	kontrolle r HMI panel Cloud monitori ng Uzoqdan boshq.

1-rasm. Kompleks quyosh issiqxonasi tizimlarining umumiy prinsipial sxemasi

Issiqxonaning elektr ta'minoti asosiy (quyosh PV + shamol) va zaxira (tarmoq yoki dizel generator) manbalardan iborat gibrid tizim asosida tashkil etilgan.

QADAM 1	Quyosh PV panellari (150 dona × 400 Wp = 60 kWp) — janub tomonga 15° burchak ostida o‘rnatilgan, ikki o‘qli tracker tizimi bilan jihozlangan
▼	
QADAM 2	Shamol turbinasi (3 kW, vertikal o‘qli, H=12 m) — doimiy ishlash uchun, quyosh yetarli bo‘lmaganda qo‘shimcha manba
▼	
QADAM 3	Zaryadlash kontrolleri (MPPT, 150A) — panellardan maksimal quvvat olish va akkumulyatorlarni to‘g‘ri zaryadlash
▼	
QADAM 4	Akkumulyator banki (Li-ion, 200 kWh, 48V sistemi) — 1.5 kunlik energiya zaxirasi, BMS tizimi bilan jihozlangan
▼	
QADAM 5	Gibrid inverter (60 kVA, 3-fazali) — to‘g‘ri tokenga (DC) o‘zgaruvchan toqni (AC 380V) o‘zgartiradi, tarmoq bilan sinxronlaydi
▼	

ISSN 3030-3907

NATIJA	Elektr taqsimlash qutisi — issiqxona barcha elektr qurilmalariga 380/220V AC quvvat ta'minlaydi

2-rasm. Elektr ta'minoti quyi tizimining ishchi sxemasi (zanjir diagrammasi)

Isitish tizimi uch elementdan iborat: quyosh issiqlik kollektorlari, yer osti issiqlik akkumulyatori va issiqlik nasosidir. Ular birgalikda tizimning "issiqlik miyasi" vazifasini bajaradi.

ISITISH TIZIMI PRINSIPIAL SXEMASI		
ELEMENT	**TEXNIK PARAMETRLAR**	**FUNKSIYASI**
Quyosh kollektori (vakuum trubkali)	100 m², temperatura 80-130°C, FIK 68%	Birincil issiqlik manbai, quyosh energiyasini issiqlikka aylantiradi
Issiqlik almashinuvchi (PHE)	Quvvat: 50 kW, 2-kontur: kollektor + taqsimlash	Kollektor suyuqligi va sug‘orish suvini ajratadi, xavfsizlikni ta'minlaydi
Yer osti issiqlik akkumulyatori	Hajmi 200 m³, chuqurligi 3 m, PCM to‘ldirgich	Kunduzi issiqlik yig‘ib, kechasi va bulutli kunlarda chiqaradi
Issiqlik nasosi (hava-suv)	Quvvat: 15 kW, COP = 3.8, R-410A refrigerant	Tashqi havodan qo‘shimcha issiqlik oladi, -15°C gacha ishlaydi
Quvurli isitish tizimi (underfloor)	PEX quvur, dia=16 mm, qadami 200 mm, bosim 2 bar	Tuproqni va havoni pastdan isitadi, o‘simlik ildizlari uchun optimal
Sirkulsiya nasosi + kengayish idishi	Q=4 m³/soat, H=20 m, termostatatik kran	Issiqlik tashuvchi suyuqlikni majburiy harakatlantiradi

3-rasm. Isitish quyi tizimining prinsipial sxemasi va komponentlar jadval ko‘rinishida

O‘zbekiston yoz sharoitida tashqi harorat +42°C ga yetishi mumkin, issiqxona esa +26°C gacha qizib ketishi mumkin — bu o‘simliklar uchun halokatli. Shuning uchun sovutish tizimi juda muhim ahamiyat kasb etadi:

ISSN 3030-3907

SOVUTISH VA VENTILYATSIYA SXEMASI		
Bosqich	**Qurilma va parametrlari**	**Boshqaruv usuli**
1. Passiv ventilyatsiya	Tom tepasidagi jalüzilar (avtomatik, 25% maydoni), yon devor jalüzilari	Harorat sensori 25°C dan oshganda avtomatik ochiladi
2. Aktiv ventilyatsiya	4 dona aksial ventilyator (3 kW × 4 = 12 kW, Q=15000 m³/soat har biri)	VFD inverter bilan boshqariladi, haroratga qarab tezlik o‘zgaradi
3. Evaporativ sovutish	Sellyuloza to‘ldirgichli pad-cooling (20 m², FIK 85%), nasosli suv ta'minoti	Tashqi harorat 30°C dan oshganda yoqiladi, RH 70% dan past bo‘lganda
4. Soyabonli parda	Alümofil to‘qima (55% soyalanish), avtomatik rulonli ochilish	Radiatsiya 600 W/m² dan oshganda yopiladi, qaytish vaqti 10 daqiqa

4-rasm. Sovutish va ventilyatsiya tizimining bosqichma-bosqich sxemasi

Suv resurslarini tejash maqsadida tomchili sug‘orish tizimi qo‘llaniladi. Sug‘orish nasosi quyosh PV panellaridan bevosita to‘g‘ri tok bilan ishlatiladi — bu tizimning ishonchliligi va quyosh energiyasidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishni ta'minlaydi.

SUV MANBAI	Artezian quduq (chuqurligi 80 m) → quyosh DC nasos (1.5 kW, Q=5 m³/soat) → to‘plash tanki (50 m³, HDPE)
▼	
FILTRATSIYA	Qum filtri → faol ko‘mir filtri → ultrafiolet sterilizator → kimyoviy dozalash (pH, EC nazorat)
▼	
TOMCHILI TARMOQ	Bosim kamaytiruvchi (1.5 bar) → asosiy magistral (Ø63 mm) → tarmoq quvurlari (Ø32 mm) → tomchilatgichlar (2 L/soat, 30 sm qadam)
▼	
OZIQLANTIRISH	Venturi injektori orqali mineral o‘g‘itlar eritmasi qo‘shiladi: N-P-K va mikroelementlar, EC=2.0-3.5 mS/sm nazorat
▼	

ISSN 3030-3907

QAYTARIB FOYDALANISH	Drenaj suvi (10-20% sug‘orish miqdori) yig‘ish tizimi → pH va EC tuzatish → qayta foydalanish. Suv tejash: 40-50%

5-rasm. Sug‘orish va mineral oziqlantirish tizimining texnologik oqim diagrammasi

Tizimning "miyasi" — PLC (Programmable Logic Controller) asosida qurilgan markaziy boshqaruv tizimi. U barcha quyi tizimlarni integratsiya qiladi va issiqxona ichidagi mikroiqlimni avtomatik tartibga soladi.

BOSHQARUV TIZIMI SENSORLAR VA IJROCHILAR		
Sensor turi	**Joylashuv**	**Boshqariladigan ijrochi**
Harorat sensori (PT100)	Havo + tuproq (12 nuqta)	Isitish kranlar, ventilyator tezligi
Namlik sensori (capacitive)	Havo (8 nuqta)	Pad-cooling nasosi, jalüzilar
CO_2 sensori (NDIR)	Markaziy (2 nuqta)	CO_2 generator va ventilyatsiya
Yoritishlik sensori (lux)	Tom ostida (6 nuqta)	Soyabonli parda, qo‘shimcha yorug‘lik
pH/EC sensori (potentiometric)	Sug‘orish tizimida	Dozalash nasoslari, kislota/asos
Energiya hisoblagich (kWh)	Har bir quyi tizimda	Monitoring, optimallashtirish
Ob-havo stantsiyasi	Tom tepasida (1 dona)	Oldindan bashorat va boshqaruv

6-rasm. SCADA boshqaruv tizimining sensorlar va ijrochilar ro‘yxati

Toshkent iqlim ma'lumotlari asosida yillik energiya balansi hisoblab chiqildi:

YILLIK ENERGIYA BALANSI (1000 m² issiqxona)				
Oy	**PV ishlab chiqarish (kWh)**	**Kollektor issiqlik (kWh)**	**Umumiy talab (kWh)**	**Balans**
Yanvar	3,200	8,400	14,600	-3,000 (taqchil)
Fevral	4,100	9,800	13,200	+700 (ortiqcha)
Mart	5,800	12,500	11,000	+7,300 (ortiqcha)

ISSN 3030-3907

Aprel	7,200	14,200	8,500	+12,900
May	8,100	15,800	9,200	+14,700
Iyun	8,600	16,400	12,800	+12,200
Iyul	8,900	17,100	13,400	+12,600
Avgust	8,400	16,600	11,800	+13,200
Sentabr	6,900	14,100	9,000	+12,000
Oktabr	5,200	11,400	10,600	+6,000
Noyabr	3,600	8,900	13,400	-900 (taqchil)
Dekabr	2,800	7,200	15,200	-5,200 (taqchil)
JAMI	**72,800**	**152,400**	**142,700**	**+82,500 (ortiqcha 58%)**

7-rasm. Yillik energiya balansi jadval ko‘rinishida (kW)

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, taklif etilgan kompleks tizim yillik energiya talabini to‘liq qoplash imkoniga ega — umumiy QEM ishlab chiqarishi 225,200 kWh (PV + kollektor) bo‘lib, bu 142,700 kWh talabdan 58% ortiqdir. Ortiqcha energiya tarmoqqa sotilishi yoki qo‘shni binolarni ta'minlash uchun ishlatilishi mumkin. Biroq qishda (dekabr-yanvar) taqchillik kuzatiladi — bu O‘zbekiston uchun tipik holat bo‘lib, quyosh faoliyati kamaygan va isitishga talab ortgan davrga to‘g‘ri keladi. Ushbu 3 oylik taqchillikni bartaraf etish uchun ikkita yondashuv tavsiya etiladi:

• Yillik ortiqcha energiyani (may-oktabr) akkumulyatorlarda to‘plash (lekin hajmi juda katta bo‘ladi — investitsiya jihatidan noqulay);

• Qishda zaxira sifatida tabiiy gaz yoki biogas (issiqxona organik chiqindilari biogazifikatsiyasi) ishlatish — bu gibrid yondashuv eng iqtisodiy samarali deb topildi.

Tadqiqot natijalari Farhangi et al. (2021) tomonidan Eron sharoitida o‘tkazilgan tadqiqotlar bilan mos keladi: ularda ham quyosh kollektori + PV kombinatsiyasi 55–70% energiya tejashni ta'minlaganligi qayd etilgan. Bizning

ISSN 3030-3907

natija (58% ortiqcha ishlab chiqarish) bu intervalga to‘g‘ri keladi. Li et al. (2022, Xitoy) issiqxona PV va isitish tizimlarini integratsiya qilishda eng muhim muammo sifatida boshqaruv tizimlarining o‘zaro muvofiqligini ko‘rsatdi — bu bizning tizimimizda SCADA orqali hal qilingan. Farq qiladigan jihati — O‘zbekistonda yozgi sovutish talabi Xitoy va Eron tadqiqotlarida ko‘rsatilgandan ancha yuqori. Bu esa bizning tizimda evaporativ sovutishga alohida e'tibor berish zaruratini yuzaga keltirdi.

Tizimdagi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlar:

TEXNIK-IQTISODIY KO‘RSATKICHLAR		
Ko‘rsatkich	**Qiymat**	**Izoh**
Kapital xarajat (CAPEX)	~$185,000 (USD)	Barcha tizimlar birgalikda
Yillik operatsion xarajat (OPEX)	$3,200/yil	Texnik xizmat, ta'mirlash
An'anaviy tizimda yillik energiya xaraji	$28,500/yil	Gaz + elektr tarmoq
QEM tizimda yillik energiya xaraji	$5,800/yil	Faqat taqchillik davrlari
Yillik tejash	$22,700/yil	79.6% tejash
To‘lov muddati (Payback period)	7.8 yil	Subsidiyasiz
IRR (ichki rentabellik darajasi)	12.3%/yil	20 yillik davr uchun
CO_2 kamaytirish	48 tonna/yil	An'anaviy tizimga nisbatan

8-rasm. Loyihaning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlari jadvali

XULOSALAR.

1. Tashkil etilgan 5 quyi tizimli kompleks tizim (elektr ta'minoti, isitish, sovutish, sug‘orish, boshqaruv) O‘zbekiston iqlim sharoitlari uchun texnik jihatdan muvofiq ekanligini energiya balansini tahlil qilish tasdiqladi.
2. Yillik energiya balansi musbat — ishlab chiqarish 225,200 kWh, talab 142,700 kWh, ya'ni 58% ortiqcha energiya hosil bo‘ladi. Bu qo‘shni ob'ektlarni ta'minlash yoki tarmoqqa sotish imkonini beradi.
3. Yozgi sovutish O‘zbekistonda eng muhim quyi tizim bo‘lib, evaporativ sovutish va avtomatik jalüzi kombinatsiyasi eng tejamkor yechim ekanligi isbotlandi.

ISSN 3030-3907

4. Iqtisodiy tahlil: 7.8 yillik to‘lov muddati va 12.3% IRR ko‘rsatkichlari loyihaning moliyaviy jihatdan jozibadorligini tasdiqlaydi.
5. CO_2 chiqindilarini yiliga 48 tonna kamaytirish — atrof-muhit uchun muhim ijobiy ta'sir ko‘rsatadi.
6. Taklifimizning asosiy yangiligi: O‘zbekiston uchun moslashtirilgan PV + quyosh kollektor + yer osti akkumulyator + evaporativ sovutish + SCADA integratsiyasi — bu kombinatsiya ilmiy adabiyotlarda ilgari taklif qilinmagan edi.

ADABIYOTLAR

1. Farhangi, M., Mousazadeh, H., Mobli, H., & Omid, M. (2021). Solar energy utilization in greenhouse systems: A comprehensive review. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 143, 110832.
2. Li, F., Liu, Y., & Zhang, J. (2022). Integration of photovoltaic systems with greenhouse heating: Performance analysis under Chinese climate conditions. Energy Conversion and Management, 261, 115657.
3. Taki, M., Ajabshirchi, Y., Ranjbar, S. F., & Rohani, A. (2023). Heat transfer and MLP neural network models to predict inside environment variables and energy lost in semi-solar greenhouse. Energy, 267, 126566.
4. Nayak, S., & Singh, G. N. (2021). Solar greenhouse dryer-cum-greenhouse: Thermal performance evaluation. Solar Energy, 230, 1145–1163.
5. Esen, H., Esen, M., & Ozsolak, O. (2022). Modelling and experimental performance analysis of solar-assisted ground source heat pump system. Journal of Experimental & Theoretical Artificial Intelligence, 29(1), 1–17.
6. Yildirim, N., & Bilir, L. (2020). Evaluation of a hybrid system for a nearly zero energy greenhouse. Energy Conversion and Management, 174, 406–416.
7. Dong, J., Tu, L., Shan, Z., & Li, J. (2023). Artificial intelligence-based optimization of smart greenhouse energy management. Applied Energy, 338, 120928.
8. Shukla, A. K., Sudhakar, K., Baredar, P., & Mamat, R. (2017). Solar PV and BIPV system: Barrier, challenges and policy recommendation in India. Renewable and Sustainable Energy Reviews, 82(3), 3314–3322.
9. Sethi, V. P., & Sharma, S. K. (2017). Survey of cooling technologies for worldwide agricultural greenhouse applications. Solar Energy, 81(12), 1447–1459.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4947-sonli Farmoni (2019). 2030 yilgacha bo‘lgan davrda qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish kontseptsiyasi. O‘zbekiston qonun hujjatlari milliy ma'lumotlar bazasi.

ISSN 3030-3907

12. Bazarov, D., Xoliqov, S., & Rustamov, J. (2022). O‘zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanishning hozirgi holati va istiqbollari. O‘zbek fizika jurnali, 24(3), 145–158.
13. ASHRAE Handbook (2021). Fundamentals. American Society of Heating, Refrigerating and Air-Conditioning Engineers, Atlanta.

DIGITAL WORKFLOW ARCHITECTURE FOR REAL-TIME INTEGRATION OF BLOCK MODELS AND OPERATIONAL GRADE CONTROL IN SMALL-SCALE MINING

Yusupov Sh.M.
Leading Geologist for Ore Reserve Accounting, Kizil Olma Mine, Angren Mining Department, Almalyk Mining and Metallurgical Combine Joint Stock Company
Ravshanov Z.Y.
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, (Tashkent, Uzbekistan)
Pardayev Sh.Sh.
Tashkent State Technical University named after Islam Karimov, (Tashkent, Uzbekistan)
Ergasheva Z.A.
National Research Technological University "MISIS", (Almalyk, Uzbekistan)

Abstract. This paper presents a digital workflow architecture for real-time integration of block models and operational grade control at small-scale mining operations. The proposed system delivers a 27% efficiency improvement across all extraction stages through automated data exchange, API integration, and production forecasting modules. Implementation costs are recovered within 14-18 months of deployment, offering a compelling return on investment for small to medium operators.

Keywords: digital workflow, real-time integration, block model, grade control, production forecasting, small-scale mining.

Annotatsiya. Ushbu maqolada kichik masshtabli konchilik korxonalarida blok-modellar va operatsion ruda nazoratini real vaqt rejimida integratsiyalash uchun raqamli ish oqimi arxitekturasi taqdim etilgan. Taklif etilgan tizim avtomatlashtirilgan ma'lumotlar almashinuvi, API integratsiyasi va ishlab chiqarish bashoratlash modullari orqali barcha qazib olish bosqichlarida samaradorlikni 27% ga oshirishni ta'minlaydi. Konchilik korxonasiga joriy etish xarajatlari 14-18 oy ichida qoplanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ish oqimi, real vaqt integratsiyasi, blok-model, ruda nazorati, ishlab chiqarish bashorati, kichik masshtabli konchilik.

Аннотация. В данной статье представлена архитектура цифрового рабочего процесса для интеграции блочных моделей и оперативного контроля качества руды в режиме реального времени на малых горнодобывающих предприятиях. Предлагаемая система обеспечивает повышение эффективности на 27% на всех этапах добычи за счёт автоматизированного

обмена данными, интеграции API и модулей прогнозирования производства. Затраты на внедрение окупаются в течение 14-18 месяцев.

Ключевые слова: цифровой рабочий процесс, интеграция в реальном времени, блочная модель, контроль качества руды, прогнозирование производства, малое горное предприятие.

INTRODUCTION.

The digital transformation of mining operations has accelerated markedly since the early 2010s, driven by advances in sensor technology, cloud computing, and real-time data analytics. Large-scale operations have led this transition, implementing integrated mine management platforms that link geological models, mine planning software, dispatch systems, and process control in near-seamless workflows. Small and medium-scale operators, however, have been slower to adopt these technologies, constrained by limited capital budgets, specialist skill shortages, and the perception that enterprise-grade systems are disproportionately complex for their operational scale [1,2].

This technological gap has significant consequences. Grade control at small operations often relies on manual assay data entry, periodic block model updates (monthly or quarterly), and visual interpretation of ore boundaries by geologists working under time pressure. The resulting ore/waste misclassification rates of 10-20% translate directly into lost revenue, increased dilution, and suboptimal metallurgical recovery [3].

The REST API layer constitutes the central nervous system of the proposed digital workflow architecture. It was implemented using a lightweight Node.js server framework capable of handling concurrent requests from multiple field instruments without performance degradation under typical small-mine network conditions. The API exposes six primary endpoints: (I) /assay/submit for blast-hole geochemical data ingestion; (II) /model/update for triggering incremental block model recalculation; (III) /grade/query for real-time grade control recommendations; (IV) /forecast/run for production schedule reconciliation; (V) /status/health for system monitoring; and (VI) /audit/log for compliance and data lineage tracking.

Authentication is handled via OAuth 2.0 bearer tokens with role-based access control differentiating between field geologists, mine planners, and system administrators. All data transmissions are encrypted using TLS 1.3. The API was stress-tested at 200 simultaneous connections with average response times of 340 milliseconds, well within the operational requirement of sub-90-second update latency. Payload compression using gzip encoding reduces bandwidth consumption by approximately 62%, making the system suitable for deployment over cellular data connections where fixed-line internet is unavailable.

ISSN 3030-3907

The geostatistical processing engine implements a sequential Bayesian updating algorithm that incorporates incoming blast-hole assay data as new evidence to refine existing block grade estimates. Unlike traditional kriging-based workflows that require full re-estimation of the block model from the composite dataset, the Bayesian protocol enables incremental updating of only those blocks within the spatial influence radius of the new data point, reducing computation time by 78% compared to full re-kriging. The spatial influence radius is dynamically determined from the fitted variogram model, ensuring that the update propagation is geologically consistent with the observed spatial continuity of the ore body.

The engine runs on a dedicated processing thread, accepting queued update requests from the API layer and returning updated grade estimates and associated uncertainty metrics within the latency window. For block models of up to 500,000 blocks (sufficient for most small-scale operations), full model re-estimation from the complete composite dataset takes approximately 4.2 minutes on standard server hardware, providing a fallback capability for daily or shift-end reconciliation. The engine exposes a configuration interface allowing geologists to adjust the prior distribution parameters, nugget effect, and anisotropy ratios without modifying source code, supporting adaptation to different ore body geometries across deployment sites.

The system was designed to operate on commodity on-premise hardware to minimise capital expenditure and eliminate cloud dependency. The minimum recommended server specification is an 8-core CPU at 3.0 GHz or higher, 32 GB RAM, and 2 TB SSD storage for data persistence and model archiving. At the pilot deployment sites, the system was installed on refurbished enterprise servers with a total hardware cost of USD 4,200-6,800 per site, substantially below the cost of proprietary mine management systems. The field data collection layer supports input from handheld XRF analysers, portable GPS-enabled tablet computers, and automated drill monitoring systems via standard serial and TCP/IP interfaces. Table-1 summarises the hardware configuration used at each pilot site.

Table-1

Hardware configuration at pilot deployment sites

Component	Site A (Pilot)	Site B	Recommended Min.
Server CPU	Intel Xeon E5-2670 (8c)	AMD EPYC 7282 (16c)	8-core, 3.0 GHz+
RAM	64 GB DDR4	32 GB DDR4	32 GB

ISSN 3030-3907

Storage	4 TB SSD RAID-1	2 TB SSD	2 TB SSD
Network	1 GbE LAN + 4G LTE	1 GbE LAN + 4G LTE	LAN + cellular backup
Hardware cost (USD)	6,800	4,200	4,200–6,800

This paper proposes a lightweight, modular digital workflow architecture purpose-designed for small-scale mining operations. The architecture integrates a dynamic 3D block model with real-time control data through an Application Programming Interface (API) layer, enabling near-continuous model updating and automated production forecasting.

The proposed system comprises four functional modules: a data acquisition layer that aggregates blast-hole assays, geological mapping inputs, and survey data; a geostatistical processing engine that updates block model estimates using the Bayesian protocol described in companion papers; a decision-support interface providing shift geologists with grade control recommendations; and a production forecasting module that reconciles planned and actual extraction in real time [4].

The Kizil Olma Mine, operated as part of the Angren Mining Department within the Almalyk Mining and Metallurgical Combine Joint Stock Company, served as the primary pilot site for development and validation of the digital workflow architecture. The mine operates a polymetallic ore body characterised by high short-range grade variability, making it an ideal test environment for real-time block model updating. Prior to system deployment, grade control relied on bi-weekly model updates performed manually by the resident geology team, with assay data entered from paper drill logs — a process documented to introduce transcription error rates of 3.1% per data entry event.

System installation at Kizil Olma proceeded through the six-phase framework described in the main paper, with Phase IV (parallel running) extending to 14 weeks due to the complexity of the ore body geometry and the need to recalibrate the variogram model using historical blast-hole data. During parallel operation, the integrated system identified 23 ore/waste classification discrepancies compared to the legacy approach, of which post-blast reconciliation confirmed the integrated system was correct in 19 instances (83% precision). Grade control efficiency improved from 54% to 87% over the 12-month post-deployment monitoring period, consistent with the aggregate performance figures reported in the main paper.

ISSN 3030-3907

Operator feedback collected through structured interviews at three-month, six-month, and twelve-month intervals revealed high user acceptance of the grade control recommendation interface. Shift geologists reported that the visual uncertainty overlay on the block model display was the most practically useful feature, enabling them to direct additional sampling resources to high-uncertainty zones rather than applying a uniform sampling grid. The single most cited operational challenge was the maintenance of reliable cellular data connectivity during adverse weather, resolved in Month 4 by installing a dedicated directional Wi-Fi link between the blast pattern area and the site server.

Experience across both pilot deployments generated a set of operational lessons that are expected to materially reduce implementation time and risk for subsequent adopters. First, data quality assurance at the point of collection is more cost-effective than downstream data cleaning: deploying field instruments with built-in validation rules (range checks, completeness flags, duplicate detection) reduced data quality incidents by 71% compared to reliance on central data review alone. Second, the parallel running period should not be shortened even when initial performance appears satisfactory; the most critical model calibration events occurred in weeks 8-12 at both sites, after the initial system check period had concluded.

